

46  
49  
P-26

ADIBA RASULLOVA

# SAHNA NUTQI



Узбекистон

О'zbekiston RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Р-26

*ADIBA RASULOVA*

## **SAHNA NUTQI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlari  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

B 13446.

O'z M U

Ilmiy kutubxonasi

«Musiqa» nashriyoti  
Toshkent  
2009

Ushbu o'quv qo'llanma san'at va madaniyat oliv o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan bo'lib, sahna san'atining asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lgan «Birinchi shaxs» nutqining ifodaviyligi, ta'sirchanligini ta'minlashga aloqador dolzarb masalalarga bag'ishlangan. Qo'llanma ommaviy bayramlar rejissurasi talabalari, umuman, teatr san'ati, aktyorlik mahorati, so'z san'ati bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

#### M a s ' u l m u h a r r i r :

**Qosimov N.** — filologiya fanlari nomzodi, professor.

#### T a q r i z c h i l a r :

**Ikromov H.** — san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

**Yo'ldosheva S.** — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor.

**Nosirova N.M.** — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Mirpo'latov X.T.** — dotsent.

© «Musiqa» nashriyoti, 2009

**ISBN** 978-9943-307-42-1

© Adiba Rasulova, 2009

## KIRISH

«Sahna nutqi», «Rejissura», «Aktyorlik mahorati» kabi fanlarning asosiy maqsadi bo‘lajak talaba-rejissyorlarning g‘oyaviy va professional tayyorgarliklarini chuqur bilim va amaliy tayyorgarlik asosida mukammallashtirishga qaratiladi.

Bu fanlar talabalardan mantiqiy va obrazli fikrlash, sahnaviy xatti-harakatga asoslangan so‘z ustida ishlashda keng va atroficha bilinga ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Bu fanlarning maqsadi bo‘lajak talaba-rejissyorlarning nutq madaniyatini o‘stirish, ijrochilik san’ati elementlarini egallash, rejissyor-pedagoglik uslublarini o‘rganishni keng ta’minlashdir.

Madaniyat instituti «Rejissura» bo‘limida rejissyorlik mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar yetishib chiqadi. Biroq madaniyat instituti rejissyorlari professional aktyorlar bilan emas, balki badiiy havaskorlar bilan, ya’ni san’at olamiga endigina kirib kelayotgan yoshlar bilan shug‘ullanadilar. Har bir havaskorlik rejissurasi bilan shug‘ullanuvchilar nafaqat pedagog, tashkilotchi, sahnalashtiruvchi, balki ijrochi-rejissyor, aktyor-rejissyor hamdir. Mana shu jihatdan, bu fanlar bo‘lajak rejissyorlar uchun asosiy mutaxassislik fanlaridan hisoblanadi.

Sahna nutqi, avvalo, sahnadan turib aytiladigan nutqdir. Ma’lumki, turli ommaviy tadbirlar ham o‘zining belgilangan sahnasiga ega. Demak, ularning nutqi ham rang-barang bo‘lib, har biri o‘zicha alohidalikka ega.

San’at, madaniyat xodimlari, xususan, madaniyat institutining talabalari ommaning madaniy saviyasini oshirishda faol ishtirok etadilar. Ayniqsa «Rejissura» kafedrasi talabalarining o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Chunki bo‘lajak rejissyor-talabalar keng omma bilan yagona xalq tilida doim aloqada bo‘ladilar, shu til orqali badiiy asar va sahna asarlarining tub mazmunini va mohiyatini

tinglovchilarga, tomoshabinlarga yetkazadilar va ularning madaniyati, ma'naviyatini o'stirishga yordam beradilar.

Shunday ekan, talabalarning faoliyatida badiiy va ifodali nutq alohida o'rinn tutadi. Nutqning ravon va aniq bo'lishi sahnaviy asarlarning mazmunini tez anglashga, mohiyatini chuqur tushunib yetishga yordam beradi. Bu esa talabaning o'z nutqi ustida uzuksiz ishlab borishi va uni o'stirib borishi, takomillashtirishi yo'lida tinmay mehnat qilishi zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyot va san'at asarlari milliy boylikdir. Badiiy asarlarning ta'sir kuchi juda buyuk, lekin bu faqat asarning g'oyaviy mazmuni, badiiyati bilangina emas, balki ifodali o'qish san'atini qo'llay bilish me'yori bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki ifodali so'z badiiy asarning g'oyaviy boyligini tushunishga katta yordam beradi.

Badiiy adabiyotning eng yaxshi namunalari vositasida vatanparvarlik, birodarlik, do'stlik, mehnatga munosabat, muhabbat singari insoniy tuyg'ular tarbiyalanadi.

San'at xodimlari ommaning madaniy saviyasini ko'tarishda faol qatnashadilar. Ayniqsa, sahna asarlarining muvafqaqiyatlari chiqishida ijrochilarning xizmati nihoyatda katta. Chunki ular omma bilan yagona xalq tilida doim aloqada bo'ladilar, shu til orqali sahna va badiiy asarlarning tub mazmuni va mohiyatini tomoshabinlarga yetkazadilar va ularni tarbiyalaydilar.

Shunday ekan, ijrochilar faoliyatida badiiy va ifodali nutq alohida, muhim o'rinn tutadi. Nutqning ravon va aniq bo'lishi sahna asarlarning mazmunini tez anglashga, mohiyatini chuqur tushunib olishga yordam beradi.

Jonli nutq ajoyibotlar yaratishga qodir. Nutq kishilarni quvonishga va qayg'urishga, sevgi va g'azabni uyg'otishga, achinish va ruhlanishga majbur etadi. Kishida yuksak intilishlar va yorqin orzular uyg'otadi. Yurakning tub-tubigacha singib, mudrab yotgan fikr va hissiyotlarni qo'zg'otadi. Jonli, badiiy so'zning ta'sirchanlik xususiyatlaridan biri shundaki, u avvalo kishilarga zavq bera oladi. Zavq bera oladigan so'z esa, har doim o'z tinglovchilarini topa oladi va ularga ta'sir etadi. Sahna nutqi adabiy materialning butun borlig'ini mujassamlashtiruvchi asosiy va ifodali vositadir. Sahna nutqi ijrochining maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqaruvchi sarchashma va ayni paytda, ijodiy jarayonning cho'qqisi hamdir.

## *I BO'LIM*

### **BIRINCHI SHAXS NOMIDAN HIKOYA**

#### **Birinchi shaxs tilidan aytildigan matn ustida ishlashning asosiy vazifa va uslublari**

Aktyorning vazifasi sahnaviy obraz yaratishdan iborat. Har bir sahnnaviy qahramonning o'ziga xos fikrlash va mushohada qilish yo'llari, uning dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rniga, ma'lumoti, madaniyat darajasiga, shuningdek, xarakteri kabi xususiyatlariga bog'liqdir. Qahramonning keng mushohadaga ega bo'lishi, o'z navbatida, aktyorning til va talaffuzi, nutqining temporitmi va ohangi asosidagi nutqiy manerasida o'z ifodasini topadi.

Teatr maktablaridagi sahna nutqi mashg'ulotlarida talabalar uzoq vaqt esda qoladigan yorqin sahnnaviy obrazlar yaratish uchun obrazli fikrlash va gapirish yo'llarini egallab, o'zlarining mahorat darajalarini kundan-kun orttirib borishlari kerak. Shuning uchun u yoki bu material ustida ishlaganda maqsadga muvofiq keladigan shunday materialni tanlash lozimki, u dialog va monologga o'tish uchun ma'lum bir pog'ona, bosqich vazifasini o'tasin. Shu ma'noda birinchi shaxs nomidan hikoya qilish eng maqbul, maqsadga muvofiq usul hisoblanadi.

Birinchi shaxs nomidan hikoya qilishda biz o'zimizni dramatik monologga eng yaqin bo'lgan sharoitlarda sezamiz, his etamiz. Tanlangan adabiy parcha ustida ishlash, hikoya qilish tufayli obrazli fikrlash, ma'lum odamlar bilan jonli muloqotda bo'lish kabi ijrochi uchun eng zarur, eng muhim bo'lgan tushunchalar yanada oydinlashadi, yanada aniqroq anglashinadi va nihoyat, amaliy jihatdan o'zlashtiriladi.

Birinchi shaxs tilidan hikoya qilishda obrazli nutqni egallash muammosi paydo bo'ladi. Bu nutqning o'ziga xosligi ijrochi tilining uslubi bilan belgilanadi. Birinchi shaxs nomidan hikoya qiluvchi uchinchi shaxs nomidan hikoya qiluvchiga nisbatan ijro etuvchi materialga o'zining shaxsiy daxldorligini yanada yorqinroq, yanada yaqinroq his qiladi. Bunday ijrochi o'zini sodir bo'layotgan voqeanning shunchaki kuzatuvchisi sifatida emas, balki bevosita ishtirokchisi sifatida his qilishi darkor. Uning taqdiri, hayotga, atrofidiagi odamlarga nisbatan qarashlari go'yo o'zgargandek bo'ladi.

Sodir bo'layotgan biror voqeя yoki hodisa ma'lum bir insonga taalluqli bo'lsa, unda uning asabiy va nuhiy holati ko'proq ishtirok etadi.

Shunday ekan, pedagog talabandan ma'lum va aniq, o'ziga daiddor, ko'z oldida yanada ravshanroq gavdalantira oladigan mavzu tanlashni talab etishga haqlidir.

Birinchi shaxs nomidan hikoya qilinganda mezanssena, grim va kiyimlardan foydalanish shart emas. Bu o'rinda faqat nutqning ohangdorligi, temporitmiga e'tibor berish lozim. Zero, bu inson qalbidagi tug'yon, sezgi va fikrni ifodalashda muhim o'rinn tutadi. Adabiy-badiiy repertuar ustida ishlayotganda yaratilajak obrazning xarakterini, fikrlash mantiqini, his-tuyg'ularini bera bilish asosiy vazifa hisoblanadi.

Boshqa adabiy materiallardagi kabi birinchi shaxs nomidan hikoya qilishda ham talabalarga asarning mavzusi, oliy maqsadini matnning birinchi va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash, so'z yordamida ta'sir eta bilish, asarning yetakchi xatti-harakatini aniqlash, matnning til va uslub xususiyatlarini ochib bera olishni o'rgatish lozim.

Quyida tanlangan matnni amaliy o'zlashtirish yo'lida birinchi shaxs tilidan gapiruvchi uchun muhim bo'lgan ~ oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat, qarama-qarshilik va diqqat ob'ekti kabi tushunchalarga alohida to'xtalib o'tamiz.

## OLIY MAQSAD

Oliy maqsad haqidagi tushuncha K. S. Stanislavskiy sistemasining eng muhim jihatlaridan biri sifatida har bir talaba uchun o'quv dargohiga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlaboq tanish.

Biz shuni yaxshi bilamizki, har qanday asarda ham muallifning orzu-umidlari, his-hayajonlari, hayotiy tajribalari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Asar asosan ana shular asosida yuzaga keladi.

«Sahnada yozuvchining his-hayajonlarini, aytmoqchi bo‘lgan fikrini, orzu-umidlarini, chekkan azob-uqubatlarini, xursandchiliklarini yetkazib bera olish spektaklning bosh vazifasi hisoblanadi. Mana shu bosh vazifa, hamma narsani o‘ziga qamrab oluvchi maqsad, istisnosiz barcha vazifalarni o‘ziga jamlovchi... narsani yozuvchi asarining oliy maqsadi deb qabul qilaylik», — degan edi K.S.Stanislavskiy.

Ijrochi spektaklda qanday harakat qilmasin, u spektakl nima uchun, qay maqsadda sahnalaشتirilganligini, uning oliy maqsadi nimadan iboratligini yoddan chiqarmasligi lozim.

«Pyesada sodir bo‘ladigan hamma narsa, uning katta-yu kichik vazifalari ijrochining jamiki ijodiy rejalarini va xatti-harakatlari pyesaning oliy maqsadini ochishga qaratilgan bo‘lmog‘i darkor. Oliy maqsad bilan bo‘lgan umumiy aloqa unga bog‘liqlik shu qadar muhim va ulug‘kim, hatto oliy maqsadga aloqador bo‘lman eng arzimagan holat ham asarning tub mohiyatini ochishda ijrochini chalg‘itib qo‘yishi, ortiqchalik qilishi, hatto, zarar yetkazishi mumkin»<sup>1</sup>.

Bu qoidalar to‘laligicha birinchi shaxs nomidan hikoya qilishga ham taalluqlidir.

Talaba asarning bosh maqsadidan — oliy maqsadidan kelib chiqqan holda, o‘ziga parcha tanlaydi. Bunda eng asosiy narsa — ana shu tanlangan parcha ijrochi qalbida jonli iz qoldirishi lozim. Agar oliy maqsad ijrochini shaxsan haya jonga solmasa, to‘lqinlantirmasa, u holda u o‘zi ijro etayotgan parchani yoki rotni shunchaki yengil-yelpi, ko‘r-ko‘rona ijro etishdan nariga o‘tolmaydi.

Biron-bir natija chiqarish uchungina topilgan yoxud tanlangan oliy maqsad hech qachon yuksak, buyuk asar yaratishga qodir emas. Faqat boshdan kechirilgan, ijodkorning ruhiy dunyosiga benihoya ta‘sir etgan oliy maqsadgina san’atda buyuk asar yaratishga omil bo‘la oladi. Buyuk san’at namoyandasasi V.Stasovning fikricha, qachonki ijodkor o‘zi o‘ylagan, yozmoqchi bo‘lgan voqeal bilan

<sup>1</sup> К.С.Станиславский. Собр. соч. т-2, М-1954.

«yaralangan» bo‘lsagina, chin ma’nodagi haqiqiy ijodiy yutuqlarga erishishi mumkin. Xuddi shunday ijrochi ham, o‘zi tanlayotgan parcha yoki rolga ana shu nuqtayi nazardan yondashsagina o‘z oldiga qo‘yan maqsadiga erishmog‘i mumkin.

«Men sahnaga «Sahna nutqi» fanidan navbatdagi imtihonni topshirish uchun emas, balki meni to‘lqinlantirgan, larzaga solgan, men uchun eng aziz, eng mo‘tabar yoxud men uchun haddan ziyyod bo‘lgan voqeani gapirib berish, hikoya qilish uchun chiqaman»<sup>2</sup>.

Oliy maqsadga amal qilish ijrochining matnga bevosita daxldorligi uchun zarur sharoit yaratib, uning fikri jonli, ishonarli chiqishiga yordam beradi.

Ana shunda ijrochi nutqidagi har bir so‘z kimgadir, nimagadir, taqlid qilish tarzida yangramasdan, balki xuddi o‘zinikiday jonli jaranglaydi. Mana shularning hammasi ro‘yobga chiqishi uchun tanlanadigan pachanening mavzusi ijrochi uchun ham, tinglovchi uchun ham yaqin, muhim va zarur bo‘lishi darkor. Shu munosabat bilan bo‘lajak ijrochi-aktyorning dunyoqarashi, uning jamiyatda tutgan o‘rni muhim o‘rin o‘ynaydi.

Agar u faqat o‘zini qiziqtirgan, yolg‘iz o‘zini tashvishga solayotgan narsa va voqealarni ilhom manbayi deb biliб, o‘zini o‘rab turgan atrof- muhitda sodir bo‘layotgan voqealarni o‘zining tor, shaxsiy xursandchiliklari va qayg‘ulari, ikkilanishlari nuqtayi nazardan talqin etsa, u holda bunday ijro tomoshabin yoki tinglovchi qalbiga yetib bornaydi va uni tarbiyalay olmaydi.

Shuning uchun ham ijrochi har safar «men tomoshabin oldiga qay maqsadda chiqmoqdaman, uni nimaga undamoqchiman, nimaga ishontirmoqchiman», degan savollarga javob axtarib topsagina, tomoshabin yoki tinglovchi yuragidan joy oladi.

Ijrochi-aktyor uchun o‘z xalqi, o‘z vatani va zamonasining eng muhim masalalari, muammolari ijod manbalari bo‘lmog‘i talab etiladi.

Birinchi shaxs tilidan hikoya qilish ustida ishlash talaba- ijrochida ana shu sifatlarni yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Albatta olingan parchada yirik hayotiy masalalar ustida to‘xtash

<sup>2</sup> А. Д. Попов. Художественная целостность спектакля М. 1959. 58-бет.

shart emas. Unda axloq masalalari, turmush va boshqa masalalar ko'tarilsa ham bo'laveradi. Ammo bularning barchasida asos vazifa – oliv maqsad bo'lmog'i lozim.

## **YETAKCHI XATTI-HARAKAT**

Yetakchi xatti-harakat ham xuddi oliv maqsad haqidagi tushuncha singari K.S.Stanislavskiy sistemasining asosiy negizlaridan biridir.

Artist rolining oliv maqsad sari butun pyesa davomidagi to'xtovsiz harakatda bo'lgan ichki intilishini, psixik holatini Stanislavskiy yetakchi xatti-harakat deb atagan edi. Shunday qilib, **yetakchi xatti-harakat oliv maqsad bilan chambarchas, uzviy bog'langan bo'lib, unga, ya'ni oliv maqsadga xizmat qiladi.**

Oliv maqsad va yetakchi xatti-harakat asosiy ijodiy maqsadni ro'yobga chiqarishda bir-biridan ajralgan bo'lak va vazifalarini bog'laydi, umumlashtiradi.

«Oliv maqsad va yetakchi xatti-harakat pyesaning hayotiy bosh ma'nosi, arteriyasi, asabi, qizil qon tomiri hisoblanadi...»

«Yetakchi xatti-harakat pyesaning boshidan oxirigacha davom etuvchi leytvmotivdir. Oly maqsad va yetakchi xatti-harakat aktyor intilishlarini yo'naltirib turuvchi kompasdir, ayrim-ayrim qismlarini bog'lab turuvchi asosiy vositadir»<sup>3</sup>.

Teatr maktabi talabasi uchun yetakchi xatti-harakat haqidagi tushunchaning o'zinigina bilib olish kifoya qilmaydi. Aktyor mutaxassisligi tili bilan aytganda, bilish – bu amaliy ro'yobga chiqarish, demakdir.

Ko'pincha talaba tanlangan parchani ehtirosli, shiddatli qilib, yetakchi xatti-harakat asosida to'liq holicha oliv maqsadga bo'ysundirib olmaydi.

Aytaylik, ijrochi o'zining ijodiy fantaziyasini zabt etgan, to'lqinlantirgan parchani tanlab oldi. Shundan so'ng matn tahlili boshlanadi. Parchaning asosiy voqealari qahramonlarning xatti-harakati, ularning o'zaro munosabatlari, talaba-ijrochining

---

<sup>3</sup> К.С.Станиславский. Работа актёра над ролью. Собр. соч.т-4 М. 1959. 151-bet.

voqealarga va qahramonlarga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Talaba parcha nima haqida ekanligi, undagi voqealar tizimini aniqlashga kirishadi. Bunda biron bir so'z, biron bir ibora, jumla diqqatdan chetda qolmasligi zarur.

Asarni uslub jihatdan bir boshdan, chuqur tahlil qilish, yozuvchining maqsadini, uning qarashlarini va tub ma'noni aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa asarni tahlil qilish zarur masala ekanligi ayon bo'ladi. Asar tahlili – ishning boshlanishidir.

Butun bir hikoyani asosiy yetakchi xatti-harakatga bo'ysundira olmagan talaba-ijrochi parchani shunchaki, «to'g'ridan-to'g'ri» talaffuz etaveradi, so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Bunday hollarda ijrochi-talaba g'am, qayg'uni ifodalovchi so'zlarini talaffuz etganda, nomigagina ko'r-ko'rona «qayg'uradi», «g'am chekadi», «alam tortadi». Quvonch, xursandchilik so'zlarini aytayotib esa, shunchaki «quvonadi», «xursand bo'ladi». Oliy maqsad, yetakchi xatti-harakatni nazar-pisand qilmaslik shunday oqibatlarga olib keladi. Bizning vazifamiz – tahlil qilish jarayonida faqat uni bo'laklarga bo'lishnigina emas, balki shu bilan birga, uni butun, yaxlit holda, asosiy maqsad tevaragida jamlashga ham o'rgatishdan iborat.

Talaba-ijrochi ko'rinishni bo'laklarga bo'lishni, tadrijiylik ko'nikmalarini egallash bilan birga, oliy maqsadni diqqat markazidan chetda qoldirmasligi lozim. Ana shundagina parchadagi bo'laklarning o'zaro bog'liqligi va ularning asosiy maqsadga bo'ysindirilishi sodir bo'ladi. Parcha ustida ishlashning dastlabki davrida talaba-ijrochi yagona oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat negiziga – o'zagiga to'liq boshliq parcha matnini bo'ysundirishi, singdirishi talab etiladi.

Parcha matnini yetakchi harakatga bo'ysundirar ekanmiz, biz hikoyachining yoki ijrochining fikrini tasdiqlaydigan so'z va bo'laklarni aniqlaymiz. Ulardan ba'zilari birinchi o'ringa, kamroq ahamiyatga molik bo'lganlari ikkinchi, uchinchi o'ringa o'tadi, qolgan so'zlar sezilar-sezilmas talaffuz etiladi. Lekin bundan, qolgan so'zlarни istagancha talaffuz qilaverish mumkin, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Matnni yetakchi xatti-harakat va oliy maqsadga bo'ysundirish obrazli fikrlash, obrazli nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Faqat oliy maqsad va yetakchi xatti-

harakatgina mantiq urg‘usiga ta’sir o’tkazadi. Agar tanlangan parchaning mazmuni talab qilsa, mantiq urg‘usi gapning istagan bo‘lagiga – sifatga, olmoshga va h.k.z.ga tushishi mumkin.

Masalan, spektaki uncha katta bo‘lмаган yozги binoda namoyish etildi. Bu jumlada mantiq urg‘usi «yozgi» so‘ziga tushgan, ya’ni mantiq urg‘usi sifatga tushgan. Spektaki qishgi binoda emas, balki yozgi binoda namoyish etilganligiga e’tibor jalb etilyapti. Agar biz sahnaning kichikligini, dekoratsiyalar sig‘maganligini anglatmoqchi bo‘lsak, u holda mantiq urg‘usini «uncha katta bo‘lмаган» so‘z birikmasiga berishimiz lozim bo‘ladi. Yetakchi xatti-harakat haqidagi tushuncha bilan tanishar ekanmiz, K.S.Stanislavskiyning «Aktyorning rol ustida ishlashi» kitobidan olingen bir parchaga e’tiboringizni tortamiz. K.S.Stanislavskiy bu parchada asardagi asosiy mavzu qanday paydo bo‘lishi, rivojlanishi va g‘alaba qilishini juda yorqin, obrazli, ishonarli qilib bayon etish bilan birga, undagi asosiy va ikkinchi darajali bo‘laklar nimalardan iborat ekanligini ko‘rsatib bergen. Quyida ana shu parchani qisqartirilgan holda keltiramiz.

«Ijod qilish – bu oliy maqsad sari ehtiros, zavq va havas bilan ma‘lum maqsadni ko‘zlagan holda, tezkorlik bilan borishdan iborat. Bu qanday sodir bo‘lishini bilgingiz kelsa, hozir bizda gastrolda bo‘lgan dirijyording konsertiga boring. Men u haqida yaqinda eshitdim.

Voqeа bunday bo‘lgan edi:

Dirijyor kirib keldi. Oldiniga undan hafsalam pir bo‘ldi: kichkinagina, ko‘rimsiz odam ekan...

Lekin u qo‘liga dirijyorlik tayoqchasini olishi bilan mening ko‘z o‘ngimda boshqacha manzara paydo bo‘ldi. Nazarimda u orkestrga, orkestr unga qo‘shilishib ketganga o‘xshardi. Shundan so‘ng u har bitta cholg‘uchidan dirijyor tayoqchasi tomon tortilgan tizgin, jilovlarni bittama-bitta tortib ola boshladi. Tayoqcha havolangan sari dirijyor ham bamisol o‘sib borayotganga, yuqori tomon ko‘tarilayotganga o‘xshardi. Shunda men dirijyor nafaqat umum diqqatini o‘ziga jalb qilib olganligini, shu bilan birga, barcha son-sanoqsiz shart-sharoitlarda oliy maqsad yo‘lida ko‘p izlanganligini, bugun ana shu haqiqiy ehtiros, ruhiy aniqlik ro‘yobga chiqayotganligining shohidi bo‘ldim.

Men birinchi musiqa ovozi eshitilgunga qadar dirijyording qiyofasidan orkestr qandaydir sehrli, muhim, umrbod esda

qoladigan bir kuyni ijro etishini angladim. Dirijyor shoshmasdan, aniq harakat qilar, tayoqchasi ko'magida taralayotgan ohanglarning bir butun ichki ma'nosini boshqarib turardi. Biz bu uncha katta bo'limgan, lekin shu bilan birga muhim parchanining mohiyatini allaqachon tushunib yetgandek edik. Lekin u hali oxirgi nuqtasiga borib yetmagan edi. Dirijyor faqat boshlangan ohangni oxirgi nuqtasiga yetkazmagunga qadar bir parchadan ikkinchi parchaga o'tishga shoshilmasdi. Yana, yana... kam... kam...

Nihoyat fagot nola qilib, oxirgi nuqtani qo'ydi. Shundan so'nggina dirijyor tayoqchasi biroz pastga tushdi. Oradan bir-ikki daqiqqa o'tar-o'tmas, dirijyor qarama-qarshi tomondagi birinchi skripkachilar tomon yuzlandi. Ular boshlangan musiqa mazmunini mantiqan uzviy rivojlantirgan holda davom ettirishardi, musiqani gaboy bilan fagot nihoyasiga yetkazdi. Dirijyor endi skripkalariga yanada qattiqroq yopishib oldi. Ulardan skripkalar aytishi mumkin bo'lган hamma narsani sug'urib oldi. Bu ham hali kamdek ko'rindi. Musiqa qanot yozayotganga o'xshardi. Endi birginaskripkalar kamlik qilayotganday, velonchenlar ishgasolindi. Bu ham yetarli bo'limgach, dirijyor yog'och asboblarni yordamga chaqirdi. Musiqadan anglashilayotgan mazmun yuqorilab borgan sayin dirijyorlik tayoqchasi torli asboblarni madadga chorladi. Lekin u ularni yig'loqilik qilishga qo'y may, trambonlardan taralayotgan bahaybat kuyni o'z qo'lida ushlab turardi.

Bu ishlarning hammasi qo'l va nigoh yordamida boshqarilardi. Asboblarning metall ko'ksida ohang xirillar, lekin ular o'zlarini ortiqcha ushlay olmay, erkinlik berishni iltijo qilishardi. Lekin dirijyor shavqatsiz edi. U simli asboblarning haddan ziyod avj olib ketishi asarning asosiy maqsadini ochishga xalaqit berishi mumkinligidan cho'chirdi. Oxiri bo'lindi. O'kirish, g'ala-g'ovur girdobiga g'arq bo'lib ketgan dirijorning jussasi u tomongan bu tomonga chayqalar, butun orkestrni o'z qaniotlari ostiga olganga o'xshardi...

Dirijyor mening ko'z o'ngimda baliqchi sifatida gavdalandi. Odadta baliqchi tutilgan baliqni suvdan ko'tarib olayotganda, baliq qarmoqdan chiqib ketmasligi uchun nihoyatda ustalik bilan, ehtiyyotkorlik choralarini ko'radi. Dirijyor butun bir simfoniyani tinglovchi ko'z o'ngida butun borlig'i, go'zalligi, ta'sirchanligi

bilan gavdalantirish uchun undagi parchalarning muhimlariga asosiy, qolganlariga ikkinchi, uchinchi darajali e'tibor berib, cholg'uchilarning diqqat-e'tiborini ana shunga jalb etdi. Bunda u qo'l va jussa harakatlardan, mimikadan mohirona foydalandi...

Aktyor ijrochi ham xuddi shunday bo'lishi kerak. U ham oliy maqsadni ro'yobga chiqarish yo'lida ana shunday ehtirosli, zavqli bo'lishi, yetakchi xatti-harakat yo'lida charchamasdan, to'xtovsiz, ikkilanmasdan, o'z ijod yo'lini aniq belgilay olishi kerak».

## QARAMA-QARSHILIK

Ijrochi-talaba o'z hikoyasini oliy maqsad va yetakchi xatti-harakatga bo'ysundirib, tinglovchiga ta'sir qilish, ya'ni ularni o'zgartirishga harakat qilishi, shuningdek, o'ziga xos o'ylash va fikrlashga majbur eta olishi kerak.

Hayot tomonidan ko'ndalang qilib qo'yilgan va shu vaqtgacha hal etilmagan masalani yechish uchun aktyor sahnaga chiqadi.

U o'z maqsadini himoya qilgan holda, sodir bo'layotgan voqeaga nisbatan o'z qarashlari orqali tomoshabinlarni, tinglovchilarni, o'z tomoniga ag'darib olishi, o'zining maslakdoshiga aylantirmog'i darkor.

Buyuk rus aktyori S. Yurksiy shunday degan edi: «Men zaldan do'stlarimni emas, balki oddiy tomoshabin-himoyachilarimni qidiraman. Spektakl davomida ularni o'z tomonimga og'dirib olishga urinaman, harakat qilaman. Ikki orada kurash boshlanadi. Oldiniga ular mening so'zlarimga loqaydlik bilan e'tiborsiz qarashmoqchi bo'lishadi, men esa ularni gaplarimning haqligiga, to'g'riliqiga ishontirmoqchi bo'laman. Mana shu tariqa ikki orada — ijrochi bilan tomoshabin o'rtasida tortishuv, konflikt (qarama-qarshilik) yuzaga keladi. Haqiqiy san'atkor tomosha zalini o'z hukmiga bo'ysundirishga intilmog'i lozim».

Har qanday harakat qarshi harakatga duch keladi, ikkinchisi birinchisini kuchayib ketishiga olib keladi. Xatti-harakat qator yangi xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi. Shunday qarama-qarshiliklar doimo kerak bo'lib, ular kurash, tortishuv, janjal singari bir qancha vazifalarni yuzaga keltiradi va ularni hal qilishga yordam beradi.

Ijrochining tomoshabin bilan bo'lgan muomalasi qanchalik o'tkir, qanchalik qarama-qarshiliklarga to'la bo'lsa, uning hikoyasi, monolog shunchalik ta'sirchan va jonli chiqadi. Lekin qarama-qarshilikni to'g'ridan-to'g'ri tushunmaslik kerak. Zeroki, tomoshabin bilan qarama-qarshi bo'lish bu qattiq gapirish, unga aql o'rgatish yo haqoratlash degani emas, balki ustidan kulib, pand-nasihat qilish, o'git berish, yalinish, do'q-po'pisa qilish, uyaltirish, fosh etish, tan olmaslik... kabi qarama-qarshi holatlardan foydalanish mumkin. Eng muhimmi, ijrochi qarshilikni davom ettirish uchun emas, balki tinglovchini o'z maslakdoshiga aylantirib olish uchun harakat qilmog'i kerak.

Suhbatdosh bilan muomalada bo'lganda shunday zarur ohangni topa bilih kerakki, natijada u siz hikoyachidan xafa bo'lmasdan, achchiqlanmasdan, tushunib, sizga ishonib «ergashsin».

Qarama-qarshilikning qanday ekanligi va xarakteri ma'lum miqdorda (ma'noda) hikoyachi yoki ijrochi kim bilan to'qnashayotganligiga, uning diqqat markazida kim turganiga ham bog'liq.

### DIQQAT OBYEKTI (markazi)

Spektaklda dramatik aktyorming diqqatini o'ziga tortuvchi talaygina obyektlar mavjud bo'ladi.

«Odatda bu obyektlar doirasi o'zgaruvchan bo'ladi: goh kengayadi, goh torayib boradi. Aktyor sahnada bajaradigan harakati davomida bunga e'tibor berishi lozim. Drama ishtirokchilaridan biri sifatida artist diqqatining markaziy obyektini shu asnoda nimaga qaratilganligi, pyesaning boshqa bir ishtirokchisi bilan qanday ichki aloqada, muloqotda ekanligi muhimdir. Agar artist, ijrochi uzoq davom etgan mashqlari tufayli o'z sezgi va reaksiyasini u yoki bu obyektga qarata olish ko'nikmalariga ega bo'lsa, u holda obyekt bilan sahnaviy aloqa badiiy to'laqonli bo'lishi mumkin. Faqat ana shundagina sahnadagi harakat ifodali va ta'sirchan chiqadi. Spektaklning temporitmi saqlangani holda aktyorlarning o'zaro jonli muloqoti yuzaga keladi»<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> К.С.Станиславский. Мастерство актёра и режиссёра. Собр. соч. т-6. М. 1959. 235-бет.

Ko'rinib turibdiki, atoqli pedagog olim spektaklda ishtirok etuvchilarning o'zaro jonli aloqasiga juda katta e'tibor bergen va bunga erishmoq uchun «uzoq vaqt mashq qilishni» tavsiya etgan.

Shu nuqtayi nazardan yondoshiladigan bo'lsa, umuman sahna nutqi darslarida, shu jumladan, birinchi shaxs nomidan hikoya qilishda ham bu muhim masalaga qaytish, ijrochi-talabalarni shu ruhda tarbiyalab, mashq qildirish darkor.

Talabalarning butun bir guruhi hikoyachining obyekti bo'lishi mumkin. Bu narsa shunda sodir bo'ladiki, qachonki u hikoya qilayotgan voqeя yoki hodisa talabalarga, tinglovchilarga notanish bo'lsa. Ijrochining diqqat markazida ikkita obyekt ham bo'lishi mumkin. Misol uchun guruhdagи talabalaming bir qismi unga maslakdosh, hamfikr, do'st, ikkinchi qismi uning fikrini rad etadi, unga qo'shilmaydi. Hikoyachi o'ziga qarshi tomon bilan tortishar ekan yoki boshqacha qilib aytganda, qarama-qarshilikda bo'lar ekan, o'z himoyachilaridan madad kutadi. Bunda u hikoya matnining qaysi qismlari «dushrmanlarga», qaysi qismlari «do'stlarga» qarata aytilishini bilib olishi kerak. Hikoyachining diqqat obyekti ikki, uch, to'rt kishi, hattoki, bir, ikki kishi bo'lishi ham mumkin. Bu talaba tanlagan parchaga bog'liq.

Masalan, O'.Umarbekovning «Cho'pon Vasil va uning farzandlari» parchasini olib ko'raylik. Hikoyaning obyekti butun bir guruhi bo'lishi mumkin.

Men ham bitta qo'shiq aytay, quloq soling, gayduklar! Ammo ko'z yosh to'kmang sira, ko'z yosh sizga yarashmas. Oyoq osti bo'lgan yurtim sher gerbini taqqanda — mayli, yig'lang, ko'z yoshingiz Iskrday daryo bo'lsin.

Chevenbergda cho'pon Vasil yashar edi bir zamон. Kulbasi bor edi uning, farishtadek xotini, tangri ato qilgan edi ularga yetti o'g'il, kattasining endigina mo'ylovi nish urgandi.

Har o'n kunda bir kelardi cho'pon Vasil uyiga, bolalarni bir-bir o'pib sho'rtang peshonasidan — gap so'rardi, xotinidan podsho Shishman singari:

— Xo'sh, onasi, qani so'yla, kim kirmadi so'zingga? To'polonda qaysi biri o'zib ketdi yo'g'imda? Kenjatoying Asparuxmi, Nikolaymi, Ivanmi? Yo Yeftimmi — ezmachuruk, Yordanmi, yo Gencho?

Bolalarga bir-bir qarab, derdi shunda onasi:

— Yo‘g‘ingizda hech qaysisi to‘polon qilgani yo‘q. Kenjatoyim Asparux ham, Nikolay ham, Ivan ham, Yeftim bilan Yordan-u, jingalak soch — Gencho ham yo‘g‘ingizni bildirmadi, o‘tin yordi, yer chopti...

Cho‘pon Vasil xursand bo‘lib, mo‘ylovini burardi va tonggacha bolalarga ertak so‘ylab berardi.

Bir kun tongda qishloq bo‘ylab noxush xabar tarqaldi: Imom Hasan lashkarlari bostirib kelmoqdamish! Qonsiragan yov galasi shamoldek yelmoqdamish.

Butun qishloq temir qo‘rg‘on bo‘ldi qosh qorayguncha, derazalar yopildi-yu, tambalandi eshiklar. Bay Vasil ham shunday qildi, faqat ko‘cha tomonga ikki teshik ochib qo‘ydi — otish uchun dushmanni.

— Kelaver, yov, kel, Muhammad ummati! Chevenbergda qo‘rroqlar tug‘ilganmas! Kelaver, yov, kel, Muhammad ummati, qarg‘alarga yem bo‘lasan bu kecha!

Tongga qadar davom etdi tengsiz jang. Cherkov yondi, kulbalarning ko‘pchiligi kui bo‘ldi. Bandasiga rahimdilkan musulimonlar xudosi: qarg‘alarga yem bo‘lmadi makkor dushman deyarli. Halok bo‘ldi Chevenbergning azamat o‘g‘lonlari! O‘g‘lonlarki har bittasi tog‘ni talqon qilgudek, o‘g‘lonlarki, har bittasi Usmon podshodan ulug‘!

Bay Vasilning boshi qotdi, nima qilsin bechora?! Dushman zoti bas kelolmas uning meraganligiga, lekin o‘qlar ado bo‘ldi, o‘nta qoldi atigi! Bay Vasilning boshi qotdi, nima qilsin bechora?!

O‘t qo‘ysinmi kulbasiga, qochsinmi yiroqlanga! O‘t qo‘ysinmi uyiga u, yondirsinmi o‘zini, o‘t qo‘ysinmi uyiga u — halok bo‘lsin xotini, halok bo‘lsin tangri ato qilgan yetti farzandi. Halok bo‘lsin Asparuxi, Nikolay va Ivani, halok bo‘lsin — Yeftim, Yordan, shal pangquloq Genchos! Bay Vasilning boshi qotdi nima qilsin bechora?!

Bitta o‘q ham ketdi shu top, bitta yovni yiqitdi.

— To‘qqiz o‘qing koldi Vasil, dushman esa to‘qqiz ming, to‘qqiz o‘qing qoldi Vasil, nima qilmoqchisan, ayt!

Bay Vasilning boshi qotdi, yuragi to‘ldi qonga, yashin kabi chaqnab ketdi birdan horg‘in ko‘zlari. Yetti marta o‘q uzdi u,

yetti o'g'il yiqildi. Kenjatoyi Asparuxi, Nikolayi, Ivani, jingalak soch — Yeftim, Gencho, barra muylovli Yordan...

— Xotin, kechir, — dedi Vasil — xotin, gunohimdan o't, — yov qo'lida bolalarim o'lmasin, deb o'yladim. Yov qo'lida men o'zim ham o'lishni istamayman!

Mana senga miltiq olgin, ikki dona qoldi o'q, seni sevgan ko'zlarimni yumib turay, ot meni, yuragimni mo'ljallab ot, men otganday Genchoni, kenjatoying Asparux — u, Nikolay va Ivanni, jingalak soch Yeftim bilan to'ng'iching Yordanni...

Qarsilladi nogohon o'q, uyni tutun qopladi, o'q uzildi, mardlikdir bu — Levskiy mardligiday... Va sukunat bosdi uyni, qabriston sukonutni...

Imom Hasan lashkarlari bostirib kirgan zamon — to'qqiz o'lik yotar edi bir-birini quchoqlab. Bay Vasilning lablarida o'ynar edi tabassum, go'yo derdi:

— So'yla xotin, kim kirmadi so'zingga? Kenjatoying Asparuxmi, Nikolaymi, Ivanmi? Yo Yeftimmi — ezmachuruk Yordanmi yo Gencho?

Gayduklarim, bosh irg'amang, bu qo'shiq, — afsonamas. Men ko'rganman, Bay Vasilni, sharobidan ichganman!

Bu parchada talabalarning butun bir guruhi diqqat obyekti bo'la oladi.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidan olingan quyidagi parcha ko'p sonli tinglovchilar uchun ham, kam sonli tinglovchilar uchun ham ijro etilishi mumkin.

## RA'NO

Ism bilan jism aksar bir-birisiga muvofiq tushmaydi.

Menim yosh vaqtim, ayniqsa, go'zallik qidirgan mag'rur chog'larim edi. Oilamizdam, boshqa yerdami, baharhol xotiramda yaxshi qolmagan, Lola otlig' bir qizning chevarligi to'g'risida so'z bo'ldi. Majlis ahli menga yaqin, ya'ni ular oldida husndan babs ochish uyat bo'ladirgan kishilar edilar. Shuning uchun menga Lolaning chevarligidan ko'ra muhimroq bo'lgan «husn»i masalasida izohot so'rashning imkoni bo'lmadi. Lekin Lola ismining ostida

bir malikani ko'rgan – «Lolaning ismiga o'xshash husni ham bor» deb o'ylagan edim. Shu kundan boshlab Lolani ko'rishi hajriga tushdim.

Bo'yi yetgan qizlarni ko'ra olish bu kunlarda ham amrimahol bo'lgandek, mundan o'n yillar ilgarida yana mushkulroq edi. Necha vaqt «hijron o'tida yonib», ko'cha poylab, nihoyat, Lolani suv olish uchun ko'za ushlab, ko'chaga chiqqan holatda uchratdim. Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husniga qo'shilsa) «Lola» likka arziydirgan hech gap yo'q edi.

Yaqindagi bir boladan suv olguvchining kim ekanini so'ragan edim:

– Lola opam, – dedi.

Bolaning talaffuzi menga «Mola opam» bo'lib eshitildi. Bir necha kunlar bu qizning otini «Lola» deb qo'yanlari uchun achchig'lanib yurdim. Chunki, afu etasiz, o'sha kezlarì achchiqlanishga haqqim bor edi.

Ammo Ra'noning ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lganda edi, so'z bilan biljirab o'ltrimas, shu o'rinda sizga Ra'noning rasmini tortib ko'rsatar, qo'yar, faqat menga Ra'no gulining suvigina ko'proq kerak bo'lar edi.

Solih maxdum xassis, ta'magir, har holda sajiyasi e'tibori bilan uni yaxshilar qatoriga qo'yib bo'lmaydir. Va lekin tabiat xasis emas, tikandan gul, aridan bol yarataberadir. Shunga o'xshash tikanlik yog'ochdan xush islik, latif ko'rinishlik Ra'no yaratilgan edi.

Bizning o'zbeklarda, ayniqsa Qo'qong'a maxsus bir tus, sariqqa moyil bir tus bor. Lekin bu tusni kesdirib, sariq deb bo'lmaydir. Chunki biz og'riq kishining tusini sariq deymiz. Zarcha, za'far tuslari ham bunga dag'allilik qiladilar. Ta'birimiz qo'pol tushmasa, bu go'zal qiz, och ra'no gulining tusida yoki oq cariq tusda yaratilgan edi. A'zoda o'skan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladir. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham, quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning asari ko'ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoralikdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis

bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham, ko'ndalang yotkan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib turar edi.

Burni hech bir munaqqidg'a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir tu'igan nafis irinlarining yuqorigi qismida sezilar-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas, kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilgan holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra'noning orqa, o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bilan qisqalikning o'rtasi, do'nduq barmoqlarining jimpilog'ida xina gullari bor, har holda bu qiz yolg'iz Qo'qonningg'ina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shulib maqtaladurg'an go'zallaridan edi.

Bunday voqealar haqida katta maydonga chiqib olib baqirish shart emas. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, diqqat obyekti bиринчи shaxs nomidan hikoyada yanada aniq, ravshan bo'lishini ta'minlaydi. Bunda ijrochi bilan tinglovchi o'rtasidagi aloqa jonlanib, u bamisolgi hozir sodir bo'layotgandek tuyuladi.

Hikoyaning ritmi, pauzalari, ohanglari faqat ijrochiga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijrochi diqqatining markaziy obyektiga aylan-gan tinglovchilarning hikoyaga bo'lgan munosabatlariga ham bevosita bog'liqdir.

## **HAR BIR O'QUV YILI UCHUN PARCHALAR TANLASH VA UALAR USTIDA ISHLASH USULLARI**

Talabalar tomonidan tanlanib, bиринчи shaxs nomidan ijro etiladigan hikoyalar mazmun, janr, til uslubi jihatidan bir xilda bo'lmaydi. Zamondosh nomidan tanlangan hikoya ijrochi uchun qulay hisoblanadi. Zeroki, uning orzu-umidlari, hayotga qarashlari hikoya qahramoninikiga yaqin turadi. Hikoya boshqa davr vakili nomidan ijro etiladigan bo'lsa, bu talaba uchun talay muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan ijrochi-talaba o'z qahramonining xatti-harakatlarini, dunyoqarashini gavdalantirish uchun qahramon yashagan davning ijtimoiy sharoitlarini chuqur tahlil qilishi lozim bo'ladi.

Dunyoqarashdagi qaysi bir tabaqaga mansublik va madaniy darajadagi farq hikoya qahramonlarining tilida, shu jumladan, nutqida (leksikasi, frazeologiyasi, sintaksisida) ham o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Bir odam o‘z fikrini sodda, ravon tilda ifoda etsa, boshqa biri yorqin, obrazli fikrlashni afzal ko‘radi. Uning nutqi majoziy so‘zlarga, mubolag‘a va o‘xshatishlarga boy bo‘ladi, uchinchisi katta-katta davrlar haqida fikr yuritar ekan, ularning eng mayda tomonlaridan tortib, yirik jihatlarigacha bo‘lgan voqeа va hodisalarini boshdan oyoq ochib berishga harakat qiladi. Tabiiyki, qahramonning fikrlari qancha boy va murakkab bo‘lsa, uning nutqi ham shuncha yorqin va obrazli bo‘ladi.

Shunday qilib, birinchi shaxs nomidan tanlanadigan parchalar murakkabligi va o‘zlashtirilishi jihatidan bir xil bo‘lmagan adabiy materialdir.

Birinchi kurs talabalariga mos hikoyalar va adabiy parchalar bilan bir qatorda, o‘zlashtirilishi, ijro etilishi katta mehnat talab qiladigan hikoya va parchalar ham mavjud.

Shuni hisobga olgan holda har bir o‘quv yiliga mos matnlar (tekst) tanlashga alohida e’tibor berish darkor.

Biz quyida talabalar uchun har bir o‘quv yiliga mo‘ljallangan adabiy parchalar tavsiya qilamiz hamda birinchi shaxs nomidan aytildigan matnlar ustida ishlashning, amaliy yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Bunda asosiy e’tibor oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat, qarama-qarshilik va diqqat obyektiga qaratiladi.

## BIRINCHI O‘QUV YILI

Aktyorlik mahoratidan birinchi kursda o‘tiladigan darslarda talabalar o‘zlariga tanish va yaqin bo‘lgan etyudlar ustida ish olib boradilar.

Mahorat darsida bo‘lgani kabi, sahna nutqi darsida ham birinchi shaxs nomidan olinayotgan matnni tanlashda belgilangan «Agarda men berilgan shart-sharoitda bo‘lsam», prinsipiiga amal qilish kerak.

Hikoya yoki parcha quyidagi talablarga javob berishi lozim: Tanlangan hikoya yoki parchadagi voqeа, ulardan anglashiladigan fikr talabaga yaqin, tushunarli va o‘zlashtirilishi oson bo‘lsin.

Tanlanadigan hikoya yoki parcha oddiy, tushunarli tilda yozilgan bo'lib, jonli so'zlashuv tiliga yaqin bo'lishi, u hajm jihatidan katta bo'lmasligi (2-3 daqiqaga mo'ljallangan bo'lishi) lozim. Chunki talaba bu davrda hali tinglovchi diqqatini ushlab turishda yordam beradigan ichki va tashqi nutq texnikasini egallamagan bo'ladi. Tanlanadigan hikoya yo parcha tugallangan bo'lishi shart, ayrim voqeja va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar, hikoyadagi fikrni rivojlantirishga aloqador bo'lmanan uzuq-yuluq parchalarni olish tavsiya etilmaydi.

Yuqorida keltirilgan talablar shundan dalolat beradiki, tanlangan adabiy material bilan tanishgan talaba «shunday hikoya yoki parchani topganim qanday yaxshi bo'ldi. Men ham xuddi shunday o'yayman!» yoki «Men ham shunday his-hayajonlarni boshdan kechirganman!» deya olsin.

Shunday qilib birinchi kursda shunday hikoya yoki parcha tanlanishi lozimki, talaba muallif nuqtayi nazarini ro'yobga chiqarish uchun ortiqcha harakat qilmasin. Yozuvchi – muallif ijrochining maslakdoshi. U talabani to'lqinlantirgan narsa nima, u nimalarni orzu qiladi, nimaga rozi ekanligini yorqin, ishonarli tasvirlagan. Bular oliv maqsadni topishda yaqindan yordam beradi.

Bizningcha, uncha katta bo'lmanan hikoyalar, badiiy asarlardan parchalar, ocherklar, matbuot sahifalarida chop etiladigan lavha va maqolalarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Hikoya va parchalarda ko'tariladigan mavzular talabalarni faqat professional jihatdangina emas, balki insoniy fazilatlarini takomillashtirishda, ularni murakkab hayotiy jarayonlar bilan oshno qilishda ham muhim ahamiyatga molikdir.

Sahna nutqi dasturida birinchi kurs – birinchi yarim yillikda asosan manzaraviy parcha ustida ish olib boriladi. Institutda faoliyat ko'rsatib kelayotgan tajribali pedagog, olima, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Adiba Nosirovaning ko'p yillik samarali pedagoglik faoliyati shuni ko'rsatdiki, «birinchi bosqich talabalarining ijodiy imkoniyatlari ko'lamidan kelib chiqqan holda, har bir talaba o'zi xohlagan manzarasini o'zi yozishi mumkin. Foydali tomoni shuki, talaba, eng avvalo, o'zi ko'rgan va tasavvur qilgan narsalarni qog'ozga tushiradi. Shu bilan birga, unda his

etish, ko‘rish, sezish, taqqoslash va shunga o‘xshash qator ijrochilik elementlarini tabiiy o‘zlashtirishga moyillik tug‘iladi».<sup>5</sup>

Yuqorida zikr etilgan tajribadan o‘tgan fikrlarni birinchi shaxs nomidan o‘qiladigan matnlarga ham tadbiq etish mumkin.

Quyida talaba Saidova Aziza tomonidan yozilgan «Birinchi qor» hikoyasini (manzaraviy) havola etamiz.

## BIRINCHI QOR

Ilk marotaba samo o‘z sham pardasini yerga yopganda, undan sochilgan behisob billurlarni — birinchi qor deymiz.

Birinchi qor... U umidlarning sofligi, dil ravshanligi, parilar hayosi...

Birinchi qor. Sen insonning qalbini bir zumga bo‘lsa-da, o‘z mamlakatingga olib ketasan. Pa-g‘a, pa-g‘a yog‘ayotgan qorlar onazamin yuzini yashirgan. U shunday silliq gilamki, uning shunchalik pokligiga ishonasan.

Birinchi qor. Seni qo‘llarim bilan ohista silayman. Ammo mening qo‘llarim sendan uyalgandek, o‘z-o‘zidan qizarib ketadilar... Qo‘llarimga boqaman. Mana shu inson qo‘llari nahot shunday poklik oldida ojiz bo‘lsalar?!

Ha, ojizdir. Va eng achinarlisi ham shundadir.

Birinchi qor. Endi men senga faqat nigoron ko‘zlarim bilan boqishim qoldi, xolos. Boqaman-u uyalaman, negaki ko‘zlarim ham senga tik qarolmaydi. Ko‘zlarimni yumaman. Faqat shu yo‘l bilan men birinchi qor oldida jonsiz haykaldek qotaman.

Ko‘nglim. Inson ko‘ngli. U birinchi qor suratini ko‘rdi, endi ko‘nglimga quloq solishim qoldi, xolos.

Negadir ko‘zlarimga yosh keldi. Yo‘q, yo‘q, bu mayin qorning izg‘irinidan emas, balki ojizlikdandir.

Ha, chindan-da ko‘ngil poklik oldida ojizdir. Mening butun vujudim titrab ketdi. O‘ylamangiz, bu mening ayozning shamolidan emas, balki yuragimning nolishidandir.

Yurak, sen shu payt ilk qorlar zamiriga singib ketging keladi, sen butun borlig‘ingni unga in‘om qilging keladi.

<sup>5</sup> Nosirova A.M. Jonli so‘z san’ati asoslari. T. 2003. 127-bet.

Shunda sen...shunda sen kipriklaringga qo'ngan mayin uchqunlarni payqab qolasan. Go'yo ular sening mudragan qalbingni uyg'otayotganday.

Aytgancha, bu qalbni mudroq bosdimi? Agar sen hozir mudroq bo'limganiningda balki men so'zlayotgan jumboqlarni ochib bergen bo'larmiding?...

Birinchi qor. Demak sen, nafaqat tabiatni, balki inson dunyosini sokinlikka eltasani. Sening mamlakatingda hamma mavjudot butun borlig'ini bo'shatib, yengillashadi-da, so'ngra astagina uyquga ketadi...

Bu matnning oliv maqsadini ona-zamin – Vatanni sevish desak, g'oyani tabiat in'omi bo'lmish qorning, qishning go'zalligini madh etish va mavzusini birinchi qor, deb belgilasak bo'ladi. Ijrochitalabaning vazifasi esa, qishni, qorni his qilish, ko'rish, munosabat, baholash va uni gapirib berishga harakat qilishdan iborat.

*Talabalar tomonidan yozilgan manzaraviy  
parchalardan namunalar*

**Archa**

*Durdona Solihjonova*

U hamisha ko'm-ko'k. Ona tuproq bag'ridan unib, quyoshning zarrin nurlarini emgan damlaridan qasamyod qilgandek bir xilda o'sadi. Uning rangi ham hech o'zgarmaydi. Ko'm-ko'k, yam-yashil...

Kunlar o'taveradi. Yilning ilk fasli – qishning izg'iriniga bardosh beradigan ham shu. Hatto novdalari oppoq qorlarga chulg'anganida baxtiyor kelinchakka o'xshab ketadi. Bahorda ham sevimli libosini o'zgartirmaydi. Faqat yangi novdalari qanot yozib, uyg'onish faslini qutlaydi, yozning jaziramasida ham odamlarga zavq bag'ishlaydi. Tabiatning to'kinchilik fasli bo'lmish kuzda hammayoq oltin rang qiyofaga kirganida, so'ngra daraxtlar o'zining to'nini tashlaganida ham, u avvalgidek yashnab turaveradi. Hech qiyofasini o'zgartirmaydi.

Hamma odamlar ham tabiatning ana shu bebaho ehsoniga o'xshasa qaniydi.

## **Navro‘z**

*Umida Qodirova*

Olam yasharganda qahrabo yalpizlar ilk bor anhor labida bo‘y taratadi.

Chechaklar olis dalalardan shu anhorda oqib keladi. Bahor nashidasidan anhor mast bo‘ladi, o‘ziga sig‘may, to‘lib-toshib oqadi. Jo‘shqin oqadi, yo‘rg‘a to‘lqinlari quvlashmachoq o‘ynaydi.

Yaxshisi ana shunday pallada siz ham anhorga keling. Keling-da, shu qadar xayol suringki, o‘ylaringizni anhor o‘ziga qo‘sib oqizsin.

Hadicik olmang, ipakdek mayin, buloq suviday toza, ezgu xayollaringizga hech kimsa xalal bermaydi. Yolg‘iz qurbaqalargina, jag‘lariga zo‘r beradilar, basma-bas sayraydilar. Parvo qilmang, tubsiz xayollaringiz ular xonishini qo‘sib yuboradi. Shirin o‘ylaringiz tufayli bu sayroqni eshitmaysiz.

Kishini bo‘liq xayol toliqtiradi. Birdan oyoqqa qalqing! Axir, xayollaringizni suvgaga oqizib bo‘ldingiz-ku! Anhor yoqasidan qaytar paytingizda sukunat cho‘kadi. Qurbaqalarning «vaq-vaqi» tinganini payqaysiz. Oshiqmang, buning boisi o‘zingizga darhol ayon bo‘ladi. Sambit tol shoxida bulbul xonish etayotganini ko‘ramiz. Dilgir navodan yurak hapqiradi.

Tabiatning bu jajji go‘zalligi qurbaqalar tovushini bo‘g‘ib qo‘ymadimikin! Ha, bulbul xonishi atrofni elitib yuborganda qurbaqalar bir zumda gumdon bo‘ladi. Axir «Qush yo‘q joyda qurbaqa — bulbul», — deb bejiz aytishmagan-da. Bu yurtimizga navro‘zi olamning kirib kelganidan darak beradi.

Assalom Navro‘z!

Talabalar ijodidan keltirilgan parchalarda oliy maqsad — ona tabiatning betakror go‘zalligini ulug‘lash, uning in’omlaridan bahramand bo‘lish. Ijrochi talabaning vazifasi esa shu go‘zallikkarni ko‘ra olishga, ularning qadriga yetishga undashdir.

## **Birinchi o‘quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. A.Qodiriy – «O‘tkan kunlar».
2. A.Qodiriy – «Mehrobdan chayon».
3. Oybek – «Bolalik».
4. Oybek – «Navoiy».
5. M.Ismoiliy – «Farg‘ona tong otguncha».
6. S.Ahmad – «Qirq besh kun».
7. S.Ahmad – «Ufq».
8. I. S. Turgenev « Arafə »
9. I. S. Turgenev « Otalar va bolalar»
10. Ch.Aytmatov – «Oq kema».
11. Ch.Aytmatov – «Alvido, Gulsari».
12. O’.Hoshimov – «Bahor qaytmaydi».
13. O’.Hoshimov – «Ikki karra ikki – besh».
14. S.Ayniy – «Doxunda».
15. O’.Umarbekov – «Bolgar ertaklari»
16. O’.Hoshimov – «Ikki eshik orasi».
17. P.Qodirov – «Yulduzli tunlar».
18. G’.G’ulom – «Shum bola».
19. Navoiy – «Sabbayi sayyor».
20. T.Malik – «Shaytanat», 1-2 t.

Keltirilgan adabiyotlar ro‘yxati tanlab olish uchun namuna sifatida berilgan. Bu asarlarning mavzusi, ular turli-tuman bo‘lishlaridan qat’iy nazar, zamondoshlarimizga yaqin va tushunarli bo‘lib, tilining ravonligi, soddaligi, ixchamligi va jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bunday hikoya va parchalarni esa talabalar tahlil qilishi qulay.

Birinchi shaxs nomidan hikoya qilishda, shuningdek, taniqli san’at arboblarining xotira va hayot namunalardan foydalanish mumkin.

Quyida O‘zbekiston xalq artisti Shohidaxon Ma’zumovning «Sahna sururi» xotira kitobidan bir parcha keltiramiz. U «Ilk qadamlarim» deb nomlanadi.

Jilg‘alar tog‘dan va musaffo chashmalardan boshlanadi. Inson bilimining sarchashmasi ham o‘zining ma’naviy asoslariga ega. Har

holda men shunday deb o'layman. Mening san'atim va iste'dodim ham xuddi ana shunday zaminga ega. Bu zamin mendek oddiyir bir o'zbek qizini san'at olamiga olib chiqdi.

Har qanday o'tmish o'ziga xos tashvish va muammolar bilan to'lib-toshgan holda bo'lishligi tabiiy. Inson yasharkan, u tinimsiz izlanadi. Qandaydir jumboqlarga javob topadi, qandaydir maqsad chiroqlari sari mudom intiladi. Ayniqsa san'at ahli shunday. Erishilgan muvaffaqiyat esa yana yangi tashvish va intilishlar sari yetaklaydi, zotan, san'atkor uchun hayot deganining o'zi ana shu izlanish, intilish, urinishdan iborat.

Uyg'ur og'aning aktyorlar bilan ishlashdagi xarakterli xususiyati shundan iborat ediki, u rollarni taqsimlab bo'lgach, hamma bilan bir-bir suhbatlashib olar, shu suhbat paytida aktyorning ichki dunyosi, rolga munosabati va dunyoqarashining ma'lum tomonlari haqida birmuncha tasavvur hosil qilar hamda obraz yaratish uchun zarur organik va texnik omillardan qanday foydalananishni maslahat berardi.

Shirin obrazi ustida ish olib borishdan avval men bilan ham shunday suhbat bo'lib o'tdi.

— «Farhod va Shirin» voqeasiga o'xshagan voqeani ko'rganiningiz, eshitganining yoki o'qiganining bormi?

— Ko'rмаганман-у... ammo eshitganman. Ba'zi bir narsalarni esa o'qiganman.

— Tuzuk nimalar o'qigansiz? — dedi Uyg'ur.

— Klassik shoirlarni o'qiganman. Ba'zi bir g'azallarni qo'shiq qilib yurardim.

— Navoiy g'azallarini ham aytganmisiz?

— Ha...

Shu suhbatdan keyin mashg'ulot boshladik. Stol atrofida o'tirib uzoq vaqt tayyorlandik. Darvoqe, bu xususiyat Og'aning rejissurasiga xos edi. U yumaloq stol atrofiga hammani birma-bir partnyor-partnyori bilan o'tqazib, o'sha taxlitda sahnaga chiqarar edi. Bu tartibni buzmaslikni, unga rioya qilishlikni artistlardan talab qilardi. Buning boyisi shu ediki, aktyorlar ana shu tartibda ishlasalar, kim-kim bilan partnyorligi aniq bo'lib qolar va sahnaga chiqqanda o'zaro tez munosabat bog'lanib ketar edi. Hamma

tayyorgarliklar yaxshi o'tdi. Mening tasavvurimda hamma ish joyida bo'layotganday edi. Nihoyat, ko'rik kuni – jamoat ko'rigi (premyera) ham belgilanib tamosha ko'rsatila boshlandi. Ammo men sahnaga chiqqanimda hali ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan voqeа sodir bo'ldi. Har kuni chiqib turgan ovozim birdaniga chiqmay qoldi. Sahna orqasida turgan ham, zaldagilar ham, partnerlar ham bu holga tushunolmay, hayron bo'lib qoldilar. Men ariyani ijro etish uchun yana bir-ikki bor urinib ko'rdim, bo'lmasdi. Shunda ahvolimni ko'rib turgan Tamaraxonim, parda noiloj yopilgach, sahnaga jahl bilan chiqib keldi va jon kuydirib:

– Nega ovozi bo'g'iq holda sahnaga chiqarasizlar? Bu holda yosh ovozini nobud qilib qo'yasizlar-ku! – deb murojaat qildi. Mening ovozim hozirning o'zida shunday bo'lib qolganligini Tamaraxonim ham bilmash edi. Shunday hol ro'y berishligini hech kim xayoliga ham keltirmagan, hatto o'zim ham taajjubda edim.

Faqat Uyg'urgina bamaylixotir ko'rinaldi. U xuddi shunday ahvol ro'y berishini hisobga olganday, beparvo ko'rinaldi.

Xullas, shu kuni spektakl ko'rigi bo'lmasdi. Ertasi kuni spektakl ustida qaytadan mashq boshlandi. Uyg'ur bu safar menga alohida e'tibor berdi. Ariyalarimni boshlaganimda esa, u kelib mening qo'limni ushlab, qo'shiqlarimni tugatmagunimcha qo'limni qo'ymay: «muskullaringizni bo'shating, bo'shating, bo'shating», – deb ta'kidlab turdi.

– Mana endi muskullaringiz yaxshi bo'shashdi. Kecha sizni hayajon bosgan edi. Ovozingiz chiqmay qolishiga sabab mana shu. Siz o'zingizni mana shunday erkin his qilishga odatlaning, aks holda yana ovozingiz yo'q bo'lib qolish ehtimoli bor, – dedi Og'a mashq oxirida.

Og'aning bu o'giti mening Shirin obrazinigina yaratishda emas, hatto butun artistlik hayotimda ham katta va muhim rol o'ynadi.

O'sha voqeadan keyin, og'a mening nazarimda teatrda eng yirik bilimdon, chinakam san'at darg'asidek bo'lib qoldi.

Mazkur parchani hikoya qilganda uning har bir satri ostida yotgan oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat diqqat markazida bo'lmosg'i lozim. Shohida Ma'zumova oddiy xalq vakilasi. Xalq orasidan chiqib, umr bo'yи xalqqa hizmat qilgan, o'zining ilmiga chanqoqligi,

tirishqoqligi, mehnatsevarligi, uddaburonligi bilan xalq e'zoziga sazovor bo'lgan yirik san'atkori. Shohida Ma'zumova butun umri davomida uzluksiz mehnat qilishni, maqsad sari intilishni kanda qilmadi. Shu tufayli bo'lsa kerak, u haqiqiy san'atkori, xalq tan olgan san'atkori darajasiga ko'tarildi. Kasbga bo'lgan muhabbat, mehnatsevarlik va hozirgi baxтиyor kunlarga shukronalik parchaning oliy maqsadi va yetakchi xatti-harakatni tishkil qiladi.

## IKKINCHI O'QUV YILI

Ijro uchun birinchi shaxs nomidan adabiy material tanlash prinsipi ikkinchi o'quv yilida ham xuddi birinchi o'quv yilidagi kabi bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, hikoya qahramoni ijrochining maslakdoshi, hamfikri.

Ularning hayotga qarashlari ham bir xil yoxud har holda bir-biriga juda yaqin.

Xo'sh, ikkinchi kurs uchun tanlanadigan materialning birinchi kursda tanlanadigan materialdan farqi nima?

Ikkinchi o'quv yilida talabalar asosan badiiy nasr ustida ishlaydilar. Badiiy nasr publisistik asar tilidan o'zining ko'proq obrazliligi bilan, barkamolligi bilan ajralib turadi. Bu, o'z navbatida, talabalar zimmasiga yanada murakkabroq vazifalar yuklaydi.

Ijrochi-talaba ilgarigiday, muallif bilan bir xil fikrlaydi, bir xil o'laydi. Lekin endi u o'z fikrlarini, o'z nuqtayi nazarini poetik tilda, obrazlar orqali ifodalovchi muallif bilan ishlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, endi ijro etiladigan materialga yanada sinchkoylik bilan yondoshishga, aytilayotgan har bir so'zning tub ma'nosini ochishga to'g'ri keladi.

Badiiy asarni o'zlashtirish talabadan muallifning tarjimayi holini, asarda aks etgan voqealar qaysi davrda, sodir bo'lganligini o'rGANISHNI, talab etadi.

Shunday qilib, talaba sahna so'zini obrazli egallash borasida yana bir katta qadam qo'yadi. Adabiy parchanening ijro etilish vaqtি 3-5 daqiqaga ko'paytirilishi mumkin. Chunki, bu davrga kelib, talaba yetarli darajada to'g'ri nafas olish, so'zlarni to'g'ri talaffuz

etishga o'rgangan, ovozi ham ancha ishlangan bo'ladi. Ikkinchı o'quv yilida Pushkin, Lermonotov, Tolstoy, Turgenev, Navoiy, A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, G.G'ulom, Ch.Aytmamatov, S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, H.G'ulom va boshqalarning nazmiy va nasriy asarlariga murojaat qilish mumkin. Shu o'rinda buyuk bobomiz Alisher Navoiyning «Sabbayi-Sayyor» asaridan parcha keltiramiz.

### **«SABBAYI-SAYYOR»**

Mening diyorim Chin-Xitoy mamlakatida bo'lib, o'sha yerda tug'ilib o'sdim. Taqdir hukmi bilan ikki xon orasida bo'lgan urush paytida, hali bola chog'imdayoq birovga asir bo'lib qoldim.

Shundan keyin xoja menga xaridor bo'ldi-da, men uning go'zal quyoshiga aylandim.

Garchi u meni shunchalik e'zozlasa ham, baribir men uning sotib olgan kanizi – cho'risman. Lekin xojaning farzandi yo'q ekan. Shu jihatdan u meni o'z farzandidek mehr bilan parvarish qildi. Mening ovozim yoqimli, tilim shirin edi, dilkash ohang bilan kuylar edim. Xojam, kim musiqiy fanida hukamo va san'atda mohir bo'lsa, uni uyga olib kelib, oy-yil demay, qunt bilan meni o'qitib, bu sohada shu kabi kamolotga yetishimga sababchi bo'ldi. Natijada, men soz chalib kuylaganimda kishilarga shodlik bag'ishlovchi, dardini qo'zg'ab yig'latuvchi va mast qilib uxlatuvchi san'atga tuyassar bo'ldim. Tovushimning ovozasi jahonni, changimning ovozasi esa osmonni tutdi. Buni eshitgan barcha katta-kichik «birovda shunday kaniz bor emish», – deb meni sotib olish uchun xaridor bo'laverdilar, topgan mol-u dunyolarini keltirib to'kdilar.

Xojaning farzandini kaniz qilib olish umidida har tarafdan odamlar yig'ilib kelar edi. Xaridorim ko'paygan sari, bozorim qizir edi. Chinda ajoyib naqqosh bo'lib, u yaratuvchi naqqoshdek olamda mashhur edi. Uning ijod qilgan narsasi monandsiz bo'lib, oti Moniy edi. Ana shu Moniy yashirincha mening suratimni chizib, safar qilib borib, bir shahanshohga shu suratni ko'rsatgan emish. Jahondagi qaysi mamlakatning shohi bo'lmasin, ularning barchasi shu shohning bandisi, qaramog'idagi xizmatkori ekan. Mana shu

ulug' shoh suratimni ko'rishi bilan shaydoi bo'lib qolgan emish. Nihoyat, u shoh ishonchli va pok zot, sinchkov kishilarni topib, men kanizakni sotib olish uchun chin xalqining boshiga sho'r-g'avg'o yubordi. So'ngra xoji qancha tilasa, shuncha baylashib, meni sotib oldi. Xaridorlar baxtlari ochilgandan xursand bo'lganlaricha o'z vatanlariga otlandilar. Shunday sur'at bilan meni shohning huzuriga olib keldilar.

Shoh meni olib kelgan kishilarni mukofotlab, martabalarini yanada baland etdi. Meni esa, o'z uyiga, uyiga emas, joniga jo qildi. Uning yashashdan maqsadi mening jamolim-u visolim, bиргина iltifotim uning uchun abadiy hayot edi. U doim aysh-ishrat qilar va ov bilan mashg'ul bo'lar, dasht-u sahrodagi lolazorlarni kezar edi. Xoh shaharda, xoh dashtda bo'lsin, xoh orom olib o'tirganda va xoh biyobon kezganda bo'lsin, bir nafas mendan ajralmas, balki uning mensiz bir dam oromi yo'q edi. Men hamroh bo'lmasam, u bir qadam bosmas, men yonida kuylab o'tirmasam bir jom ham may ichmas edi. Men qaysi kuyni tarannum qilmayin, u oh chekib, jonini fido qilgani qilgan edi. Bir nafas jamolimdan ko'zini olmas, visolimga hech qachon to'ymas edi. Xullas kalom, u menga shunday berilgan ediki, go'yo uning yashashdan murodi men edim. Ish shu darajaga borib yetdiki, uning xalqi ham, askar-u lashkarlari ham undan umidlarini uzib qo'ydilar. Shohning ular bilan ishi bo'lmay qolgan, u kecha-kunduz mening mastunim edi. Shoh menga qanchalik moyil bo'lsa, mening xasta ko'nglim ham unga shunchalik bog'lanib qolgan edi. Uning vasliga boqsam, o'zimni yo'qotar, bir nafas ajralsam-chi, beqaror bo'lib qolar edim. Shavq o'ti ikki tarafda ham alangalanib, shu'iasi go'yo osmonni yondirgudek bo'lar edi. Mag'turlanib ketganimdan bo'lsa kerak, men shohning bunchalik iltifotini qadrlamadim.

Bir kuni shunday voqeа yuz berdiki, shoh ovga chiqqan bo'lib, men unga hamroh edim. U qattiq mast edi, buning ustiga ustak yana ichar edi. Men esa o'z mag'rurligimdan mast edim. Shu payt shoh ketayotgan kiyikka qarab, o'q-yoyini goh chapiga, goh o'ngiga olib, «Otimni o'sha kiyik orqasidan qo'yib, qayeridan desang, shu yeridan urib beraymi?» — dedi. Men, avval qo'lini buk, so'ngra yiroqdan turib bo'g'izla, — dedim.

Uning pok xotiri buni tushunib, kiyikni qo'lini bog'lagach, o'q otib, shu onda tomog'idan bo'g'izladi. U shunday bir ish qilgan ediki, odamzod qo'lidan bunday ish kelishiga ishonmaysan. Men uning shu mahoratiga jon fido qilishim, o'qining muzdini ado etishim shart edi. Shundan keyin u mendan o'zining ko'rsatgan ishiga munosib mukofot talab qildi. Lekin, men be'mani, baxti qaro, aqldan ozib, johillikka berilib, shu darajada o'rinsiz va behuda gap aytibmanki, insof vaadolat bilan qaraganda, bu gap uchun meni yuz pora qilib tashlasa, mening gapimga yarasha jazo ham, qilgan qilig'imga yetarli jazo ham bo'lmas edi. Shunda ham u bechora, qahr tig'i bilan chopib, meni o'ldirib qo'yaqolmadida, oyoq qo'limni bog'latib, qazosi yetsa o'lib ketar, deb bir biyobonga eltib tashlatdi. O'zi esa, g'azabiga chidolmay, shaharga qarab jo'nab qoldi.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, parchani ijro etuvchi talaba avvalam bor, uning tub mohiyatini, oldiga qo'ygan oliv maqsadini aniqlab olmog'i, so'ng o'zidagi bor ichki va tashqi imkoniyatlarni to'la ishga solgan holda, faoliyat ko'rsatmog'i darkor.

Ikkinchi o'quv yilida buyuk sharq allomalarimizning ta'lim-tarbiyaga boy bo'lgan pand, o'git-nasihat tarzida yozilgan asarlaridan ham keng foydalanish mumkin.

Bu talaba yoshlarimizni Buyuk Sharq allomalari bilan yaqindan tanishtiradi, moziydan xabardor qiladi, qolaversa, ularning foydali nasihat-o'gitlaridan o'zlariga xulosa yasashga, nima yaxshi-yu, nima yomonligini ajrata olishlariga, hayotda qanday qilib komil inson darajasiga yetishish yo'llarini o'rgatadi. Va nihoyat, avlodlarimizdan g'ururlanish hissini uyg'otib, ularning davomchilari ekanligini unutmaslikka undaydi.

*Yusuf Hos Hojib*

### **Uquv qut beradi, bilim – sharaf shon**

Uquv, idrok, bilim haqida alohida to'xtash joiz. Uquv-idrok qorong'u tundagi mash'alga o'xshaydi. Bilim esa o'sha mash'aldan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.

Uquv qut beradi, bilim – sharaf shon,  
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang, ko'zingni katta och! O'zingni zakovot nuri bilan yoritib ko'r. Menga donishmandlarning bitta hikmatli so'zi yaxshi ma'lum; bilimdon o'z bilimi tufayli balo-ofatlardan omon qoladi.

Telba, nodon kishi o'lsa, ajablanmaslik kerak: aslida ularning tirik chog'lari ham, o'limdan farq qilmaydi. Uquvsiz kishining ishi yurishmaydi.

Hurmat kishining uquv idrokidan keladi. Uquv-idroksiz kishi bir hovuch kepak bilan teng. Bularning barini kuzat, qara, bil! Shunda uquv-idrokli, dono kishilarning tub – asli senga ma'lum bo'ladi.

Uquv, idrok kishini pokiza qiladi. Bilim esa yuksaltiradi. Inson zaminda paydo bo'lgan ekan, boshqa mavjudodlardan o'z bilimi bilan farqlanadi.

Dunyodagi turli-tuman san'at, son-sanoqsiz hunarlar uquv va bilimga tayangani uchun maqtaladi, tillardan tillarga ko'chib yuradi. Uquv-idrokdan ozgina ulush olgan kishi talay naf ko'radi. Zehn solib qara va bilginki, quyidagi to'rt narsaning ozini ham aslo oz hisoblab bo'lmaydi.

Bu to'rtning biri o't, birovi – yog'i,  
Uchinchi – kasallik – umr tuprog'i.  
Yana bu bilimdir. Ularning biri,  
Boshingda baland tut, shu ular siri.

Bilim ipor bilan juda o'xshash. Ularning har ikkisini ham yashirmoq behuda. Iporni yashirsang hidi bildirib qo'yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas-tuganmas boylikka o'xshaydi.

Bilim va zakovot kishiga qo'yilgan o'ziga xos kishandir. Kishanlangan ot, odatda yovuz va yaramas narsalardan uzoq bo'ladi.

Ey, zakovatli inson! Qahr-u g'azabdan yiroq tur. Ezgu yo'lni – bilim yo'lini tanglagin. Agar qahr-u g'azabing ishga tushadigan bo'lsa, barcha tiriklig-u, kechayotgan hayoting bekor.

O'kinchli bo'ladi g'azabning ishi,  
Ishida adashar g'azabkor kishi.

Yigitga og'irlik yarashadi. Qilik'i, go'zallik unga chiroy . Uning fe'l-atyori xuddi Kun va Oydek boshqalarni o'ziga jalb etsin. Yigit degan har ishning uddasidan chiqsa. Butun ishda o'zini qo'lga ola bilganlar barcha ishlarni to'la va tugal ado etishadi. Bunday odam tilagiga yetadi, maqsadiga oson erishadi.

Donishmandlar kuzatishi shunday hikmatni yuzaga keltirgan: Odam qahrlansa, bilimsiz bo'ladi, jahl kelsa, aql ketadi. Kishi ezzulik qilishi kerak. Ezguning har bir ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgu aslo qarimaydi. Ezgu har kuni yangi-yangi tilak – maqsadlarga erishaveradi. Yomonlarning esa kundan-kunga mung va alami ortadi.

Yana bir hikmat bor:

Hazrati odam – bilim,  
Aql-u idrok sabab muhtaram.

Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir.

Bilim haqidagi aytilgan fikrlarga quloq tutilsa, ularda shunday hikmat bor: «Bilimdonga balo yo'q» . Bilimga intilmagan kishida-chi?

Bilmsiz kishida kasallik bo'lar,  
Kasal emlanmasa, yashamas, o'lar!

Bilim, o'ylab ko'rilsa, misoli jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o'z tilaklarini topadi, orzu maqsadlariga erishadi. Aql-idrok egalarining nafi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa aziz bo'ladi, hurmat qozonadi.

Namuna sifatida M.Mahmudovning «Oqtoy» hikoyasidan parcha keltiramiz.

Uyimiz qishloqdan bir chaqirim yuqoriga, siyrak do'lanalar bilan qoplangan tepa ustiga joylashgandi. Uning atrofi qoyali tog'lar

bilan o'ralagan bo'lib, etagidan Nuqrasoy oqardi men har kuni darsdan keyin Oqtoy bilan Otuchgan tog'da qo'y, echkilarni boqardim.

Oqtoy asl it. Uning boshi xuddi arslonning boshiga o'xsharkatta edi. Qulqlari, dumii yarmidan qirqilgan bo'lib, bu o'ziga yarashardi. Bir kuni kechasi kutilmaganda onam uyg'otdi:

— Tur bolam, tezroq tur. Oqtoya bir balo bo'ldi. Qo'rani bo'ri bosgan. Oqtoy bekorga hurmaydi.

Onam qo'liga panskha, men oybolta olib, molxona tomon yugurdik. Shunda Oqtoyning bo'rilar bilan olishayotganiga ko'zim tushdi. Oqtoy ikki bo'ri orasida qolgan edi. Ular bir-biriga o'xshash kulrang va yirik-yirik edi. Ikkovi ham o'lguday och bo'lsa kerak, qorinlari qapishib ketgan edi. Oqtoy bir bo'rini quvib, endi unga yetay deganda, ikkinchi bo'ri uning orqasidan tashlanar, so'ng it uni quvishga majbur bo'lardi. Qo'rada esa qo'y, echkilar do'pirlashib ma'rashardi. Biz hay-haylab, bo'rilaraga tashlandik. Ular qocha boshladni. Oqtoy bo'rining orqa tomonidan sira hujum qilmas, balki u bilan yuzma-yuz olishishga odatlangandi. Hozir ham shunday qildi. Jinsidan orqaroqda qochib borayotgan bo'rini bir pasda quvib o'tdi va sapchib uning bo'g'zidan tishladi. Bo'ri itning ostiga ti pirchilab tushdi. Oldindagi bo'ri esa shart burilib, tishlarini shaqillatib, Oqtoya tashlanmoqchi bo'ldi. Lekin u onam bilan mendan qo'rqb, bu niyatidan qaytdi, oldinga lo'killab chopib ketdi. Oqtoyning boshini urib yorsang ham, u tishlagan joyini qo'yib yubormasdi. Och bo'ri itning nayzadek o'tkir tishlariga dosh berolmay, cho'zilib qoldi. Oppoq qoya issiq qonga qorishdi. Shundagina Oqtoy uni o'z holiga tashlab, uyimizdan ikki yuz qadamcha orqadagi chuqur jar labida chopib borayotgan bo'rini quvib ketdi...

It oz vaqt ichida bo'rining oldidan kesib chiqdi. Oqtoy bu gal ham bo'rining bo'g'zidan tishlamoqchi bo'ldi. Bo'ri chap berib, uning orqa oyog'iga yopishdi. It o'zidan ajratish uchun uni chuqur jarga sudrab tushib ketdi. Biz jar labiga yugurib kelganimizda, Oqtoy och bo'rining bo'g'zidan mahkam tishlab olib, bosib yotardi.

Endi ijrochi-talabalardan faqat mantiqiy tahlilnigina emas, balki shu parchadagi bo'layotgan voqealarga ham o'z munosabatlarini

bildirish talab etiladi. Shu bilan birga, ijrochi-talaba tinglovchilar bilan aloqani uzmaslikni ta'minlashi shart.

### **Ikkinchı o'quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Oybek – «Qutlug' qon», «Navoiy», «Bolalik».
2. S.Ahmad – «Qissa», «Hikoyalar».
3. S.Zunnunova – «Hikoyalar».
4. A.Qahhor – «Hikoyalar».
5. N.Aminov – «Hikoyalar».
6. Navoiy – «Dostonlar».
7. A.Chexov – «Hikoyalar».
8. J.London – «Hikoyalar».
9. V.Shukshin – «Hikoyalar».
10. T.Malik – «Shaytanat».
11. P.Qodirov – «Yulduzli tunlar».
12. O'.Hoshimov – «Hikoyalar».
13. T.Sodiqova – «Yashash tilsimi».
14. A.Qodiriy – «Mehrobdan chayon», «O'tgan kunlar».
15. Turgenev – «Hikoyalar».

### **UCHINCHI VA TO'RTINCHI O'QUV YILLARI**

Yuqori kurslar uchun tanlanadigan adabiy parchalar ham hajm jihatdan, ham mazmun jihatdan avvalgi kurslardagiga nisbatan keng va murakkabroq bo'lishi kerak. Bunda tanlangan parchadagi qahramonlar qaysi davrning vakillari ekanligi, ularning kasb-kori, qaysi guruhga mansubligi, dunyoqarashlari, madaniy darajasi ham hisobga olinadi.

Talaba-ijrochi o'zi hikoya qilayotgan qahramonning dunyoqarashi, orzu-umidlari, tashvishlari bilan birga yashamog'i, uning hamfikriga, maslakdoshiga aylanmog'i, shu bilan birga, qahramonning nutq tuzilishini, talaffuzidagi o'ziga xoslikni ham o'rganmog'i darkor.

Stanislavskiy aytganidek, aktyor-ijrochi qahramonning «o'z qalbiga yaqin ichki dunyosini topa bilish kerak». Ana shuning uchun

ham sahna nutqida o'tiladigan darslarda talabalar bilan boshqa davrga mansub, boshqa dunyoqarashga ega bo'lgan kishi nomidan gapirish, fikr yuritishni o'rgatamiz.

Ishlash jarayonida biz qahramonimizning barcha sifatlarini, hamma jihatlarini – dunyoqarashi, atrof-muhitga bo'lgan munosabati, yurish-turishi, manerasi, uning qaysi kasb-koriga, qaysi tabaqaga mansubligi kabilarni sinchkovlik bilan o'rganib, imkonи boricha o'sha qahramon qiyofasiga kirishga harakat qilishimiz lozim.

Yuqori kurslarda juda ko'p rang-barang adabiy material tanlash maqsadga muvofiqdir. Agar o'qishning dastlabki yillari talabalar o'zbek adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan chegaralangan bo'lsalar, ular endi birinchi shaxs nomidan hikoya qilish uchun jahon adabiyoti namoyandalarining asarlariga ham murojaat qilishlari mumkin.

Ijro uchun tanlanadigan parcha 5-10 daqiqali bo'lsa ham, bo'laveradi.

Zeroki, bu davrga kelib talabaning ovozi ancha ishlangan, ravon, talaffuzi aniqroq, adabiyroq bo'lib qolgan bo'ladi.

Shunday bo'lsa-da, ijro uchun katta hajmdagi adabiy materiallarni tanlash tavsiya etilmaydi. 5-7 daqiqali ijro ham talabaning fanni qay darajada o'zlashtirganligi, uning fikrlash qobiliyati qanchalik o'sganligi haqida fikr yuritish uchun tamomila kifoya qiladi, deb o'ylaymiz.

## LATTA

*A.P.Chekhov*

Yaqinda men bolalarimning murabbiyasi Yuliya Vasilyevnaga haqini berish uchun kabinetimga chaqirdim.

- O'tiring, Yuliya Vasilyevna! – dedim.
- Sizga pul kerak bo'lsa ham, soddaligingizdan so'ragani uyalasiz, qani o'zaro hisoblashib chiqaylik-chi.

Biz sizning maoshingizni har oyiga atigi o'ttiz so'mdan gaplashgan edik...

- Qirq so'mdan...

— Yo‘q, o‘ttiz so‘mdan... Men murabbiyalarimga hamma vaqt o‘ttiz so‘mdan to‘lab kelganman, siz bizda ikki oy turdingiz...

— Ikki oy-u besh kun...

— Menda yozilgan. Rosa ikki oy... Demak, sizga oltmisht so‘m tegadi. Siz Kolya bilan yakshanba kunlari mashg‘ulot o‘tkazganingiz yo‘q, o‘sha kunlari dam oldingiz, muning uchun to‘qqiz yakshanbani chiqarib tashlaymiz... Uch kun bayram...

Yuliya Vasilyevna birdaniga qizardi, ko‘ylak burmasini g‘ijimladi-yu, lekin g‘ing demadi!...

— Uch bayram kuni... Demak, o‘n ikki so‘m... Kolya kasal bo‘lib qolib, to‘rt marta dars bo‘lmadi, o‘sha kunlari siz mashg‘ulotni faqat Varya bilan o‘tkazdingiz... Uch kun tishingiz og‘ridi. Xotinim peshindan keyin uyga ketishingizga ruxsat berdi... O‘n ikki so‘m va yetti so‘m. Demak, yana o‘n to‘qqiz so‘nni chiqarib tashlaymiz... Qoladi qirq so‘m. To‘g‘rimi?

Yuliya Vasilyevnaning chap ko‘zi qizarib yoshga to‘ldi. Iyagi titriddi, asabiylashib yo‘taldi, burnini qoqdi, ammo g‘ing demadi.

— Yangi yil oldidan bir talinkacha bilan chashkani sindirdingiz. Buni ikki so‘m deylik, idishga familiya yozilgan edi, qimmatroq bo‘lsa ham, mayli roziman! Bizning haqqimiz kimlarda ketmaydi, deysiz! So‘ngra sizning beparvoligingiz natijasida Kolya daraxtga chiqib, kamzilini yirtib tushdi, bu ham o‘n so‘m... Yana sizning yaxshi qaramaganligingiz natijasida uy xizmatchisi Varyaning botinkasi o‘g‘irlangan. Axir, siz maosh olasiz, shularning ustidan nazorat qilib turishingiz kerak. Demak yana besh so‘m... O‘ninchи yanvarda mendan o‘n so‘m qarz oldingiz...

— Men olganim yo‘q, — dedi Yuliya Vasilyevna sekingina.

— Menda hammasi yozilgan.

— Xayr, mayli.... yaxshi...

— Qirq bir so‘mdan yigirma yetti so‘nni chiqarib tashlasak, o‘n to‘rt so‘m qoladi.

Murabbiyaning ikki ko‘zi jiqqa yoshga to‘ldi... Uzun chiroyli burni terlab ketdi. Bechora qiz!

— Men faqat bir martagina oluvdim, — dedi u qaltiroq tovush bilan. — Bekachangizdan faqat bir marta uch so‘m olganman, xolos... shundan boshqa pul olganim yo‘q...

— Hali shundaymi? Men buni yozib qo'ymagan ekanman! O'n to'rt so'mdan uch so'mni chiqarib tashlasak — o'n bir so'm qoladi... Oling pulingizni xonim! Mana, uch...uch...uch...bir, tag'in bir so'm. Oling!

Men unga o'n bir so'm berdim.

Pulni titroq qo'llari bilan olib, chontagiga soldi.

— Mersi! — dedi pichirlab.

Men o'rnimdan sakrab turib ketib, uy ichida yura boshladim. Juda jahlim chiqib ketgan edi.

— Nega menga «mersi» deysiz? — dedim.

— Pulingiz uchun...

— Axir pulingizni o'g'irlab o'tiribman-ku! Pulingizni o'g'irladim! Nega tag'in menga «mersi» deysiz?

— Boshqa joylarda menga shuni ham berishmagan edi...

— Berishmagan edi? Ajab emas! Men siz bilan hazillashdim, sizga unutilmas saboq berdim. Men sizning sakson so'm pulingizni beraman, ana konvertga solib tayyorlab qo'yanman. Odam ham shunaqa latta bo'ladimi? Nega haqingizni talab qilmaysiz, nega tek turasiz? Bu zamonda odam o'tkir tishli bo'lishi kerak! Odam ham shunday bo'shang bo'ladimi?!

U bo'shashib qoldi. Uning yuzidan «bo'lishi mumkin» degan ma'noni o'qdim. Unutilmas saboq uchun undan kechirim so'radim-da, qo'liga sakson so'mni berdim.

U qo'rqa-pisa chiqib ketdi.

Uning ketidan qarab turib, bu dunyoda kuchli bo'lish oson ekan, deb o'yadim.

### *T. Sodiqovaning «Yashash tilsimi» deb atalmish esselardan bir parcha keltiramiz*

**Ayol — kim?**

O'zim shu toifadan bo'lsam-da, ayol iqlimini hayrat bilan kuzataman. Ollohning betakror mo'jizasi u! Ayol sirli bir kitob — varaqlagan saring qizig'i chiqaveradi. Yil fasllari to'rtta, ayolning esa ming bitta fasli bor. Uni butkul tushunib o'tgan odam yo'q bu dunyoda!

Uni tomosha qilib zerikkan inson yo'q yer yuzida! Uni suymagan va u deb kuymagan... erkak zoti yo'q! Ayolni tushunish o'zi bir ilm. Bu ilmgan yetishganlar qancha ko'paysa, baxtli ayollar soni shuncha ko'payajakdir. «Ayol» deb atalgan mo'jizaning hali tom ma'nodagi ta'rifi, o'lchovi va yarashiqli bahosi topilgani yo'q. Ayollik olamida yurgen ayolning o'zi ham o'zini tugal tanimaydi. Olis sayyoralar o'rganildi, yetti qavat yerning siri oshkor bo'ldi, ammo ayol qalbidagi ochilmagan necha-necha qit'alar shundayligicha qolib bormoqda. Ruhiyatida, imkonlarida ko'zi ochilmagan ming bir buloqlarning, qalbida sonsiz xazinalarning, bag'rida dahshatlari vulqonlarning mayjudligini bilmagan ayol siniqqina qadam bosadi. Sokingina beshik tebratadi. Nimta'zim bilan xushbo'y saboday ohista va sharpasiz yoningizdan o'tib ketadi. Shikasta ovoz bilan sizdan hol so'raydi, uning etaklarining nim-ovoz, mayin shildirashidan atrofingizdan jannatiy havolar yaraladi. Bir so'zi bilan bor bo'lasiz, bir so'zi bilan yo'q...

Ayol kim o'zi?!

Kulibgina turibdi, xotirjamgina turibdi, deb bo'lmaydi ayolni. Kulibgina turibdi, rozigina turibdi, deb bo'lmaydi ayolni. Uning ichiga o't tushsa ham, bag'ri kulga aylansa ham, zohiri sokin ko'rinaraveradi, egilmaydigan qoyalarni ichiga yutib turaveradi.

Bir hikoya o'qigandim. Ayol o'z juftini yer-u ko'kka ishonmaydi. Uni qizg'anib, tunida uyqu, kunida halovat yo'q. Jazillagan rashk o'ti uni sakratib o'ynatadi.

Vodarig'ki, ayolning olov ustida yurib asragan jufti kun kelib qazo qiladi. Baminsoli ayolning quyoshi o'chadi. Qabri uzra bag'ri tamom to'kilguncha, ko'zining yoshi tugaguncha faryod qiladi. So'ng qaddini ko'tarib, yengil tin oladi-da, bir nima deb pichirlaydi. Hay-hay, u bir gapni deydi. Deganda ham yuraging uvushadigan gapni deb qo'yadi: «Xudoga shukr, endi seni mendan hech kim ololmaydi!» — deydi-ya! Meni dahshat bosadi — ayol kim o'zi? Uning botinidagi g'alati kuch nima? U juftining yonida turib ham unga to'ymay yashadi. Sochining oqi shu er tufayli edi, qovurilishlariga u bois edi. Tirigiga qancha intilgan, o'lgandan keyin kuymaydimi, deysiz?!

Ammo ayni daqiqada erining o'lganiga u xursand! Baxtini begonadan qizg'anib yurgandan ko'ra, hatto ko'mib bo'lsa-da

berkitishni ma'qul ko'rmoqda! Baxtsiz qolsa ham mayli, suyganiga birov qo'l cho'zmasa bo'ldi! Siz uni xudbin deyapsizmi? Yo'q!!! Bu ayriliq hali unga qimmatga tushadi. Balki kuya-kuya dardi oshar, kim biladi deysiz, orqasidan ergashib ketishi ham mumkin...

Bot-bot o'sha qabr quchib o'tirgan ayol xayolimga kelaveradi, kelaveradi. Qulog'imda uning pichirlashi jaranglayveradi: «Endi seni mendan hech kim ololmaydi!»

Ayol o'zi kim...

Mazkur parchadagi oliy maqsad — ayol muhabbatining kuchi. «O'zidan, baxtidan kechib bo'lsa-da, muhabbatga sodiqlik». Ijrochitabala parchani hikoya qilganda, ayol nuqtayi nazaridan turib, ayol zotining qanday tilsimotlari-yu, qanday sir-asrorlari borligini tomoshabin-tinglovchilar bilan hamsuhbat bo'lish asosiga etibor berish taqozo etiladi. Bunda ovozning jarangdorligi, temporitm, intonatsiya, talaffuz singari nutq texnikasi elementlari ham chetda qolmasligi darkor.

### **Uchinchi va to'rtinchi o'quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. A.Qahhor — «Sinchalak», «Adabiyot muallimi».
2. M.Y.Lermontov — «Vadim».
3. Oybek — «Alisher Navoiy», «Qutlug' qon».
4. J.London — «Bir parcha go'sht», «Marten Iden».
5. A.P.Chexov — «Semiz va oriq».
6. Mayn Rid — «Boshsiz chavandoz».
7. R.Tagor — «Halokat».
8. S.Kamol — «Guli siyoh».
9. X.To'xtaboyev — «Muhabbat qo'shig'i».
10. Ch.Aytmatov — «Jamila», «Sarviqomat dilbarim», «Kunda».
11. G'.G'ulom — «Shum bola».
12. G.X.Andersen — «Yamoq ignasi».
13. A.Qodiriy — «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon».
14. O'.Umarbekov — «Yalpiz hidi».
15. Y.Shomansur — «Qora marvarid».
16. L.Tolstoy — «Tirilish», «Anna Karenina».

17. K.Chandr – «Bir qizga ming oshiq».
  18. E. L.Voynich – «So'na».
  19. X.Sultonov – «Boburning tushlari».
  20. Gi de Mopassan – «Azizim».
  21. Stendal – «Qizil va qora».
  22. Odil Yoqubov – «Ko'hna dunyo».
  23. P.Qodirov – «Yulduzli tunlar».
  24. O'.Hoshimov – «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi».
-

## *II BO'LIM*

### **«SAHNA NUTQI» FANINING BO'LIMLARI**

«Sahna nutqi» fani artikulyatsiya, talaffuz (diksiya), nafas, ovoz, mantiqiy tahlil, matn ustida (she'riy va nasriy) ishlash kabi bir necha muhim bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Sahna nutqi ustida ishlashni biz talaffuzdan, unli va undosh tovushlar mashqidan boshlaymiz. Unli tovushlarni to'g'ri talaffuz etishda kichik hajmdagi matnlardan foydalanish katta yordam beradi. Shu maqsadda o'zbek xalq maqollariga murojaat qilish mumkin. Chunki maqollar hajmining kichikligi bilan, ma'nosining chuqurligi bilan, tarbiyaviy ahamiyatining kuchliligi bilan talaba – o'quvchilarga tez singadi.

**Maqol.** U – oddiygina, ammo juda ulkan va murakkab so'z. Maqollar faqat til materialidangina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli yaratilgandir. Maqol xalq og'zaki ijodining juda ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlardan biri bo'lib, u ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi.

Maqollar fikrni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo'lgan vosita hisoblanadi. Maqol folklor janri sifatida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan keskin farqlab turadi. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham «sahna nutqi» fanida, talaffuz ustida ishlaganda maqollardan keng foydalanish yaxshi samara beradi.

Unli va undosh tovushlarning bir qator mashqidan so'ng ularni mustahkamlash maqsadida maqollardan foydalanishni maslahat beramiz.

Masalan, «i» unlisini talaffuzda mustahkamlash uchun «i» unlisi ko‘p uchraydigan maqollarni o‘qish mumkin. Mashq jarayonida shoshmasdan, burro-burro, dona-dona qilib, har bir unli va undosh tovushni me’yoriga yetkazib talaffuz qilishga, maqolning tub ma’nosini anglab yetishga (tahlil qilishga) e’tibor qaratish kerak. Kimga va nima uchun o‘qiyapman, nima demoqchiman, kabi savollarga javob bera bilihni ham nazardan chiqarmaslik kerak.

Umuman olganda talaffuz (diksiya) ustida ishlashda maqollardan foydalanish bir tomondan, nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda yordam bersa, ikkinchi tomondan, ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan purhikmatlaridan bahramand bo‘lib, ularni hayotda qo‘llash, unga amal qilish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

«Sahna nutqi» fanida unli tovushlarning ketma-ketligi quyidagi tartibda bo‘ladi.

I, E, A, O, O‘, U, I.

Maqollardan keltiriladigan namunalar ham shu tartibda beriladi.

## I

1. Ish do‘sting – jon do‘sting.
2. Ichdan buzilmay – qo‘shin yengilmas.
3. Ikki yorti – bir butun.
4. Ikki o’n besh – bir o’ttiz.
5. Indamasdan ish chiqar.
6. Issiqdan suyak sinmas.
7. Ish bilan kishining mushkuli bitar.
8. Ish bilmagan ish tanlar.
9. Ish bor joyda osh bor.
10. Ish bitgach, maslahatchi ko‘payar.
11. Ish bor yerda so‘z yo‘q.
12. Ishi yo‘qning oshi yo‘q.
13. Ish botiri – el botiri.
14. Ish seni yengmasin – sen ishni yeng.
15. Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar.
16. Iliq so‘z –shakar, sovuq so‘z –zahar.
17. Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon.
18. Insofli oshini yer, insofsiz boshini.

19. It bo'lish uchun ham bir qarich quyruq kerak.
20. It itligini qilar, tulki tulkiligini.
21. Itni ket desang, ko'ngliga kelmas, surbetni ket desang, aslo unutmas.
22. Ikki yolg'on – bir qasam.
23. Illat ketar, odat qolar.
24. Ilon chaqqan ola arqondan qo'rkar.
25. Ish qo'lingdan ketmasin, dushman izingdan tushmasin.
26. Ishongan tog'da kiyik yotmas.
27. Ignal bilan bitar ishga juvoldiz na hojat.
28. Ikki kemaning boshini tutgan g'arq bo'lar.
29. Ilon quvsasi, yo'lga qoch.
30. Ipni uzun qo'y, qimirlashini ko'r.
31. Insoflining dili sof.
32. Insofsizga erk bersang, elni talar.
33. Ishyoqmasga osh berma.
34. Ilinmagan iyak yo'q, turtinmagan tuyoq yo'q..
35. Ilonning suymas o'ti, inining og'zida bitar.
36. Ilmsiz bosh qashir, xushomadguy gap tashir.
37. Ichak-chavoq go'sht bo'lmas, lagabardor do'st bo'lmas.
38. Izzat tilasang ko'p dema, sihat tilasang ko'p yema.
39. Issiq jon isitmasiz bo'lmas.
40. Ignal o'tgan yerdan ip ham o'tar.
41. Ikki shunqor talashsa, bir qarg'aga yem bo'lar.
42. Ip ingichka yeridan uzilar.
43. Ish bor yerda xato bor.
44. Ikki nor urishsa, o'rtada chivin o'lar.
45. Ilonning zahri yomon, zolimning qahri.
46. It qutursa, egasini qopadi.
47. Ish – ishtaha ochar.
48. Issiq ovqat – tanga rohat.

## E

1. El boqsa, baxting kular.
2. El boshiga tushgan ish – er boshiga tushgani.
3. Elga qo'shilganning ko'ngli to'q, eldan ajralganning beti yo'q..

4. Eling omon bo'lsa – sen omon.
5. El qadrini bilmagan  
    Har baloga to'kilar (yo'liqar).  
    El bilan bo'lgan yigit  
    Har balodan qutilar.
6. Eli boshqa el bo'lmas,  
    Etakni kessang, yeng bo'lmas.
7. El kuchi – sel kuchi.
8. Elni ixtilof buzar,  
    Dilni – iztirob.
9. Erdan bezsang ham, eldan bezma.
10. Eski paxta chit bo'lmas,  
    Azalgi dushman do'st bo'lmas.
11. Erinchchi ikki ishlar,  
    Oxiri barmoq tishlar.
12. Erinchoqlik boshga balo keltirar.
13. Erta ekkan butun olur,  
    Kechga qolgan – o'tin.
14. Egilmaganga bukilma.
15. El seni aqli desa,  
    Sen eldan aql o'rgan.
16. Esi pastning ishi – past.
17. Esing borida etagingni yop.
18. Esli odam aynimas,  
    Maza-bemaza gapni chaynamas.
19. Eshakni urgan bilan ot bo'lmas.
20. Ezgulikning erta-kechi yo'q..
21. El o'g'risiz, tog' bo'risiz bo'lmas.
22. Eskisiz yangi bo'lmas.
23. Elda er atalsang,  
    El senga oltin tovoqda osh berar.
24. Er bo'ynida qil arqon chirimas.
25. Er molsiz bo'lmas,  
    Yigit-yorsiz.
26. Erga tegish onson,  
    Etik yechari qiyin.

27. Erni er qiladigan ham xotin,  
Qaro yer qiladigan ham xotin.
28. Ersiz xotin – boshvoqsiz ot.
29. Erta uylangan –  
O'g'il qizga quvongan.
30. Eshak minganning oyog'i tinmas,  
Qo'sh xotinlikning – qulog'i.
31. Eshik ko'rganni olma,  
Beshik ko'rganni ol.
32. Egri butoqni niholida tobini ol.
33. Er yigitning so'zi o'lguncha,  
O'zi o'Igani yaxshi.
34. Er yigitni nomus o'ldirar.
35. Er yigitga ikki nomus – bir o'lim.
36. Erta borsang, et pishar,  
Kechka qolsang, bet pishar.
37. Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir.
38. Eshikni keyin kirgan yopar.
39. Echkidan qo'y bo'lmas,  
Eshakdan toy bo'lmas.
40. Enasi tepgan qulunning eti og'rimas.
41. Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas.
42. Echkini yo'qlasang, qulog'i ko'rinar.
43. Erta turgan yigitning rizqi ortar,  
Erta turgan ayolning bir ishi ortar.
44. Elakka kirgan xotinning ellik og'iz gapi bor.
45. Ertagi savdo-savdo,  
Keyingi savdo-g'avg'o.
46. Eshakka muguz bitsa – egasini suzar,  
Tuyaga qanot bitsa – tomini buzar.
47. Ertalabki tuman ochar,  
Kéchki tuman yog'ar.
48. Et ko'rmaganga o'pka tansiq.
49. Eshak mingan elda ko'p,  
Yo'l ko'rmagan yurtda.
50. Epi bilan so'zlaganning qurban ni bo'l.

## A

1. Ayrilganni ayiq yer,  
Bo'linganni bo'ri yer.
2. Ayrilmas qo'shningga uyatli so'z aytma.
3. Arpa-bug'doy bir kuningga yaraydi,  
Sodiq do'sting o'lquningcha yaraydi.
4. Azob ko'rmay, rohat yo'q..
5. Avval o'rgan, keyin o'rgat.
6. Aqlning qayrog'i – bilim.
7. Avval o'yla – keyin so'yla.
8. Adashgan aqldan ozar.
9. Ayron osh bo'lmas,  
Nodon bosh bo'lmas.
10. Aytuvchi ahmoq bo'lsa,  
Tinglovchi dono bo'lmog'i kerak.
11. Amal tegsa nodonga,  
O'zin urar har yonga.
12. Achchiq o'yin shirin turmushni buzar.
13. Achchig'ing chiqsa ham, aqling qochmasin.
14. Aql bilan odob – egizak.
15. Aql yoshda emas, boshda.
16. Aql – Hasan, odob – Husan.
17. Aqli kaltaning tili uzun.
18. Aqlni ahmoqdan o'rgan.
19. Aqli otini maqtar,  
Ahmoq – xotinini.
20. Aqli pakana ahmoq darozdan yaxshi.
21. Aqlsiz jahlli, jahlsiz aqli.
22. Ahmoq ahmoq emas,  
Ahmoqni ahmoq qilgan ahmoq.
23. Amal ozdirar,  
Amalga mag'rur bo'lsang, to'zdirar.
24. Arslon bolasini tutmoq uchun,  
Arslon uyasiga kirmoq kerak.
25. Arslon og'zidan ov olinmas.
26. Asli qora oqarmas,  
Asli qing'ir tuzalmas.

27. Ahmoq oyog'idan ilinar,  
Mug'ombir tovonidan.
28. Arzimas qozonning kuyasi bo'lma.
29. Arpa ekib, bug'doy kutma.
30. Asov otni taqa to'xtatar.
31. Achchiqni achchiq kesar.
32. Aytmas yerda og'zingni tiy,  
Mehmonga borsang nafsingni.
33. Aytmagan yerga — yo'nmagan tayoq.
34. Adovat emas, adolat yengar.
35. Adolat qilichi kesgan qo'l og'rimas.
36. Arzon bo'lsa, oluvchidan insof ketar,  
Qimmat bo'lsa — sotuvchidan.
37. Aybi bor mol hamisha arzon bo'lar.
38. Ajragan bir-birini izlar.
39. Aytgan joydan qolma,  
Aytmagan joyga borma.
40. Allop, allopning ishi — qallob.
41. Aytgan so'zni qaytarib bo'imas,  
Uchgan qushni — qo'ndirib.
42. Achchig'ing oldin yursa,  
Aqling yetib kelsin.
43. Ayolning sarishtasi —  
Ro'zg'orning farishtasi.
44. Aqli xotin — uy ko'rki,  
Aqlsiz xotin — ko'cha ko'rki.
45. Avval taom, ba'daz kalom.
46. Avval kelgan ho'kiz suvning tozasini ichar.
47. Aqli odam qish g'amini yoz yer,  
Kecha bo'lsa, xo'ragini oz yer.
48. Arslon qarisa, sichqonning inini poylar.
49. Aybi borning tizi qaltirar.
50. Alamzadaning tili — zahar.

## O

1. Ona yurting – oltin beshiging.
2. Ona yurting omon bo'lsa,  
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.
3. Og'a-ini totuv bo'lsa, ot ko'p,  
Opa-singil totuv bo'lsa, osh ko'p.
4. Odamni po'stin emas, ish qizitar.
5. Odamning husni mehnatda.
6. Oz yesang ko'p yashaysan,  
Mehnat qilsang ko'p oshaysan.
7. Oyog'ing tap-tap etmasa,  
Og'zing shap-shap etmas.
8. Omoch seni to'ydirgay,  
Omboringni to'ldirgay.
9. Oson yerda osh qayda.
10. Ot oyog'idan topar,  
Odam qo'lidan.
11. Odamning tizgini – aql.
12. Odamning husniga boqma, aqliga boq.
13. Oz so'zla, ko'p tingla.
14. Olimga – olam,  
Nodonga – nola.
15. Olsidagini aravalaguncha,  
Oldindagini to'rvala.
16. Oltminish yashar ahmoqdan,  
Olti yashar dono yaxshi.
17. Olaqarg'a qag' etar,  
O'z vaqtini chog' etar.
18. Olmadan bodom bo'lmas,  
Tagi past odam bo'lmas.
19. Olqish olgan omondir,  
Qarg'ish olgan yomondir.
20. Ostonadan ayvon yaxshi,  
Vijdonsizdan hayvon yaxshi.
21. Oshning ta'mi tuz bilan,  
Suvning ta'mi muz bilan,

- Odamning ta'mi so'z bilan.
22. Og'iz – ayg'oq, til – toyg'oq.
23. Oyoq yugurigi – oshga  
Og'iz yugurigi – boshga.
24. Ot olsang, otasini surishtir.
25. Odamga – libos, eshakka – to'qim.
26. Oziqli ot horimas.
27. Olish o'rgatmas, sotish o'rgatar.
28. Onangni otangga bepardoz ko'rsatma.
29. Og'a-ining omon bo'lsa, odam tegmas,  
Kosov soping uzun bo'lsa, qo'ling kuymas.
30. Osh kelsa, yegin,  
So'z kelsa, degin.
31. Oz-oz yegan mazadir,  
Ko'p-ko'p yegan ozadir.
32. Ot och qolsa, yolini yer,  
Qush och qolsa – patini.
33. Och ko'zni tuproq to'ydirar.
34. Och tovuq omborga yugurar.
35. Ochning aqli – qornida.
36. Og'zi kattani uyida sina,  
Nafsi yomonni – to'yida.
37. Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi,  
Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi.
38. Obro'li obro'yidan qo'rqrar,  
Beobru nedan qo'rqrar.
39. Odamni ochlik emas, or o'ldirar.
40. Oriyatsiz odamdan qoch.
41. Ota bo'lmay, ota qadrini bilmash,  
Ona bo'lmay – ona qadrini.
42. Osh kattadan – suv kichikdan.
43. Oshiqmagan olisga yetar.
44. Onasi maqttaganni emas,  
Yangasi maqttaganni ol.
45. Ota bolaga sinchi.
46. Otasini siylamaganni bolasi siylamas.

47. Otasini og'ritgan el ichida xor bo'lar,  
Onasini og'ritgan parcha nonga zor bo'lar.
48. Ota-onang – chin do'sting,  
Oshna-og'ayning – yo'l do'sting.
49. Oting yomon bo'lsa, armoning ketar,  
Xotining yomon bo'lsa – mehmoning.
50. Otasi tentakning – biri tentak,  
Onasi tentakning – bari tentak.

## O'

1. O'zganing tog'-u ravoqidan,  
O'zingni ayvoning yaxshi.
2. O'zi bemalolning so'zi bemalol.
3. O'zing topmagan molning qadri yo'q.
4. O'roqchining yomoni o'roq tanlar.
5. O'tin degan cho'p bo'lar,  
Teraversang ko'p bo'lar.
6. O'tloqda bedana ko'p,  
Dangasada – bahona.
7. O'g'lingni sevsang, qulingdek ishlat.
8. O'rganish bir hunar,  
O'rgatish ikki hunar.
9. O'qigan o'g'il – otadan ulug'.
10. O'qimay mulla bo'lgan –  
Cho'qimay qarg'a bo'lar.
11. O'qish jafoli, keti vafoli.
12. O'qish xomni pishirar.
13. O'qiganning tili ikki.
14. O'qigan o'qdan oshar,  
O'qimagan turtikadan shoshar.
15. O'qish boshqa, uqish boshqa.
16. O'rinsiz g'azab – o'zingga azob.
17. O'ylamay so'zlagan og'rimay o'lar.
18. O'zing yaxshi – olam yaxshi,  
O'zing yomon – olam yomon.
19. O'tganlar o'tdi-ketdi,

- Bo'zi qoldi bolasiga,  
 So'zi qoldi eliga.  
 20. O'chakishgan it qopmay qo'ymas.  
 21. O'g'rining uyi bo'lmas,  
     Uyida siri bo'lmas.  
 22. O'z joyida laycha ham sher.  
 23. O'zi pasmunda bo'lsa-da, ko'ngli osmonda.  
 24. O'zлari xon – ko'lankalari maydon.  
 25. O'rdak yo'q ko'lda loyxo'rak xon.  
 26. O'tma nomard ko'prigidan  
     Soy seni oqizsa ham.  
 27. O'zingni er bilsang  
     O'zgani sher bil.  
 28. O'zingdan pastga siringni aytma.  
 29. O'zigniki o'zagingni qirqar.  
 30. O'zingga ehtiyyot bo'l,  
     Qo'shningni o'g'ri tutma.  
 31. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.  
 32. O'tmas pichoq qo'l kesar.  
 33. O'ttiz tishdan chiqqan gap  
     O'ttiz elga tarqalar.  
 34. O'ylamay uchgan qo'narga tol topmas.  
 35. O'ylamay soyga tushdim,  
     Endi menga qir qayda.  
 36. O'ylamay qilingan ish –  
     Boshga keltirar tashvish.  
 37. O'ylab qilingan ish bitar,  
     O'ylamay qilingan ish yitar.  
 38. O'zi to'yemasning ko'zi to'ymas.  
 39. O'zi ish qilmas, ish qilganni ko'rolmas.  
 40. O'zi to'ymaganni sarqiti, yurak og'rig'i qilar.  
 41. O'limdan xo'rlik yomon.  
 42. O'zing topmagan molning qadri yo'q.  
 43. O'ntaning yor-yori bo'lguncha,  
     Bittaning vafodori bo'l.  
 44. O'choqdagi o't boshqa,  
     Yurakdagi o't boshqa.

45. O'z uyim – o'lan to'shagim.
46. O'tga tegsang, o'char,  
Qo'shniga tegsang, ko'char.
47. O'g'il bilan qizing,  
Bamisoli ikki ko'zing
48. O'g'illi uy – farishta,  
Qizli uy – sarishta.
49. O'g'ling ahmoq bo'lsa ham,  
Kelingning dono bo'lsin.
50. O'g'ling yoqqan chiroqni qizing ham yoqar.

## U

1. Uyiga sig'magan eliga sig'mas.
2. Uy buzganning uyi buzilar.
3. Uying tor bo'lsa ham,  
Ko'ngling keng bo'lsin.
4. Uy egasi bilan aziz.
5. Urgandan turtgan yomon.
6. Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi.
7. Urushsiz uy yo'q,  
Azobsiz go'r.
8. Ursang, eti qotar,  
urushsang – beti.
9. Uyat – o'limdan qattiq.
10. Uyimda yo'q kechalik,  
Ko'nglim tusar xo'jalik.
11. Uyquning tinchi yaxshi,  
O'limning – kechi.
12. Umid o'lmas, rizq kamaymas.
13. Umidi yo'q, imoni yo'q.
14. Umidli dunyo, noumid – shayton.
15. Umidingni uzma,  
Ko'nglingni buzma.
16. Umidsizlik uyin buzsang,  
Umidingga yetarsan.
17. Uringan ish o'rinsiz ketmas.

18. Uchishga qanot kerak,  
O'qishga — toqat.
19. Umirtqani olma,  
Qovurg'adan qolma.
20. Uyni uy qilgan arning topishi-yu,  
Xotinning ko'rpa ishi.
21. Uyligini topmagan kishiligini to'zdirar.
22. Ura bilmagan ulug' tayoq ko'tarar.
23. Umrimning o'tgani,  
Necha ko'ynakning to'zgani.
24. Uyqu qissa, yostiq ham kerak emas.
25. Umrni ish emas, g'am yemirar.
26. Uyi boshqa g'am bilmas,  
Tanası boshqa — dard.
27. Ulovim yo'q deb, kuchdan qolma.
28. Uyurli qo'ydan bo'ri ham qo'rqrar.
29. Usta, haqini berib qisma.
30. Usta, ishini qilar yusta.
31. Ustadan shogird o'zar.
32. Usta ko'rmagan shogird  
Har maqomga yo'rg'alar.
33. Uyida ishton bicholmagan,  
Dalada to'n bichar.
34. Uyida chaksa uni yo'q,  
Tom boshida qo'sh tandir.
35. Ullining (keksa) gapini olmagan uvlar.
36. Ulfating novcha bo'lsa  
Sen past bo'l.
37. Umr o'tar, husn to'zar.
38. Ur deganda, nomard qochar.
39. Uyqu arslonni yiqitar.
40. Uyqu o'lim bilan teng.

Talaffuzning sofligi, unli tovushlarning to'g'ri talaffuzi ustida ishlaganda maqollardan tashqari hikmatli so'zlardan, ruboilardan, fardlardan yoki she'riy parchalardan ham foydalanish mumkin.

Nutqimizda unli tovushlarning o'rni beqiyosdir. Nutqning go'zalligini, musiqiyligini ta'minlovchi unli tovushlardir. Shuning uchun texnik mashqlarda unli tovushlar talaffuziga alohida diqqat qilish va ular ustida maxsus ish olib borish kerak.

Ma'lumki, nutqimiz faqat unli tovushlardangina iborat bo'lmay, undosh tovushlardan ham iborat.

Shuning uchun nutq texnikasi ustida ish olib borilganda unlilar bilan birga undosh tovushlar ham mashq qilinadi. Undosh tovushlar havoning to'siqlarga uchrab chiqishidan hosil bo'ladi.

Nutqning tushunarli bo'lishi, tinglovchiga yaxshi yetib borishi nafaqat unli tovushlarning to'g'ri talaffuziga, balki undosh tovushlarining ham ravon, ravshan, aniqligiga bog'liqdir.

Undosh tovushlarning talaffuzida til, tishlar, jag', lablar aktiv harakat qiladi. Unli tovushlarga undosh tovushlarning qo'shib talaffuz qilinishi nutqdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf qilishga katta yordam beradi.

P – B, T – D, Q – G', K – G, S – Z, F – V, Sh – J undoshlariga I – E – A – O – O' – U unli tovushlarini qo'shib talaffuz qilinadi. Bu holat quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

PI – PE – PA – PO – PO' – PU – PI.  
BI – BE – BA – BO – BO' – BU – BI.

Mashqlar murakkablashtirib boriladi. Undosh tovushlarning me'yorida, to'g'ri va aniq talaffuz etilishi uchun texnik mashqlar bir necha bor takrorlangandan so'ng, aytilayotgan undosh tovushlariga misollar keltiriladi. Misollar uchun so'z va gaplar tuzish mumkin. She'riy parchalardan namunalar, hikmatli so'zlar, ruboiy, fard, maqollardan ham foydalansa bo'ladi.

Bu mashqlar aytilayotgan undosh tovushlarni nutqda mustahkamlashga yordam beradi. Ko'zlangan maqsadga erishish talaba-ijrochidan mashqlarni muntazam tarzda takrorlashni taqozo etadi. Quyida undosh tovushlarni mustahkamlash uchun maqollardan namunalar keltiramiz.

## P – B

1. Podachi ko'p bo'lsa, qo'y harom o'lar.
2. Podachi qizining g'ayrati  
Poda qaytganda kelar.
3. Poraxo'r boyimas,  
O'g'ri koyinmas.
4. Piring kuchli bo'lguncha,  
Biliming kuchli bo'lsin.
5. Pashshaning mahmadanasi axlatga qo'nar.
6. Pishiqlan deb kerilma,  
«Sodda» yetar boshingga.
7. Pismiq telba farq qilar,  
Tinch oqqan suv g'arq qilar.
8. Pul bo'ldi – kul bo'ldi.
9. Pul topish o'ng'ay,  
Tuta bilish qiyin.
10. Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azma.
11. Puling bo'lsa yer ol.
12. Patirdan qil chiqmas  
Baxildan – pul.
13. Pish qozonim, besh oy,  
O'tir qizim, o'n oy.
14. Pul bermas, ma'raka buzar.
15. Podsho zolim bo'lsa, yurt to'zar,  
Podsho odil bo'lsa, yurt o'zar.
16. Pastak tog'da qor bo'imas,  
Aroqxo'rda – or.
17. Past ko'chadan piyoda o'tma.
18. Pashsha bolga yopishar.
19. Pichoqni o'zingga ur,  
Og'rimasa, birovg'a ur.
20. Podsho taxtidan toysa,  
Vaziri gado bo'lar.
21. Puliga yarasha duosi.
22. Pokliging – sog'lig'ing.
23. Pul bo'lsa, changalda sho'rva.

24. Pul zamburning pishini qaytarar.
25. Puli borning yuzi bor.
26. Puli borlar yo'rg'a-yo'rg'a,  
Puli yo'qlar zo'rg'a-zo'rg'a.
27. Puli borning og'zi o'ynar,  
Puli yo'qning ko'zi.
28. Puling bo'lsa, hamma quling,  
Tog'-u tosh ham bo'lar yo'ling.
29. Puldorning ota-onasi pul.
30. Pulsiz bozorga borguncha,  
Kafansiz mozorga bor.
31. Puli kuygan, garmdori chaynar.
32. Begona tuproq — devona tuproq.
33. Betkay ketar, bel qolar,  
Beklar ketar, el qolar.
34. Bاليقىن ئىرىكلىرى سۇۋ بىلەن،  
Odamning tirikligi odam bilan.
35. Baraka — inoqlikda,  
Boqiyilik — quvnoqlikda.
36. Bevafo do'stdan tayoq yaxshi,  
Bebahra guldan — yaproq.
37. Bekengash ishning pushaymoni ko'p.
38. Bir gul bilan yoz bo'lmas,  
Bir daraxtdan bog' bo'lmas.
39. Bir kalla — kalla,  
Ikki kalla — tilla.
40. Birlashgan daryo bo'lur,  
Tarqalgan irmoq bo'lur.
41. Birlashgan yovni qaytarar.
42. Birlik — birlikda tiriklik.
43. Bodom po'sti bilan,  
Odam do'sti bilan.
44. Baxt yalqovga begona .
45. Bekorchidan hamma bezor.
46. Bir kun burun sochsang,  
Hafta burun o'rasan.

47. Bir ot orqasidan ming eshak yem yer.
48. Bog', boqsang – bog',  
Boqmasang – quruq tog'.
49. Badxat kotib ko'r qilar.
50. Bilak bilan bitmagan,  
Bilim bilan bitar.
51. Bilgan bilganin ishlar,  
Bilmagan barmog'in tishlar.
52. Bildirish uchun bilish kerak.
53. Bilimli – olim,  
Bilimsiz – zolim.
54. Bilimlining bilimi yuqar,  
Bilimsizning nimasi yuqar.
55. Bilishim, bilishimga tushar bir ishim.
56. Bekorga zo'r berma, beling sinar.
57. Birov bilmaganni birov bilar.
58. Boshda aql bo'lmasa, oyoqning sho'ri.
59. Bo'lmaganga bo'lismha,  
Bolaning orasiga tushma.
60. Badfe'lning beti qora.
61. Betamizda bet bo'lmas,  
Bezorida – uyat.
62. Bir yaxshiga bir yomon har yerda bor.
63. Bo'ri bo'rini saqlar.
64. Bilakka boqma, yurakka boq.
65. Botir topsa, barcha yer,  
Baxil topsa, bosib yer.
66. Buzmakorlik – boshga balo.
67. Bo'ynida illati borning oyog'i qaltirar.
68. Bekorchidan – bemaza gap.
69. Bola – bolaning ishi chala.
70. Boshliq bo'lsang, boshli bo'l.
71. Burga tutish uchun ham,  
Barmoqni ho'llash kerak.
72. Baliq bersang, bog'lab ber,  
Bosh ko'zini chaynab ber.

73. Baxil avliyo bo'limas,  
Avliyo — baxil.
74. Bezbetga qoshiq bersang,  
Bir o'miga besh oshar.
75. Bermaganni berib uyaltir.
76. Bevafo yor — joningga dor.
77. Bildinki, bevafodir,  
Ko'ngil qo'ymoq xatodir.
78. Bir nafaslik «muhabbat»,  
Boshga keltirar ofat.
79. Bir kun urush bo'lgan uydan qirq kun baraka ketar.
80. Bol shirin, boldan bola shirin.
81. Bola bo'lsa, beshik topilar.
82. Bolalik uy — bozor,  
Bolasiz uy — mozor.
83. Bolasi ko'p boy bo'lar.
84. Buyursa — bola , buyurmasa — balo.
85. Bola aziz, odobi undan aziz.
86. Bola — loy, ona — kulol.
87. Bola — yoshdan,  
Xotin — boshdan.
88. Begona so'z berar, bo'z bermas.
89. Bilak bir, barmoq boshqa.
90. «Berdi» sini aytmaguncha belini bukma.
91. Bir achchiqning bir chuchugi bor.
92. Bolta bo'lsang, ur,  
Kunda bo'lsang, chida.
93. Bo'rining og'zi burnida.
94. Buromad bo'lmasa, daromad bo'lmas.
95. Borida pora-pora,  
Yo'g'ida banda bechora.
96. Betamizga besh kun hayit.
97. Besharmga arpa uni bahona.
98. Birov burab gapirar,  
Birov qarab gapirar.
99. Bilgan so'zni ayt,  
Bilmas so'zdan qayt.

## T – D

1. Tanasi boshqa dard bilmas.
2. Totuvning tani bir.
3. To'dadan ajralgan qo'yni bo'ri yer.
4. To'pdan chiqsang ham, ko'pdan chiqma.
5. To'yar oshni ko'z tanir,  
Oshnani – ko'ngil.
6. Tek turmasang, to'q bo'lasan.
7. Tekin boylik axtarguncha,  
O'zingga bop hunar top.
8. Tekin tomoq – odamning tuzog'i.
9. Tekin tomoqning ta'mi boshqa,  
Yeganlarning boshi qashqa.
10. Tekinning minnati ko'p,  
Mehnatning – diyonati.
11. Tekinxo'r qopib yeydi,  
Mehnatkash topib yeydi.
12. Ter to'kib mehnat qilsang,  
Yerdan hatto zar unar.
13. Terakning soyasi tagiga tushmas.
14. Tindim tunda, timadim kunduzi,  
Bo'ldi qo'y telpagim qunduzi.
15. Tirishgan tog'dan oshar.
16. Toma-toma ko'l bo'lur,  
Tommay qolsa cho'l bo'lur.
17. Temirchining qo'lida,  
Temir erib suv bo'lar.
18. Tikansiz gul bo'imas,  
Mashaqqatsiz – hunar.
19. Tez so'zlar tez pushaymon bo'lar.
20. Telba tengi bilan,  
Etagi yengi bilan.
21. Tentak chinni aytaman deb sirni aytar.
22. Tentakka tunda ham to'y, kunda ham to'y.
23. Til – aql tarozusi.
24. Til bilgan navkar – bol bilan shakar,  
Til bilmagan navkar obro'ying to'kar.

25. Tilning uzuni dalolga kerak.
26. Tilni bilish dilini bilishga yo'l ochar.
27. Tog'ning ko'rki tosh bilan,  
Odamning ko'rki bosh bilan.
28. Tuzsiz xamir tandirda turmas.
29. Tuyaning tanigani yaproq bilan yantoq.
30. Tuyadek bo'y berguncha,  
Tugmadek o'y bersin.
31. Tabassum toshni eritar.
32. Ta'na yo'li tor,  
Toyg'oqlari bor.
33. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otma.
34. Til borki, bol keltirar,  
Til borki, balo keltirar.
35. Telbaga tilmoch kerak emas.
36. Tanlab-tanlab toziga uchrar.
37. Taom – o'sha taom, illati moshga,  
Eshak – o'sha eshak, to'qimi boshqa.
38. Tuya katta, yag'iri o'zidan katta.
39. To'rg'ay qutursa, burgutga chopar.
40. To'g'ri so'zga tan ber.
41. To'g'ri tayoq – baloga to'g'anoq.
42. Tuyada to'g'ri joy bo'lmas.
43. To'g'ri tilim tiyolmadim,  
Tuqqanim bilan turolmadim.
44. To'g'ri yurdim, yetdim murodga,  
Egri yurdim, qoldim uyatga.
45. To'g'ri odam egri so'zdan or qilar.
46. To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmas.
47. To'g'ri so'z achchiq bo'lar.
48. Til tugsa, tish yecholmas.
49. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.
50. Tishginamdan rozman, og'izginamning qal'asi,  
Tilginamdan qo'rqaman, boshginamning balosi.
51. Dasturxonga boqqan do'st emas.
52. Dushman siringni o'g'irlar,  
Do'st xatoingni to'g'irlar.

53. Dushmanning suyganidan do'stning urgani yaxshi.
54. Do'st boshga boqar,  
Dushman – oyoqqa.
55. Do'st bo'lsang, do'stingni aybini tuzat.
56. Do'st og'ir kunda bilinar.
57. Dangasaning vaji ko'p,  
Ohangsizning – avji.
58. Dangasaning g'ayrati ish bitganda qo'ziydi.
59. Dehqon yotganda tinar,  
Cho'pon – o'lganda.
60. Dardingni dard bilganga so'zla.
61. Dardsizga dard aytma,  
Ahmoqqa pand.
62. Dardsizning oldida boshim dema.
63. Daryo bo'yida quduq qazima.
64. Dono bilan nodon bir buлоqdan suv ichmas.
65. Dono donoga yor,  
Ahmoq do'stga xor.
66. Dononing so'zidan ham qolma, izidan ham.
67. Do'sti nodondan dushmani ziyrak yaxshi.
68. Daraxtning husni – bargi bilan mevasi.
69. Duo olgan omondir,  
Qarg'ish olgan yomondir.
70. Dushman nima demaydi,  
Tushga nima kirmaydi.
71. Dushmaningni dushman tanir.
72. Do'st – oltining,  
Dushman – qotiling.
73. Do'sting ham til,  
Dushmaning ham til.
74. Do'stsiz kishi bor, dushmanisiz kishi yo'q.
75. Dilda bo'lsa, tilga kelar.
76. Dili boshqa – tili boshqa.
77. Dili pokning ishi – pok.
78. Dili to'g'rinning tili – to'g'ri.
79. Dilning kaliti – til.

80. Devor tagida gapirma,  
Devorning ham qulog'i bor.
81. Do'stga dushman bo'lish oson,  
Dushmanga do'st bo'lish qiyin.
82. Do'stda dashmanning qulog'i bor.
83. Do'stim deb siringni aytma,  
Do'stingni ham do'sti bor.
84. Do'stini yomonlagandan qoch.
85. Dunyo moli dunyoda qolar.
86. Do'st kengashda bilinar,  
Semiz – tovoqda.
87. Davlatingni sinasang, kunjut ek,  
Savlatingni sinasang, ko'mak et.
88. Dalaning qozisi bo'lguncha,  
Shaharning tozisi bo'l.
89. Dam g'animat – diydor g'animat.
90. Davlating ota-onang,  
Savlating o'g'il-qizing.
91. Davlatning boshi – farzand.
92. Daraxtiga qarab mevasi,  
Ota-onasiga ko'ra bolasi.
93. Dunyo kayfini ahmoq surar,  
Aqlii hayron bo'lar.
94. Daromadga qarab buromad.
95. Daraxtning bo'shini qurt yer.
96. Daryo chopar, chaqqon topar.
97. Dard kelar-u, dard ketar,  
Jon qadrini anglatar.
98. Dard filni pashshadek qilar.
99. Dard chekmagan dori qadrini bilmas.
100. Dard boshqa, ajal boshqa.

### **Q – G'**

1. Qayrag'och qalin bo'lsa, yomg'ir o'tmas.
2. Qars ikki qo'ldan chiqar.
3. Qirq uydan etak to'lar.

4. Qirq kishi bir yon bo'lsa,  
Qing'ir kishi bir yon bo'lar.
5. Qomatiga ishongan qaddini bukib ketar,  
Ko'pchilikka ishongan maqsadiga yetar.
6. Qo'shni keldi ko'mak keldi.
7. Qo'shning tinch – sen tinch.
8. Qimirlagan qir oshar.
9. Qimorning puli – o'choqning kuli.
10. Qolgan ishga qor yog'ar.
11. Qo'li qimirlaganning og'zi qimirlar.
12. Qo'li sust kosibdan,  
Oyog'i ildam gado yaxshi.
13. Qo'nimi yo'qning unumi yo'q.
14. Qo'rkoqning ko'zi katta,  
Dangasaning – so'zi.
15. Qadam qo'y asta-asta,  
Qadam yetguncha ilm ista.
16. Qalam kuchi farmon bilan,  
Qilich kuchi darmon bilan.  
Qirqida qo'liga soz olgan,  
Qiyomatda qulog'ini burar.
17. Qorong'uning ko'zi ko'r.
18. Qayg'usiz qora suvgaga semirar.
19. Qari bilganni pari bilmas.
20. Qush donga uchar, odam – so'zga.
21. Qushga qanot odamga aql kerak.
22. Qalip qozoni qaynamas,  
Qaynasa ham quyilmas.
23. Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas.
24. Qasd qilgan past bo'lar.
25. Qashqirming uyi – yomonlik,  
Qo'yning uyi – omonlik.
26. Qildan qiyiq qidirma.
27. Qozon qorasiga ketar,  
Yuz qorasiga ketmas.
28. Qotilga muqaddas joy yo'q.

29. Quruq savlatdan quruq savat yaxshi.
30. Quruq yog'ochga yaproq bitmas.
31. Quruq so'z bilan osh pishmas.
32. Qirq igna bir juvoldiz bo'lolmas.
33. Qochoqqa shavqat yo'q,  
    Qo'rkoqqa – hurmat.
34. Qo'rkoq o'z soyasidan hurkar.
35. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar.
36. Qo'rqqanni ajal quvlar.
37. Qamish ichida ilon to'g'ri.
38. Qiyshiq daraxtning ko'lankasi ham qiyshiq.
39. Qing'ir ish – qirg'in ish.
40. Qing'ir ishning qiyig'i –  
    Qirq yildan keyin ham chiqadi.
41. Qulqidan ko'z haq.
42. Qulf o'g'ri uchun,  
    Mehr to'g'ri uchun.
43. Qaytib kelar eshigingni qattiq yopma.
44. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar,  
    Yomonga yaqin yursang – balosi.
45. Qozon olsang qoqib ol,  
    Mol olsang boqib ol.
46. Qolipsiz g'isht bitmas,  
    Rejasiz – ish.
47. Qarz olmoq oson,  
    Bermoq qiyin.
48. Qozonga qaragan qarindosh bo'lmas.
49. Quruq so'z qulqanda yoqmas.
50. G'ayrat etgan tog'ni kesar.
51. G'ayratsizning g'ayrati  
    Ish bitganda qaynaydi.
52. G'am yuki tog'dan og'ir.
53. G'urur g'urbatga solar.
54. G'aflat uyqusи – о'limning o'rtog'i.
55. G'ofil qolsang, pul qochar.
56. G'ofilda xotin aql topar.

57. G'at-g'at qilgan karnaychi,  
Baloga qolgan surnaychi.
58. G'alvirni suvdan ko'targanda ko'r.
59. G'oz g'oz bilan uchar  
O'rdak o'rdak bilan.
60. G'arib ko'ngli g'aribda.
61. G'aribni urma-so'kma, to'nini yirt.
62. G'aribning ko'ngli – tangrining uyi.
63. G'ariblik o'ldirmas,  
O'ldirmasa-da kuldirmas.

### S – Z

1. Suyanishgan yiqlimas.
2. Savdo g'avg'osiz bo'lmas,  
Polvon – gavdasiz.
3. Sansolar-u mansolar,  
Otga bedani kim solar.
4. Suvsiz hayot bo'lmas,  
Mehnatsiz rohat.
5. So'raganning aybi yo'q.
6. Soqov so'zlamchak bo'lar,  
Oqsoq yurimsak bo'lar.
7. So'zi so'zga o'xshamas,  
Og'zi so'zdan bo'shamas.
8. So'zing qaytar joydan o'zing qayt.
9. So'zlasam, shaq-shaq dedi,  
So'zlamasam, ahmoq dedi.
10. So'qir tovuqqa hammasi tariq.
11. Sevdirgan ham til,  
Bezdirgan ham til.
12. Sigir siylaganni bilmas,  
Yomon siypalaganni.
13. Siylamasang siylama,  
Ammo xo'rlama.
14. So'zdan so'zning farqi bor,  
O'ttiz ikki narxi bor.

15. So'zning yomoni – sanchiq,  
Dardning yomoni – quyanchiq.
16. Sen o'zingni maqtama,  
Birov seni maqtasin.
17. Suv pastga qarab oqar.
18. So'k oshiga – surnay.
19. Sayoq yurgan tayoq yer.
20. Safar borsang sarisin sina,  
Sarisin sinamasang barisin sina.
21. Sinamagan otning sirtidan o'tma.
22. Sir saqlaganga balo yo'q,  
Saqlamaganga – davo.
23. Sir ochgandan el qochar,  
Sir o'chini so'z ochar.
24. Siring sening asiring.
25. Sihat tilasang, ko'p yema,  
Izzat tilasang, ko'p dema.
26. Sodda siri tilida,  
Pishiq saqlar dilida.
27. So'z chumchuq emas,  
Og'zingdan chiqsa tutib bo'lmas.
28. Sanamay sakkiz dema,  
O'ylamay – o'ttiz.
29. Suvdag'i kemaning izi bilinmas.
30. So'rab, so'rab Makkani topar.
31. So'raganning bir yuzi qora,  
Bermaganning – ikki yuzi.
32. Sarbozor – sak bozor.
33. Sag'irning haqi – tangrining o'qi.
34. Suv boshidan loyqa.
35. Suv keltirgan xor-u zor,  
Ko'za sindirgan aziz.
36. Suymaganga suykalma.
37. Sulton suyagini xo'rillas.
38. So'zni so'ragandan so'ra.
39. Suyganimni ko'ngli deb,  
Suymaganini suyibti.

40. Suluv – suluv emas,  
Suyilgan – suluv.
41. Sukut – alomati rizo.
42. Salom ham farz,
43. Semiz qo‘zining go‘shti yaxshi,  
Oqil onaning – qizi.
44. Singan kulolning ko‘zasi,  
To‘kilgan bo‘zagarning bo‘zasi.
45. Sabr achchiq, mevasi shirin.
46. Sabr tagi sariq oltin.
47. Sabr qilsang g‘o‘radan holva bitar,  
Besabrlar o‘z oyog‘idan yiqilar.
48. Salobatli bo‘lma, sabotli bo‘l.
49. Suvdan qatra, oftobdan zarra.
50. Sigir yo‘g‘ida echki ham sigir.
51. Sayil ham – sayil,  
Sargardonlik ham – sayil.
52. Sarishtali uy – farishtali uy.
53. Sepli qizim bo‘lguncha,  
Epli qizim bo‘l.
54. Sonda bor, sanoqda yo‘q.
55. Suruv oqsoqsiz bo‘lmas.
56. Salomatlik – tuman boylik.
57. Sarimsoq, sarimsoq yeganning tani sog‘.
58. Sog‘ tanda sog‘lom aql.
59. Sog‘ yurak – tog‘ yurak.
60. Suvga tushgan quruq chiqmas.
61. Suv oqar-u tosh qolar,  
O‘sma ketar-u qosh qolar.
62. Saratonda suv quy,  
Asadda tek qo‘y.
63. Sigiri ko‘pning oqi ko‘p.
64. Sabab bilan savat aravaga minar.
65. Sababsiz qush ham uchmas.
66. Sadaqasiga qarab savobi,  
So‘ziga qarab javobi.

67. Soviy-soviy qish bo'lar.
68. Sotmasning moli qimmat.
69. Suv ko'zasi suvda sinar.
70. So'ngi pushaymon o'zingga dushman.
71. Sepli qizim kerilar,  
Sepsiz qizim serilar.
72. Sigir suv ichganda,  
Buzoq muz yalar.
73. Si pohning boshi ko'prik bo'lsa ham bosib o'tma.
74. Si pohning oshnasi bo'lmas.

## Z

1. Zari borning zo'ri bor.
2. Zarlik zariga ishonar,  
Zarsiz — kuchiga.
3. Zolimdan panoh tilama.
4. Zar qadrini zargar bilar.
5. Zamon seni o'qitar,  
Tayoq bilan so'qitar.  
Sabog'ini bilmasang,  
Do'konda bo'z to'qitar.
6. Zamona zulmni ko'tarmas.
7. Ziyarakning aqli tosh yorar,  
Nomardning mushti — bosh.
8. Zolim ishi jafodir,  
Mardning ishi vafodir.
9. Zamonaning zindoni o'g'rini to'g'ri qilar.
10. Zolimning joyi jahannam.
11. Zo'rga ham zo'rdek balo bor.
12. Zo'rdan zo'r chiqsa, zo'r tilini qisar.
13. Zog'oradan to'ydi nodon,  
Zarra-zarra kuydi nodon.
14. Zamonaning zindoni ham bor, xandoni ham.
15. Zamonaning ozgani,  
Otdan eshakning o'zgani.

## K – G

1. Kemaga tushganning joni bir.
2. Kengash qilgan el ozmas,  
Keng bichilgan to'n to'zmas.
3. Kengashli to'y tarqamas.
4. Kuch – birlikda.
5. Ko'kka boqma – kunga boq.
6. Ko'ngilni do'st ko'tarar.
7. Ko'p bilsang ham,  
Ko'pdan ortiq bilmaysan.
8. Ko'pga kesak otma, kafansiz qolasan.
9. Ko'pdan ayrilgan ozar.
10. Ko'pga ko'maklashganning ko'makchisi ko'p.
11. Ko'pdan ko'p aql chiqadi.
12. Ko'plashgan yovni qaytarar.
13. Ko'pchilik bir mushtdan ursa, o'ldirar,  
Bir burdadan bersa, to'ydirar.
14. Ko'pchilik biriksa, tog'ni qulatar.
15. Ko'z ko'rар, qо'l ishlar.
16. Ko'z qо'rqоq, qо'l botir.
17. Ko'klam – mehnat bilan ko'rкам.
18. Ko'p yurgan ko'p ko'rар,  
Ko'p o'qigan ko'p uqar.
19. Kirib chiqma, bilib chiq.
20. Kal kalga kular.
21. Ko'p yashagan bilmas,  
Ko'p yurgan bilar.
22. Ko'p gap – eshakka yuk.
23. Ko'zim ochiq deb ko'ziga boqmagan ko'zasini yo'qotar.
24. Kun ko'rmagan kun ko'rsa,  
Kunduz chiroq yondirar.
25. Ko'zi so'qirdan ko'kragi so'qir yomon.
26. Ko'Ining otini balig'i chiqarar.
27. Kamtarga – kamol,  
Manmanga – zavol.
28. Kamtar bo'lding – gavhar bo'lding.

29. Katta yedim, deb katta gapirma.
30. Kamlikning kamoli bor.
31. Kekkayganga kekkaygin,  
Boshing ko'kka yetguncha.  
Enkayganga enkaygin,  
Boshing yerga tekkuncha.
32. Kerilgan ko'chaga sig'mas.
33. Kichiklarning kattasi bo'lma,  
Kattalarning kichigi bo'l.
34. Kunda-kunda o'lgandan,  
Bir kunda o'lgan yaxshi.
35. Kengga keng dunyo,
36. Ko'zbo'yamachi tulki bo'lar,  
El ichida kulgi bo'lar.
37. Kosibning yonidan bir quloch nari o'tir.
38. Ko'mirni kovlaganga yoqtir,  
Molni mirishkorga boqtir.
39. Ko'ra-ko'ra ko'zchil bo'lasan,  
So'zlay-so'zlay so'zchil.
40. Kambag'alning saxiyligini ko'rsa,  
Boyning baxilligi oshar.
41. Keng bo'lsang, kam bo'l maysan.
42. Kiygan to'ning eskirar,  
Kiydirganing eskirmas.
43. Kishining zari kishini buzar.
44. Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq,  
Qo'li ochiqning – yo'li ochiq.
45. Ko'rgan bilan ko'z to'ymas,  
Tek turmoqqa nafs qo'ymas.
46. Ko'rganning ko'rmagani qursin,  
Ko'rmaganning ko'rgani.
47. Kelmoq ixtiyor bilan,  
Ketmoq ijozat bilan.
48. Kunda kelgan mehmonning qadri yo'q.
49. Ko'r bo'lsang ham, ko'mamak bo'lma.
50. Gap bilan va'da berma,

- Ish bilan va'da ber.
52. Gado arazlasa, to'rvasiga ziyon.
  53. Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq.
  54. Gapning yomoni – pichir.
  55. Gap tagida gap bor.
  56. Gadoychilikka ham uquv kerak.
  57. Gadoning xurjuni to'lса ham, ko'zi to'ymas.
  58. Go'sht olishni bilmayman,  
Yog'-yog'idan kesib ber.
  59. Gavhar yerda yotmas.
  60. Gul bahona diydor g'animat.
  61. Gul qadrini bulbul bilar.
  62. Gulga boq – tikanni ko'r,  
Yorga boq – vafoni ko'r.
  63. Gulni sevgan tikanni ham sevadi.
  64. Gilam sotsang, qo'shningga sot,  
Bir chetida o'zing o'tirasan.
  65. Gung qizning tilini enasi tushunar.
  66. Gap unda emas, bug'doyda.
  67. Gadoga salom berma, dinor ber.
  68. Galga solgan do'st emas.
  69. Ginali do'st – adovatli dushman.
  70. Gumon do'stdan ajratar.

#### F – V

1. Fikri ravshanning so'zi ravshan.
2. Fikrsiz odamdan tosh yaxshi.
3. Folbinning so'ziga ahmoq ishonar.
4. Faqir kishi panada.
5. Falokat oyoq ostida.
6. Folbinga oshna bo'lsang,  
Darvozangni katta qil.
7. Farzanddan yo'rgak ayama.
8. Fatvo ham pulingga yarasha berilar.
9. Filning o'limiga tishi sabab.
10. Farzand dog'i tinch qo'ymas.

11. Farzand ko'rdingmi, ko'chat ek.
12. Foyda bilan zarar bir xurjunning ko'zida.
13. Falokat teshikdan qochar.
14. Foydadon foyda chiqmasa,  
Qora sigir qayda.
15. Farosatni befarosatdan o'rgan.
16. Farosatsiz falokatga yo'liqar.
17. Faqir piyoda yurar, boy — tuyada.
18. Vatan gadosi — kafan gadosi.
19. Vatanning vayronasi — umrning g'amxonasi.
20. Vataning tinch — sen tinch.
21. Vafoli do'st yo'lga solar,  
Ig'vegar do'st paydan olar.
22. Va'daga vafo — mardning ishi,  
Va'dasiz — subutsiz kishi.
23. Va'da oltindan qimmat.
24. Vafosizda hayo yo'q,  
Hayosizda vafo yo'q.
25. Vaqt aqchadur,  
G'ofil bo'lsang, qochadur.
26. Vaqt ketdi, vaqt ketdi,  
Toj-u sari taxt ketdi.
27. Vaqt — omad.
28. Vaqt tog'ni kemirar,  
Suv toshni kemirar.
29. Vaqt — g'animat.
30. Vaqting ketdi, baxting ketdi.
31. Vaqting bor — naqding bor.
32. Vaqt-soati yetsa,  
Qush bolasi ham uya qurar.
33. Vaqt o'tgandan keyin qilichingni toshga chop.

Biror hunar, kasb yo'qki, unga mashaqqatsiz erishish mumkin bo'lsin. Xuddi shunday ijrochilik mahorati ham talabidan fidoiylikni, sabr-bardoshni, ko'p o'qish, o'rganishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni taqozo etadi.

Husnixati yomon bo'lgan odamning yozganlarini bir amallab o'qiy olish mumkin. Lekin sahnadan turib aytilgan noto'g'ri so'zni, ayniqsa ijrochi o'zi sezmaganligi sababli, qaytarib bo'lmaydi.

Bunday holatlarning oldini olishning eng yaxshi va birdan-bir to'g'ri yo'li talaffuz ustida qilinadigan tinimsiz mehnatdir.

Buyuk nemis adibi, filosofi, teatr san'ati namoyandasi logann Gyote aytganidek, aktyor aniq va ravshan «diksiyani o'zlashtirishga urinishi kerak, zeroki, yemirilgan bir harf yoki noaniq talaffuz, aytilgan biror so'z butun jumlani ikki ma'noli qilib qo'yadi va tomoshabinni ba'zida, hatto eng jiddiy paytlarda kulishga majbur qiladi». Demak, shunday ekan, talaba-ijrochilar bilan nutq ustida ishlaganda «Sahna nutqi» ning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan talaffuz (diksiya)ga e'tiborni alohida qaratish kerak.

Unli va undosh tovushlarning talaffuzidagi o'rnini mustahkamlash, amalda qo'llash maqsadida Sharq ulug'lari Navoiy, ibn Sino, Kaykovus, Beruniy, al-Xorazmiylarning asarlaridan parchalar olib, ijro etish ham mumkin. Buning foydali tomoni shundaki, birinchidan, talabalar ulug'lar asari bilan tanishsalar, ikkinchidan, ibratli hikmatlar va tafsiriy lavhalarni o'qib-uqib ma'naviy ozuqa oladilar. Bunday matnlar yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazib, e'tiqodli, pok niyatli bo'lishga, ma'naviy durdonalarni qadrlashga da'vat etadi.

Misol tariqasida al-Zamaxshariyning hikmatlaridan lavhalar keltiramiz. Biz uni «**Nomi ulug'** – **so'zi qutlug'**» deb nomladik.

### **1- talaba:**

Buyuk mutafakkir al-Zamaxshariy o'n birinchi asrda yashab ijod etgan bo'lib, bizga boy va ulkan meros qoldirgan.U tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz, jug'rofiya, tavsir, hadis, fiqh va al qiroatga oid talay asarlar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Hozir biz sizlarga uning ijodidan namunalar keltiramiz.

### **2- talaba:**

Agar senga nisbatan o'z birodaring biror xiyonat qilsa, unga yaqinlashishdan o'zingni tiy, uning makr-u hiylasidan o'zingni muhofaza etishga harakat qil.

**3- talaba:**

Avval qilgan xayrlig-u ezguliklarining keyin ham doimo ezgulik qo'shavering, chunonchi, qushning qanotidagi patlari katta patlariga madadkordir.

**4- talaba:**

Halol pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikdadir, birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.

**5- talaba:**

O'z birodaringning so'zini sukul saqlab tinglab, uning hurmatini o'rniga qo'y, garchi uni eshitishga rag'batning va mayling yo'q bo'lsa ham.

**6- talaba:**

Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lsan.

**7- talaba:**

Mardonavor kishi mag'lub bo'lgani bilan uning martabasi past bo'lmas, mashaqqat-u tashvishga giriftor bo'lsa-da, xor bo'lmas.

**8- talaba:**

Ayvoni atrofida qushlar uchib qo'nadigan joyi bo'limgan uyga yomg'ir ham baraka bermaydi. Uning egasi ham erkinlik bilmaydi, u joy faqirlikka giriftordir.

**9- talaba:**

O'zini saxiy himmati baland ko'rsatib, aslida xor-u zor, haqir va qadri tuban bo'lgan odamlardan qo'rqi, toki bir kun o'zlarining xasisliklari birla ongsizlikdan mard odamni tuzoqlariga tushirgaylor.

**10- talaba:**

Hayvonga yaxshilik qilsang sevinadi, hayvon sevinsa egasini tepadi. Odam bolasi ham mana shuga o'xshash: agar u tashvish-u mashaqqatdan xoli qolib, o'zini erkin sezsa, fisq-u fujurga ruju qo'yib, yaqinlarini qiynab azob keltirur.

### **11- talaba:**

Seni kecha-yu kunduz ziyorat qiluvchilarning ko'pchiligi seni haddan ortiq ko'klarga ko'tarib maqtab, oxir-oqibat adovatga duchor qiluvchilardir.

### **12- talaba:**

Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman, degan o'ylardan voz kech, tafakkur va idrok bilan ish tut.

### **13- talaba:**

Bir lahza nazar bilan ishkal ishlar to'g'ri bo'lur, bosh barmoq kalta bo'lishiga qaramay, butun qo'lni ushlab turadi.

### **14- talaba:**

O'z va'dasida turmaganda turli-tuman vaj-karsonlar ko'rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo'lomaydi.

### **15- talaba:**

Tan-u badanning sog'ligi eng buyuk ne'matlardan biridir, yana shu hol (sihat-salomatlik) ba'zan fisq-u fasodlar, gunoh ishlarga ham sabab bo'ladi.

### **16- talaba:**

Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkan qilolmas. Gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas.

### **17- talaba:**

Yashil yaproqlar ostida yetilib pishgan mevalar ko'pincha oppoq qog'ozga bitilgan chiroyli yozuvlarga qaraganda go'zalroq sanaladi.

### **18- talaba:**

Baxil-u xasisning qo'lli oqarmas, ya'ni biror narsa berishga ochilmas, toki til bilan qattiq so'z so'zlanmaguncha, tog'dagi mayjud boyliklarni chiqarib bo'lmas, toki lo'm bilan kuchli zarba urilmaguncha.

Agarda o'qilayotgan matnlar biror bir milliy musiqa fonida ijro etilsa, uning tinglovchiga ta'sir kuchi yanada oshadi.

## XULOSA

Adabiy-badiiy parchalar ustida ishlash jarayonida, birinchi shaxs nomidan hikoya talaba-ijrochi uchun eng maqbul va tez singuvchandir. Chunki, birinchi shaxs «men» muallif tomonidan yozilgan matnni ijodiy o'zlashirish, o'ziniki qilib olib, muallifning his-tuyg'ularini, dunyoqarashini, ichki kechinmalarini, dard va quvonchlarini tinglovchiga yetkazib berishda talaba uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki u parcha qahramoni qiyofasida o'z nomidan «men»idan so'zlaydi.

Ma'lumki, o'z nomidan gapirish uchinchi shaxs nomidan gapirishdan ko'ra qulay va talaba-ijrochi uchun yaqin.

Birinchi shaxs nomidan hikoya qilish yana shunisi bilan farqlanadiki, mantiqiy tahlil ustidagi ish jarayoni osonroq kechadi, chunki «men» talaba-ijrochini hamisha to'g'ri yo'ldan olib boradi. Muallif, yozuvchi bilan birgalikda yashashga, his qilishga, voqeaga munosabat, ko'rish, eshitish kabi nutq elementlarini o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Birinchi shaxs nomidan hikoya talabalarda g'azal va monologga o'tish uchun pillapoya vazifasini ham o'taydi.

O'quv dasturi bo'yicha 3-o'quv yilida aruz vaznida yozilgan matnlar ustida ish olib borilsa, 4-o'quv yilida esa pyesalardan monologlar o'qiladi. G'azal ham, monolog ham birinchi shaxs nomidan aytildi. Shuning uchun birinchi shaxs nomidan hikoya qilish talaba-ijrochida g'azal va monolog ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qila boradi.

Unli va undosh tovushlar uchun berilgan tavsiyalardan maqsad, talaba-ijrochining nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish, talaffuz ravnligini ta'minlash barobarida sharq ulug'larining asarlarini tanish va ulardan bahramand bo'lib, axloqiy-ma'naviy ozuqa, tarbiya olishdir. Maqol xalq og'zaki ijodining juda ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri. Maqollar fikrni lo'nda aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz juda zarur

bo'lgan vosita hisoblanadi. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham «Sahna nutqi» fanida, talaffuz ustida ishlaganda maqollardan keng foydalanish o'z samarasini beradi.

### **Darslik va o'quv qo'llanmalari** *(o'zbek va rus tillarida)*

1. Inomxo'jayev S., «Badiiy o'qish asoslari». T., 1972.
2. Inomxo'jayev S., L.Xo'jayeva. «Badiiy so'z san'ati». T.
3. Inomxo'jayev S., «Notiqlik san'ati asoslari». T., 1982.
4. Savkova Z., «Kak sdelat golos ssenicheskim». M., 1975.
5. Savkova Z., «Rechevoy xor v massovom predstavlenii». LGIM. L., 1977.
6. Sayfutdinov A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980.
7. Inomxo'jayev S., Zunnunov A. «Ifodali o'qish asoslari». T., 1965.
8. Saricheva Ye.F., «Ssenicheskaya rech». M., 1965.
9. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T., 1965.
10. Stanislavskiy K.S., «San'atdag'i hayotim». T. 1966.
11. Ssenicheskaya rech., «Uchebnoye posobiye». M., 1976.
12. Yazovitskiy Y.A., «Virazitlnoye chteniye – kak sredstvo esteticheskogo vospitaniya». L., 1973.
13. Yaxontov V., «Teatr odnogo aktyora». M., 1958.
14. Nosirova A., «Jonli so'z san'ati asoslari». T., 2003.

### **Asosiy qism**

Bo'limlar bo'yicha mashg'ulotlarning nomi va mazmuni.

1. «Sahna nutqi» fanining maqsad va vazifalari.

Badiiy so'z san'ati – sahna nutqining tarkibiy qismi sivatida.

Nutq madaniyati va sahna nutqining o'zaro munosabati. Sahna nutqi va rejussaraning o'zaro aloqadorligi.

2. O'zbek sahna nutqi fanining shakillanishi.

O'zbek sahna nutq fanining shakillanishida Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Nazira Aliyeva, Lola Xo'jayeva, Sotim Inomxo'-jayevlarning hissalari.

### **3. O‘qish san’ati turlari.**

O‘qish san’atining muayyan turlarga ajratilishi.

Mantiqiy o‘qish, adabiy o‘qish, ifodali o‘qish, badiiy o‘qish.

### **4. Ko‘rish.**

Botiniy va zohiriylar ko‘rish tushunchalari haqida.

K.S.Stanislavskiy ta’limoti. Ko‘rish san’atida ijodiy fantaziyalarning o‘rni va roli.

### **5. «Badiy so‘z» tushunchasi haqida.**

Yozma va og‘zaki nutqda badiylik, ularning o‘zaro uzviy aloqadorligi. Og‘zaki nutq badiyligida ijrochi ovozi, hissyoti va jismoniy xatti-harakatlarining o‘rni va roli.

### **6. Repertuar tanlash.**

Repertuar tushunchasi haqida umumiy ma’lumot. Barcha o‘quv yillari uchun sahna nutqi repertuariga qisqacha izoh. Birinchi semestr repertuarlari haqida.

### **7. Nutq texnikasi.**

Artikulyatsiya – nutq organlari faoliyatining takomillashtiruvchi omil sifatida. Lab, til va jag‘ artikulyatsiyasi haqida ma’lumot. Artikulyatsion mashqlar majmui va uning ahamiyati.

### **8. Diksiya.**

So‘z va bo‘g‘inlardagi unli va undosh tovushlarning to‘g‘ri va aniq bo‘lishini o‘rgatuvchi va ta‘minlovchi muhim vosita sifatida. Diksion mashqlar haqida ma’lumot, yaxshi va yomon diksiya, yaxshi diksiyaning sahna nutqidagi o‘rni.

### **9. Nafas va uning ahamiyati.**

Amaliyotning professional va havaskorlik teatr san’ati bilan birga teatrlashtirilgan tadbirdillardagi so‘z san’ati uchun ham albatta aralash difragmal nafas bazasini mukammal egallash kerakligini tasdiqlayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumot. Nafas mashqlardan boshlab, asta-sekin matnli mashqlarga (she’riy matnlar, maqol, tez aytishlar, sajlardan foydalangan holda) o‘tib boriladi.

### **10. Nutqning ifodaviy vositalari.**

Matn ustida ishlash.

### **11. Manzara.**

Talabalarda ijodiy tafakkurning dastlabki bosqichi bo‘lgan ko‘rish, his qilish, munosabat elementlarini tarbiyalash haqida. Ijodiy tasavvurni tarbiyalash, tilni ravon va tushunarli bo‘lishi.

12. Saj haqida ma'lumot.

Diksiya, artikulyatsiya va nafasni takomillashtirishda sajlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Muomala uchun asosan saj' matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

13. Ovoz va uning manbaalari haqida tushuncha.

Rezonator va uning ovoz shakillanishidagi roli. Ovozni yo'lga qo'yish, she'riy matnlardan foydalanish.

14. She'riy janr.

She'riy janrda yozilgan asarlar va ularning formalari haqida tushuncha. Tanlangan she'riy matnlarning tahlili.

15. G'azal va aruz vazni haqida ma'lumot.

Ijro uchun g'azal tanlash. G'azalning tahlili.

16. Masal haqida ma'lumot.

Masal ustida ishlashning asosiy talablari. Masalning mantiqiy va adabiy tahlili. Muallif va personajning so'z harakatini bajarish.

17. Monolog tushunchasi.

Monolog ustida talaba-ijrochining, talaba rejissyor bilan ishash jarayonini nazorat qilish.

18. Badiiy asar va parchalarni ifodali o'qish va qayta hikoyalash.

Ifodali o'qitish jarayonida talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish (texnik mashqlar orqali).

19. Asar muhitini o'rganish.

Muallif va uning hayoti haqida zarur ma'lumotlar, parchaning umumiy ruhiyati, til xususiyatlari, personajlarga tavsifnoma.

20. Mavzu va uni aniqlash.

Mavzu haqida umumiy ma'lumot. Yozuvchi ijodida mavzu va uning ahamiyati.

21. G'oya va g'oyaviylik.

Qoyaviylikka badiiylikning uzviy aloqadorligi. G'oya va mavzuning o'zaro aloqasi.

22. Janr haqida tushuncha.

Adabiy tur va janrlarga izoh. Proza, poeziya, dramaturgiyada janr ko'rinishlar.

23. Obrazlarga xarakteristika.

Badiiy so'z san'atida obrazlarga xarakteristika berishning ahamiyati.

24. Oliy maqsad.

Badiiy so‘z ijrochiligi san’atida ijrochilik maqsadi tushunchasi va uning oliy maqsadga munosabati. Oliy maqsad va asar g’oyasi o’rtasidagi murakkab munosabat.

### 25. Yetakchi harakat.

Bu haqida K.S.Stanislavskiy ta’limoti yetakchi harakatning badiiy so‘z ijrochiligi asariga tadbiq.

#### **Amaliy, seminar, tajriba darslari uchun ko‘rsatmalar**

1. Badiiy o‘qish va badiiy so‘z san’atini farqlay bilish.
2. Repertuar tanlash prinsiplarini egallash.
3. She’riyat nimaligini tushunmoq.
4. Aruz vaznni mukammal bilish.
5. Monolog haqida tushunchani bilish va ijro usullarini qo‘llash.
6. Adabiy-badiiy kompozitssiya ustida ishlash, uslubiyatlarini egallash.

#### **Chizma-hisob, kurs ishi va loyihalari bo‘yicha ko‘rsatmalar**

Jami Ma’ruza Amaliy Yakka Mustaqil ish

210 — 80 130 —

#### **Asosiy qism**

1. Mavzu: Badiiy so‘z san’ati va uning ijtimoiy o‘rni. 4 soat.  
Badiy so‘z san’atining hozirgi zamон ijtimoiy mavqeiga ko‘ra uch qismiga ajralishi.

1. San’at tarmoqlarida badiiy so‘z.

2. Maorif tarmog‘ida badiiy so‘z.

3. Madaniyat tarmoqlarida badiiy so‘z.

Adabiyotlar:

1.Inomxo‘jayev S., «Badiiy o‘qish asoslari» T., 1972.

2.Inomxo‘jayev S., Zunnunov A.»Ifodali o‘qish asoslari» T., 1998.

3. Nosirova A., «Jonli so‘z san’ati». T., 2003.

2. Mavzu: «Sahna nutqi» fanining maqsad va vazifalari. 6 soat.

«Sahna nutqi» fani madaniyat institutining rejissura bo‘limida «Rejissyorlik va aktyorlik mahorati» kabi asosiy fan hisoblanadi. Bu fanning maqsadi bo‘lajak ommaviy bayramlar rejissyorlarining g‘oyaviy va professional tayyorgarliklarini chuqur bilim va amaliy tayyorgarlik asosida yetishtirib berishga qaratiladi. «Sahna nutqi» fani talabalardan mantiqiy va obrazli fikrlash, sahnaviy xattiharakatga asoslangan so‘z ustida ishlashda keng va atroflicha bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Fanning maqsadi talabalarning nutq madaniyatini o‘stirish, ijrochilik san’ati elementlarini egallash, rejissyor-pedagoglik asoslarini o‘rganishni keng ta’minlashdir.

Adabiyotlar:

1. Inomxo‘jayev S., Xo‘jayeva L. «Badiiy so‘z san’ati». T., 1972.
2. Aliyeva N., «San’atdagi hayotim». T., 1999.

4. Mavzu: «Sahna nutqi» da nutq texnikasi. 20 soat.

Nutq texnikasi o‘z ichiga artikulyatsiya, diksiya, nafas, ovoz singari nutq komponentlarini oladi.

Artikulyatsiya-talaffuz jarayonida nutq organlarining harakati.

Dixsiya — nutq tovushlarining talaffuz etilish meyori.

Har bir so‘z ijrochisining chidamlilik, kuchililik, raxonlik va ifodalilik xususiyatlariiga ega bo‘lishi lozim. Ovozni tarbiyalash uchun professional sog‘lom ovoz apparati bo‘lishi shart. Ovoz musaffoligi ni saqlab qolishga shart sharoit yaratuvchi dastlabki talab nafasga rioya qilishdir. Olinadigan nafas organizmni yetarli ta’minalyldigan hajmda bo‘lishi kerak. Har bir talabaning nutqiy kamchiliklari, imkoniyatlari hisobga olingan holda individual yondashib mashqlar beriladi.

Adabiyotlar:

1. Saricheva Y.F., «Ssenicheskaya rech». M., 1998.
2. Inomxo‘jayev S., «Badiiy o‘qish asoslari». T., 1972.

5. Mavzu: «Sahna nutqi»ning nazariy masalalari. 10 soat.

1. O‘zbek «Sahna nutqi» fanining shakllanishi. M.Uyg‘ur va Y.Bobojonovlarning bu boradagi beqiyos xizmatlari. Yirik o‘zbek olimlari professor Nazira Aliyeva, Lola Xo‘jayeva, Abdurahim Sayfutdinov, Sotimxon Inomxo‘jayevlvrning sahna nutqi faniga qo‘sghan hissalarini.

## 2. O'qish san'ati turlari:

Adabiy o'qish .

Ifodali o'qish.

Badiiy o'qish.

Adabiy o'qish va uning tabiat. Adabiy o'qishda poetik qonuniyatlarining o'rni va roli.

Ifodali o'qish, uning obyekti hamda vazifalariga sharh.

Badiiy o'qish – so'z ijrochiligi san'atining yuqori darajasi sifatida.

## Adabiyotlar:

1.Olimjonova Z., «Badiiy so'z san'ati». T., 2000.

2.Aliyeva N., «San'atdagi hayotim». T., 1999.

## 6. Mavzu: Nafas va uning ahamiyati. 20 soat.

So'z san'atida nafas mashqlarini o'zlashtirishda eng oddiy mashqlardan boshlab asta sekin murakkab mashqlarga o'tib boriladi, bunda matnlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Nafas mashqlari har bir talaba bilan alohida olib boriladi. Sahna nutqi fanida asosan aralash – diafroqmal nafas ustida ishlash lozim.

## Adabiyotlar:

1.Saricheva Ye.F., «Ssenicheskaya rech». M., 1998.

## 7. Mavzu: Ovoz va uning manbaalari. 20 soat.

Bu bo'limda ovoz turlagi va registrlariga e'tibor qaratiladi. Rezonatorlar va ularning ovozni shakillantirishdagi o'rni. Ovozni yo'lga qo'yishda nutq a'zolarining holati. Nafas va ovozni yo'lga qo'yishda maxsus tanlangan she'riy matnlardan foydalanish.

## Adabiyotlar:

1.Sayfuddinov.A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980

2.Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o'z ustida ishlashi». M., 1965.

3.Uchebnoye posobiye»Ssenicheskaya rech». M., 2001.

## 8.Mavzu: Unli va undosh tovushlar. 20 soat.

Bu bo'limda nafas va ovoz ustida ish olib borilsa-da, adibiy talaffuz normalarini o'zlashtirish usullari, o'zbek tili grafikasidagi **i, e, a, o, o', u** holida ayrim undosh tovushlar bilan birikmalarini

haqida ham to‘xtab o‘tiladi. Bu mashqlar talaffuzni ravon bo‘lishida va nutqiy kamchiliklarni tuzatishda yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar:

1. Inomxo‘jayev S., «Badiiy o‘qish asoslari». T., 1972.
2. Inomxo‘jayev S., «Notiqlik san’ati asoslari». T., 1982.

9.Mavzu: Badiiy asarlarni ifodali o‘qish va qayta hikoyalash. 20 soat.

Repertuar sifatida tanlangan parchalarni avval oddiy o‘qitish. O‘qish davomida talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish. Mantiq va fiklar yo‘nalishiga e’tiborni kuchaytirish. Tanlangan parchalarni talabalarga singdirish uchun qayta hikoyalash. Qayta hikoyalashning ixcham va keng usullaridan foydalanish. Qayta hikoya qildirish jarayonida talabalarning o‘z leksikasidan ko‘proq foydalanish, o‘z nomidan va o‘z tilidan gapirishga erishish.

Adabiyotlar:

1. Inomxo‘jayev S., «Badiiy o‘qish asoslari». T., 1972.
2. Olimjonova Z., «Badiiy asar ustida ishlash». T., 2001.
3. Sayfuddinov A., «Adabiyy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980

10.Mavzu: Manzara matni ustida ishlash. 20 soat.

Talabalarda ijodiy tafakkurning dastlabki bosqichi bo‘lgan ko‘rish, hazm qilish, munosabat elementlarini tarbiyalash vazifasi haqida. Bu vazifaning ijodiy tasavvur bilan uzviy aloqadorligi. Ichki ko‘rish kinolentasi manzaralarni tinglovchi – tomoshabinga singdira olish mahorati haqida. Ijodiy tasavvurni tarbiyalash uchun manzaraning mohiyati. Badiiy asarlardan manzara tasvir etilgan parchalarni topa olish usullari. Manzaraviy parchalarning asosiy xususiyati – ularning yorqin ifodali va obrazli ekanligi haqida.

Adabiyotlar:

1. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o‘z ustida ishlashi». M., 1965.
2. Boboyeva R., «Matn ustida ishlash». T., 2001.
11. Saj haqida ma’lumot. 10 soat.

Diksiya, artikulyatsiya va nafasni takomillashtirishda sajlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Muomala uchun asosan saj' matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar:**

1. Nosirova A., «Jonli so'z san'ati asoslari». T., 2003.
2. Inomxo'jayev S., «Badiiy o'qish asoslari». T., 1972.

**12. She'r haqida ma'lumot. 20 soat.**

Sheriy janrda yozilgan asarlar va ularning formalari xaqida tushuncha. Vazn, qofiya, ritm haqida ma'lumot. Tanlangan matnlarning mantiqiy taxlili.

**Adabiyotlar:**

1. Sayfuddinov A., «Adabiy asar va ijrochilik maxorati». T., 1980
2. Yaxontov V., «Teatr odnogo aktyora». M., 1988.

**13. G'azal va aruz vazni. 10 soat.**

G'azal va aruz vazning yaratilishi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Nodira, Zebuniso kabi klassik yozuvchilarimizning g'azallaridan namunalar. Ijro uchun g'azal tanlash usullari, g'azal tahlili.

**Adabiyotlar:**

1. Inomxo'jayev S., Xo'jayeva L. « Badiiy so'z san'ati ». T. 1972.
2. Sayfuddinov A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T. 1980

**14. Masal tushunchasi. 10 soat.**

Masal haqida ma'lumot. Masal ustida ishlashning asosiy talablari. Masalning adabiy va mantiqiy tahlili. Muallif va personajning so'z harakatini bajarish.

**Adabiyotlar:**

1. Yaxontov V., «Teatr odnogo aktyora». M., 1988.
2. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o'z ustida ishlashi». M., 1965.
3. Inomxo'jayev S., Xo'jayeva L. «Badiiy so'z san'ati». T., 1972.

### **15. Monolog. 10 soat.**

Pyesalardan monologlar tanlash prinsiplari. Monologlarning mantiqiy tahlilida zamon va makon. Monolog ustida talaba-ijrochining, talaba-rejissyor bilan ishlash jarayonini nazorat qilish.

Adabiyotlar:

1. Sayfuddinov A., «Adabiy asa rva ijrochilik mahorati».
2. Saricheva Y.F., «Ssenicheskaya rech». M., 1965.
3. Savkova Z., «Kak sdelat golos ssenicheskim». M., 1975.

### **16. Asar muhitini o'rganish. 10 soat.**

Asar muallifi va uning hayoti haqida zarur ma'lumotlarni bilish, olingan parchanining umumiy ruhiyati, til xususiyatlari, personaj-larga xarakteristika.

Adabiyotlar:

1. Sayfuddinov A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980
2. Inomxo'jayev S., «Badiiy o'qish asoslari». T., 1972.

### **17. Mavzuni aniqlash. 10 soat.**

Mavzu haqida umumiy ma'lumot. Yozuvchining asarida mavzu va uning ahamiyati to'g'risida talabalarga tushuncha berish. Mavzuning asardagi o'rmini to'g'ri aniqlay bilish va uni ijrodagi o'mi.

Adabiyotlar:

1. Sayfuddinov A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980.
2. Inomxo'jayev S., «Notiqlik san'ati asoslari». T., 1982.

### **18. G'oya va g'oyaviylik. 10 soat.**

G'oya va g'oyaviylik haqida tushuncha. Adabiy asardagi g'oyani va g'oyaviylikni aniqlash. G'oyaviylikka badiiylikning uzviy aloqadorligi. G'oya va mavzuning o'zaro aloqasi. G'oya va uning asardagi o'mi.

Adabiyotlar:

1. Sayfuddinov A., «Adabiy asar va ijrochilik mahorati». T., 1980
2. Inomxo'jayev S., «Badiiy o'qish asoslari». T., 1972.

### **19. Janr. 10 soat.**

Janr haqida ma'lumot. Adabiy tur va janrlarga izoh. Proza , poeziya, dramaturgiyada janr ko'rinishlari. Adabiy asarlarning janrini aniqlash.

#### **Adabiyotlar:**

1. Olimjonova Z., «Adabiy asar ustida ishlash». T., 2001.
2. Saricheva Y.F., «Ssenicheskaya rech». M., 1965.

### **20. Obrazlarga xarakteristika . 10 soat.**

Badiiy so'z san'atida obrazlarga xarakteristika berishning ahamiyati. Tanlangan adabiy parchadagi obrazlarni o'rganish, ularni baholash, ularning nutqiy xarakterini aniqlash va ijro jarayonida nutqiy xarakterni ochib berish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o'z ustida ishlashi». M., 1965
2. Stanislavskiy K.S., «San'atdagi hayotim». M., 1966.
3. Yaxontov V., «Teatr odnogo aktyora». M., 1988.

### **21. Oliy maqsad. 10 soat.**

Badiiy so'z ijrochiligi san'tida ijrochilik maqsadi. Asarning oliy maqsadi. Ijrochilik maqsadi va oliy maqsad o'rtasidagi mutanosiblik. Oliy maqsad va asar g'oyasi orasidagi murakkab munosabat. Ijrochining oliy maqsadi va asar muallifining oliy maqsadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A., «Ma'naviy yuksalish yo'lida». T., 1998.
2. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T., 1965.

### **22. Yetakchi harakat. 10 soat.**

Ta'limotda yetakchi harakatga berilgan qiyos. Yetakchi harakatning so'z ijrochiligidagi o'mni. Yetakchi harakatning badiiy so'z ijrochiligidagi tadbiqi. Badiiy asardagi yetakchi harakatni aniqlash.

**Adabiyotlar :**

1. Stanislavskiy K.S., «Aktyorning o‘z ustida ishlashi». T., 1965.
2. Stanislavskiy K.S., «San’atdagi hayotim». T., 1966.

### **AMALIY, SEMINAR, TAJRIBA DARSLARI UCHUN KO‘RSATMALAR**

3. Nutq texnikasi.
4. Artikulyatsiya mashqlarini o‘zlashtirish.
5. Nafas uchun mashqlar.
6. Unli tovushlar va ularning talaffuz me’yorlarini bilish.
7. Unli va undoshlar differensiatsiyasini bilish.
6. Birinchi tezlikda matnli mashqlarni o‘zlashtirish.

### **CHIZMA-HISOB, KURS ISHI VA LOYIHALARI BO‘YICHA KO‘RSATMALAR**

Jami	Ma’ruza	Amaliy	Yakka	Mustaqil ish
80	—	80	—	—

### **Inson ko‘rki – so‘z**

«Til bamisli shunday nafis bir musiqiy asbobki, oqil-u omillar undan yoqimli va sehrli sado chiqarib, inson qalbini o‘zlariga maftun etadilar, nodonlar esa noxush sado chiqarib, inson asabini qirg‘ichlaydilar». R.Usmonov, «Saodatnama».

Nutq madaniyati – nutqning rivojlangan takomillashgan, har tomonlama puxtalashgan darajasidir. Nutq madaniyatining rivojlanishi butun bir tizimdan iborat bo‘lgan adabiy tilning hamma qismi yuksak darajada o‘sgan, ya’ni grammatic qurilishi yaxshi ishlaniib, takomillashgan, leksikasi boyigan, uslub jihatdan silliqlashgan va muayyan adabiy normalarga tushganligi bilan xarakterlanadi. Shunday takomillashgan adabiy tilga asoslangan nutq madaniy bo‘lishi tabiiydir. Odob-axloq har qanday jamiyatning ma’naviy, siyosiy va moddiy negizini tashkil etadi.

Insonning odobi, eng avvalo, uning so'zida, nutqida ko'rindi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilayotgan so'zni suhbatdoshni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushunildi. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal egallagan bo'lmos'i lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqaligina erishish mumkin.

Nutqiy muomalaning boshlanishi salomlashishdir. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi, chiroli suhbatga debocha bo'lib xizmat qiladi, tinglovchida, suhbatdoshda yaxshi kayfiyat uyg'otadi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, «Assalomu alaykum»ning javobi «Vaalaykum assalom»dir.

Ming afsuslar bo'lsinki, hozir yoshlariimiz orasida salom berish «Privet!» yoki «Qalaysan?»dan iborat bo'lib qoldi. Ularning o'zaro suhbatiga qulqoq tut sangiz qaysi tilda so'zlashayotganini aniqlayolmay qolasiz. So'zlarida rus tili ham, ingliz tili ham, o'zbek tili ham aralash - quralash. Bu bilan o'zlarini go'yo madaniyatli, zamonaviyday ko'rsatishadi. Asida esa, bu o'taketgan madaniyatsizlikdan nishona, xolos. Hozir ma'naviyat va qadriyatlarimiz tiklanayotgan bir paytda bunday holatlар tarixiy an'analarimizdan chetlashish emasmi?

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida so'zlar mavjud. Tilimizda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni ifodalaydigan chiroli iboralar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'mida ishlatish ham kishi odobini, xulqini bezaydi. Nutq madaniyati bilan bir qatorda o'zini tuta bilish madaniyati, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati hattoki, mehmon kutish va mehmonga borish madaniyati ham mavjud.

O'qituvchi – o'quvchi uchun eng yaxshi namuna. Bizning yurish-turishimizdan, kiyinishimizdan, o'zimizni tuta

bilishimizdan, muomala va xulqimizdan, nutq odobimizdan o'quvchilarimiz andoza oladilar. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi lozim.

Shuni unutmaylikki, inson axloqini belgilovchi asosiy mezon nutq odobidir.

---

## *III BO'LIM*

### NUTQ TEXNIKASI

#### **NUTQ MADANIYATI VA UNING IJTIMOIY O'RNI**

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatning, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Yuksak madaniyatli jamiyatda yashovchi kishilarning nutq madaniyati ham yuqori bo'lishi kerak. Shuning uchun ham madaniyatni biror ijtimoiy tuzumning umummadaniyati va ravnaqining timsoli, ko'zgusi deb aytish mumkin.

Nutq madaniyati yozma va og'zaki shaklda bo'ladi. Og'zaki nutq madaniyati deganda, so'zlovchi tilidagi raxonlik, aniqlik, ma'nodorlik va latofat tushuniladi. Zotan, o'tmish klassiklari ham nutqning madaniyatli bo'lmog'i uchun aynan shunday shartlarni qo'yadilar. Jumladan, hofiz Sheroyz shaxs deydi:

Aql-u idrok-u adolat birla so'z ayt doimo,  
Barcha ma'no bo'lsa jam, so'ng et bayon ne muddao.

Shunday ekan, kishi o'z nutqining madaniyatli bo'lishi uchun, aql bilan ish ko'rishi va elimiz aytmoqchi, gapirganda yetti o'lchab, bir kesish kerak.

Aksincha, kishining nutq madaniyatidan mahrum bo'lishi g'oyat achinarli bir holdir. Alisher Navoiy «Hayrat-ul abror»da bu haqda shunday yozadi:

G'uncha og'izli sanami no'sh lab,  
So'zdin agar aylasa xomush lab,  
Surat ila bo'lsa mohi osmon,  
Surati devor hamon, ul hamon.

Ya'ni agar biror sanam osmondag'i oydek chiroyli bo'lsa-yu, nutq kabi ne'matdan mahrum bo'lsa, unday chiroyning devordagi suratdan farqi qolmaydi.

Nutqning madaniyatli bo'lishi uchun notiq eng avval so'zning qadrini bilishi kerak. Chunki «Ona tili» beba ho ne'mat, xuddi onaning o'zi kabi mo'tabar tutilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tiliga bo'lgan befarqlik va hurmatsizlik, tabarruk ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, mo'tabar ajdodlar sha'niga hurmatsizlik demakdir. Buyuk Alisher Navoiy:

So'z gavhari durki, rutubasining  
Shahridadir ahli nutq ojiz

deydi. Ya'ni so'z shunday gavhardirki, uning martabasini ta'riflab berishga so'z ustalari ham ojizlik qiladi. Shuning uchun ham nutq madaniyatining eng birinchi sharti — so'zga g'oyatda pok, musaffo va oqilona munosabatda bo'lishdir. Zotan buyuk Abdurahmon Jomiy aytganidek:

Kimki so'zni qadrlasa har qachon,  
O'z-o'zini qadrlagay begumon.

Nutq madaniyatli bo'lishining navbatdagi sharti, kishining musaffo bo'lishidir. Ulug' Navoiy tili bilan aytganda:

Kerak og'izi poku, so'zi dog'i pok,  
Yana ko'ngli poku, ko'zi dog'i pok.

Chunki kishida:

Agar bor ersa poklik niyati,  
Anga yor o'lur poklik hammani.

Shunday ekan, nutqning go'zal, latofatli, ma'nodor va olivjanob bo'lishi uchun, kishining o'zi tabiatdan ana shu fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Ayrim kishilar chiroyli so'zlarni qatorlashtirish, balandparvoz jumlalar tuzish bilan nutq madaniyatiga erishmoqchi bo'ladilar. Afsuski, bunday intilishlarning oxiri hamisha voy va nutqida soxtalikdan boshqa oqibatga olib kelmaydi. Nihoyat shuni aytib o'tish joizki, faqat san'atkor emas, balki har bir ongli kishi yuksak nutq madaniyatini egallashi lozim. San'atkorlar esa o'z-o'zidan bu sahnada hammaga namuna bo'lishlari lozim. Badiiy barkamol, yuksak nutq madaniyati darajasidagi sahna asarlari yaratish uchun kundalik turmushda ham yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lish lozim.

### ADABIY TALAFFUZ HAQIDA

Ma'lumki, o'zbek tili eng ko'p shevali tillardan biri hisoblanadi. Bu esa, adabiy talaffuz masalasiga yondoshganda nihoyat ehtiyyot bo'lishni talab qiladi.

San'at ahli adabiy tilning ilg'or targ'ibotchilari hisoblanadilar. Shuning uchun ham radio va televide niye bilan birligida sahna nutqi ham o'zbek adabiy tili normalariga qat'iy rivoja qilgan eng namunali nutq bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham sahna nutqiga jiddiy e'tibor berilishi lozim. Chunki sahna nutqi ommaviy nutq madaniyatini tarbiyalashda eng ta'sirchan omillardan biri hisoblanadi.

San'atkorlarning to'g'ri adabiy talaffuz normalari bilan qurollanishlari yana shuning uchun ham muhimki, aniq talaffuz sahna asarining g'oyaviy-badiiy darajasiga yaqqol ta'sir etadi. Teatr san'atining millionlardan iborat ommani tarbiyalovchi muhim vosita ekanligini hisobga olganda, san'at ahli zimmasiga tushadigan bu ma'suliyat yanada oshadi.

O'zbek teatrlarida sahna nutqining hozirgi saviyasini hali hozircha to'la-to'kis talabga javob bermasligining qator sabablari bor. Ulardan ba'zilari ustida fikr yuritamiz.

#### 1. Mas'uliyatsizlik.

Ma'lumki, cholg'uchi, ashulachi yoki raqqosa san'atini mashaqqatsiz tasavvur etish mumkin emas. Bu san'at ahli har kuni, muntazam mashq qildilar. O'zlarining san'atkorlik ifoda vositalarini o'stirib boradilar. Ba'zi aktyorlar esa, ish soatidan

tashqari deyarli hech qanday professional mashq bilan shug'ullanmaydilar. Ular o'z nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etishga, nutqning ifoda vositalarini boyitish va takomillashtirishga urinmaydilar. Natijada aktyorlarning san'ati o'tmaslashib, qolip tusiga kiradi. Oqibatda ijodiy izlanishdan mahrum bunday «san'atkorning» Gamleti ham, Alisher Navoiysi ham, Boburi ham, Farhod-u Majnuni ham bir xil tilda gapiradi va inqiroz sari boshlovchi qolipga kirib qoladi. Bunday nuqsonlarning oldini olishning birdan-bir to'g'ri yo'lli san'atda mas'uliyatsizlik va befarqlikka mutlaqo barham berish hamda aktyorlik mahorati asoslarini egallahishini yo'lga qo'yishdan iboratdir.

## 2. Shevachilik.

Ta'kidlanganidek, o'zbek tili shevalari o'rtasida keskin farq mavjud. Shunga qaramay, ko'pchilik aktyorlar mahalliy shevada yoki o'sha maylida gapiradilar. Natijada adabiy til normalari nuqtayi nazaridan qaraganda taajjublanarli va eng muhimi, san'atga mutlaqo yot bo'lgan mavhumlik hollari ro'y beradi.

Masalan, **a) Qarshi shevasi:** Bozom u og'ir odam, bir ayttim, nimadi, bo boddim, ha padalla'nat, bozonom yamonlug' qilasanmi? (Yana ham og'ir odam, bir aytdim kelmadni, yana bordim, ha padarla'nat, yana ham yomonlik qilasanmi?)

**b) O'sh shevasi:** Biram anqan ketdim (Biram chanqab ketdim). O'ziga arag' beradi (O'ziga oro beradi). Kosaga nondi bo'xsa (Kosaga nonni bos, to'g'ra). Ko'yngi suncha garazon? (Ko'ylagi muncha kir?). Muncha mondaylama (Muncha vaysama). Arig'dan ahladim (Ariqdan sakradim). Tarinmang (Xafa bo'lmang). Kosada to'ldir qatig' (Kosa to'la qatiq) va h.k.

**v) Toshkent shevasi:** Biza mayliska boriylik (Biz majlisga boraylik). Poshshoni jahli chiqdi – chumoli daryoni tegidagi yoolliy xumchaga aylanishin nima qiladi, bu juvoping koni ahmoqlik dip jallod chaqiri pti (Podshohning jahli chiqib, «chumoli daryoning tagidagi yog'liq xumchaga aylanishib nima qilardi, bu javobing koni ahmoqlik» deb jallodni chaqiribdi). Boshimni boqip qoy, qizim dipti. g'iz kampirni boshini boqvotkanakan, mushugi kep, kampirri chochini o'ynavuri pti. Mushugin maqivotti, dipti kampir. Sizzi chochiyazı yaxshi korip o'ynavotti, dipti qiz. (Bishimni

boqib qo'y, qizim, debdi. Qiz kampirning boshini ko'rayotgan ekan, mushugi kelib, kampirning sochini o'ynay beribdi. – Mushuging nima qilyapti, – debdi kampir. – Sizning sochingizni yaxshi ko'rib o'ynayapti, – debdi qiz).

**g) Buxoro shevasi:** Soro, inokni sog'in bo'ldingmi? (Sora, sigirni sog'ib bo'ldingmi?). Bachcha gavoraga yig'lapti, onasi kera ketti? (Bola beshikda yig'layapti, onasi qayerga ketdi?). Yomg'ir yag'ip turpoq loy boyon (Yomg'ir yog'ib turpoq loy bo'lgan). Memollo kelli choqi (Mehmonlar keldi chog'i). Otam qarri, hej qayerga ishlamayla (Otam qari, hech qayerda ishlamaydilar). Balli senga, mexni qoporib olling (Balli senga mixni sug'urib olding).

**d) Xorazm shevasi:** Bu erni tiyinnan ilan yuryanini biladi (Bu ernen tagidailon yurganini biladi). Ayaqi pishken tuuqdym bolip duripti (Oyog'i kuygan tovuqday bo'lib turibdi). Ag'zinggagayanin so'llayverma, artiqmachi boshingga deyedi (Og'zingga kelganini gapiraverma, ortiqchasi boshingga tegadi). Sanga chay vermakaam qorqaman, kasani yutubyarmasang dap (Piyolani yutib yubormasang deb, senga choy berishga ham qo'rqaman). Navdisan, it qisdag'da bitqistag' ataverma (Nima deysan, hadeb qistayverma).

Adabiy talaffuz normalariga mutloqo qarama-qarshi bo'lgan bunday hollarni istagancha keltirish mumkin. Teatrlarda esa shevachilikka sira-sira yo'l qo'yish mumkin emas.

### 3. O'zboshimchalik.

So'z san'atkorlari, ayniqsa aktyorlarning nuqsonlaridan yana biri bu o'zboshimchalikdir. Gap shundaki, ba'zi ijrochilar rolini yoki matnni o'zlashtirishni mutlaqo boshqacha tushunadilar. Natijada bema'ni «o'zlashtirish» boshlanadi va turli davr, xarakterga ega bo'lgan matnlar bir xilda talqin va talaffuz etila boshlaydi.

O'zboshimchalik nuqsoni dramaturgiya materialiga bo'lgan befarq munosabatda yaqqol ko'rinadi. Albatta ayrim pesalar tilining pishiq emasligi sahna asari va sahna nutqi saviyasiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Biroq bu hol aktyorning zimmasiga tushadigan mas'uliyatni soqit qilmaydi.

O'zboshimchalikka o'rgangan san'atkorlar matnni o'zlashtirishni o'z shaxsiy tabiatiga moslashtirib olish deb tushunadilar.

Bu mutlaqo xato, chunki shunday qilganda jahon madaniyatining noyob durdonasi bo'lgan ajoyib asarlarni nutqi ojiz aktyor o'z imkoniyatiga moslashtirishga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Ko'p vaqtarda o'zboshimcha «o'zlashtirish»ning oqibati ana shunday bo'lib chiqadi ham.

O'zbek teatrlarida bunday noo'rin o'zlashtirish kasalligi oqibati juda yomon. Chunki bunday «o'zlashtirish» jarayoni, asosan, o'sha teatr joylashgan mahalliy shevaga moslashish maylida boradi. Ya'ni ijrochi asar matnini o'z tili qoli piga solib oladi-da, bu bilan, birinchidan, badiiy so'z san'ati barkamolligi va nutq madaniyatiga putur yetkazsa, ikkinchidan, adabiy talaffuz normalari nuqtayi nazaridan qaraganda, sahna asarining g'oyaviy-badiiy saviyasiga salbiy ta'sir etadi. Chunki ayrim so'zlarning mazmuni turli shevalarda o'zaro tubdan farq qilish natijasida turlichay, qaramaqarshi natijalarga olib keladi. Masalan, Toshkentda **achchichuv** yoki **achuv-chuchuv** desalar, shuning o'zi Farg'ona va Andijon shevalarida **shakarob** deyiladi. Shuningdek,

Toshkentda – dovuchcha, Andijonda – g'o'ra,

Toshkentda – chittay, Farg'onada – jinqarcha,

Toshkentda – arg'imchoq, Andijonda – hayunchak

Toshkentda – go'shang, Farg'onada – chimildiq

Toshkentda – chaqaloq, Farg'onada – buvak(cha)

Toshkentda – pamildori, Farg'onada – patinjon

Toshkentda – beda, Andijonda – yo'ng'ichqa

Toshkentda – tuxum, Farg'onada – moyak

Toshkentda – so'ta, Farg'onada, Andijonda – mardak

Toshkentda – narvon, Farg'onada, Andijonda – shoti va h.k. kabi talaffuz etiladigan so'zlar guruhi matnga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritা berish natijasida, mutlaqo tushunmov-chilikka olib keladi. Shuningdek, «obro'» so'zining Farg'ona shevasida *avrik*, Andijonda *avriy*, adabiy tildagi *makhram*, *chaqaloq*, *kir*, *namuna*, *mukka*, *po'pisa*, *o'tkir*, *to'nkash*, *to'da*, *suzmoq* kabi so'zlarning O'sh shevasida *bikam*, *buvak*, *garazon*, *gula*, *dum*, *iddaho*, *iktir*, *yo'xtash*, , *usmoq* tarzida talaffuz etilishi mahalliy shevalar uchun naqadar xos bo'lsa, adabiy talaffuz normalari uchun shu qadar yotdir.

Afsuslanarli joyi shundaki, ayrim san'atkorlar yuqoridagi «o'zboshimchilik»dan iborat «o'zlashtirish»ni ma'qullaydilar. Bunday haybarakallachi san'atkorlar o'z da'volarini: «axir, mahalliy sheva va shu sheva maylidagi talaffuz mahalliy kishilarga yaqinroq, tushunarliroq-ku», deb isbot qilishga urinadilar. Albatta, bu qabildagi «san'atkorlar» san'atning tarbiyalovchi quadratini, ijtimoiy ta'sirini to'la tushunmasliklari natijasida shunday qiladilar. Bunday da'veoning xato ekanligini tushuntirish uchun mahalliy gazetalar ham shevada emas, balki adabiy tilda chiqishiga qat'iy rivoja qilishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Aks holda adabiy o'zbek tiliga katta putur yetkazish mumkin.

Masalaning yana boshqa bir tomoni ham bor. Bu rejissyorlarning faoliyati bilan bog'liq. Ayrim rejissyorlarimiz tomoshabin e'tiborini tortmoqchi yoki uni hayratda qoldirmoqchi bo'lib, ko'proq sahna bezaklariga, kostyum va grimga zeb beradilar, u asosiy narsani, ya'ni asar mazmunini ochuvchi va uni tomoshabin yuragiga yetkazuvchi so'z, nutq, talaffuz masalalarini e'tibordan chetda qoldiradilar. Bunday rejissyorlar aktyorlarning so'z san'atiga, talaffuzdag'i normalikka e'tibor bermaydilar. Natijada ba'zi «talantli» improvizatorlar, o'zboshimcha artistlar muallif matniga sovuqqonlarcha munosabatda bo'lib, o'zlaricha «qo'shimchalar» kiritib, asar mazmunini «to'ldiradilar». Tomoshabinni «kuldirishga» berilib, mazmun talab qilmagan yerda boshqacha aksent bilan gapiradilar, so'zlarni buzadilar, takrorni kuchaytiradilar. Bu hol asarni soxtalashtiradi. Uning g'oyasiga putur yetkazadi, tinglovchiga, tomoshabinga salbiy ta'sir qiladi. Bunday soxta, yolg'ondakam «ijodkorlik»ning oldini olishda esa, teatrning zabardast ijodiy hukmroni bo'lgan rejissyor o'z tarbiyachilik, muallimlik rolini o'ynashi lozim.

Xullas, badiiy ijod mantiqdan chekinishni, o'zboshimchilikni yoqtirmaydi. Aslida, o'zboshimchilik – mantiqsizlikdan iborat bo'lganligi uchun ham unga san'at dargohida o'r'in bo'lmasligi kerak. Chunki haqiqiy san'at izchil, mustahkam mantiqiylikka asoslanadi. Aslini olganda, buyuk Didro aytganidek, «nima uchun aktyor shoir, rassom, notiq va sozandan farq qilishi kerak?» Shunday ekan, so'z ijrochisi ham o'zi yaratayotgan san'at asariga g'oyat

talabchanlik bilan yondoshmog'i shart va san'at dushmani bo'lgan o'zboshimchalikka sira-sira o'rinn bermasligi kerak.

#### **4. Arzimas nuqsonlar.**

Ijrochilik nutqida shunday «arzimas» nuqsonlar ham uchraydiki, ular dastlab qaraganda, kishi e'tiborini unchalik o'ziga tortmaydi ham. Biroq ana shunday arzimas nuqsonlarning oqibati g'oyat achinarlidir. Shuni aytish kifoyaki, so'z san'atidagi ana shunday arzimas nuqsonlar asar ma'nosining mutlaqo o'zgarib ketishiga olib keladi.

«Arzimas» xatoliklar qatoriga nutqda tovushlarning reduksiyanish qoidasiga rioya qilmaslik, yozma va og'zaki nutq differensiatsiyasini bilmaslik, befarqlik yoki odat tufayli tovushlar o'mini almashtirib gapirish kabi qator hodisalarni kiritish mumkin. Jumladan, o'zbek sahna nutqida juda ko'p uchraydigan hollardan quyidagi hodisalarni ta'kidlash mumkin.

a) **x-h** tovushlarining talaffuzidagi differensiatsiyasini (fargini) bilmaslik. Bu nuqson keng tarqalgan bo'lib, Buxoro va Samarcand viloyatlarini mustasno etganda, boshqa barcha teatrлarda chuqur ildiz otgan. Bu nuqson, **h** undoshining x tarzida talaffuz etilishida namoyon bo'ladi. Natijada quyidagi anglashilmovchiliklar ro'yobga chiqadi:

**Har** — har kim, har qachon, har bir.

**Xar** — eshak.

**Shohi** — mato.

**Shoxi** — daraxtning yoki hayvonning shoxi.

**Hiyla** — aldamchilik, hiyla-nayrang.

**Xiyla** — anchagina ma'nosida.

**Hil-hil** — ezilgan, judayam pishgan ma'nosida.

**Xil-xil** — turliche, har xil ma'nosida.

**Hol** — hol-ahvol ma'nosida.

**Xol** — insonning yuzidagi xol.

b) **f-p.** Bu tovushlar aksariyat bir xilda, ya'ni «P» tarzida talaffuz etiladi. Bu hodisa esa, eng avval nutqdagi ravonlik, musiqiylik, estetik ta'sirchanlikka putur yetkazadi. Qolaversa, so'z va gaplarning mazmunini mutlaqo o'zgartirib yuborishi mumkin.

Masalan:

Faqir – kambag‘al, qashshoq.  
Paqir – suv tashiydigan idish.  
Falak – osmon, koinot.  
Palak – qovun-tarvuzning palagi.  
Sof – toza, musaffo.  
Sop – ketmon yoki boshqa biror bir narsaning sopi, dastasi.  
Fol – fol ochish, rom etish.  
Pol – uyning poli.

v) ayrim hollarda unli tovushlarni o‘zaro farq etolmaslik hodisalari uchraydi. Natijada, xuddi yuqoridaq kabi bir tomonidan mazmun noaniqligi paydo bo‘lsa, gohida sezilarli o‘zgarishlarga-cha borib yetadi. Bunday hodisani, ayniqsa, quyidagi tovushlarda ko‘proq uchratish mumkin:

1. **a-o.** Aksariyat paytlar, ayrim shevalar natijasida «A» tovushining «O» tarzida talaffuz etilishi va aksincha, «O»ni «A» tarzida talaffuz etish hodisalari uchraydi va shu «arzimas» befarqlik oqibatida quyidagi jiddiy nuqsonlar paydo bo‘ladi:

dono – dona  
ammo – omma  
qora – qara  
balo – bolo  
xotin – xatin  
tashish – toshish  
tanish – tonish  
haram – harom  
xalos – xolos  
kafe – kofe

Shuningdek, «katta» o‘rniga «kotta», «aka» o‘rniga «oka», «dala» o‘rniga «tola», «mast» o‘rniga «mos», «ahvol» o‘rniga «axvol» yoki «ovhol» tarzida noto‘g‘ri talaffuz etish hollari uchraydi.

2. **e-i.** Ayrim paytlar «I» tovushining «E» tarzida talaffuz etilishi kuzatiladi. Natijada «ish» bilan «esh», «bir» bilan «ber» so‘zları, «men» bilan «min», «kel» bilan «kil», «elak» bilan «ilak», «e’tibor» bilan «itibor» so‘zları orasida anglashilmovchilik tug‘ilib qoladi.

3. Shunday hodisalar H-U tovushlarida ham kuzatiladi:

o‘y – uy

qo'l – qul  
to'p – tap  
to'yish – tuyish  
ko'mish – kumush  
go'l – gul  
so'z – suz  
ko'z – kuz  
to'n – tun  
o'z – uz va h.k.z.

**Ya – Yo va Ya – E** tovushlarida:

yangi – engi  
yalpiz – yalpiz  
yaylov – yoylev  
yaltiroq – yoltiroq  
yashin – yoshin  
yaxlit – yoxlit  
yarim – yorim va h.k.z.

Agarda, ayrim paytlar ayirish belgisini tushunmaslik natijasida «in'om» so'zining «inog'om», «ne'mat» so'zining «nig'mat», «na'matak» so'zining «nag'matak», «e'tibor» so'zini «ixtibor» tarzida talaffuz etilishi; ayrim sabablarga ko'ra «maktab» so'zining «maxtab» tarzida, «tagiga» so'zining «teyiga», «soat» so'zining «sog'at», «baland» so'zining «bolon», «sog'liq» so'zining «soliq», «no'xat» so'zining «noxot», «tovuq» so'zining «tovu» tarzida talaffuz etilishi kabi ko'plab misollar hisobga olinsa, «arzimas» xatoliklar soni shu qadar ko'payib ketadiki, albatta ularning oldini olish zaruriyatı tug'iladi.

Xullas, agar diqqat-e'tibor bilan qaralsa, ijrochilik san'atiga taalluqli bo'lgan nuqsonlar soni shu qadar ko'pki, ular so'z san'atining istiqboli va badiiy barkamolligiga putur yetkazadi. Ulardan qutulishning birdan-bir yo'li esa, tinimsiz mehnat va izlanishdir. San'atshunos olim, akademik Mamajon Rahmonovning yozishicha, bir paytlar ulkan o'zbek rejissyori Yetim Bobojonov bilan dramaturg Komil Yashin o'rtaida bir so'z tufayli kelishilmovchilik kelib chiqqan. Yetim Bobojonov uch kun repititsiyani to'xtatib, o'z uyidan chiqmagan. Keyin ma'lum bo'lishicha, mehnatsevar

bu rejissyor uch kungacha Alisher Navoiy asarlarini varaqlab, ana shu bitta so'zni izlagan ekan. Xo'sh, ulkan san'atkorlar-ku, bitta so'zning ustida necha kunlab izlangan ekanlar, qolgan san'atkorlar nima uchun bunday fazilatlardan mahrum bo'lishlari kerak?! Aksincha, so'z san'ati barkamolligi yo'lidagi izlanishni muntazam o'stirish va badiiy so'z kabi qudratli vositaning yangidan-yangi imkoniyatlarini ochish, estetik ta'sirchanligini oshirish yo'lida muttasil ijodiy mehnat qilish kerak. Zotan, so'z san'atining olyjanob siyosiy-badiiy vazifasi ana shunday jiddiy izlanishni taqozo etadi.

### **BA'ZI ORFOEPIK QOIDALAR**

«Orfoepiya» adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beruvchi predmetdir. Ayniqsa, ommaviy tarbiyaning minbari bo'lgan teatr va umuman so'z ijrochiligi san'atida orfoepiya qoidalarini bilish va unga amal qilish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Afsuski, hanuzgacha bu sohada keng san'atkorlar ommasiga mo'ljallangan biror qo'llanma yo'q. Shuning uchun ham, biz bu yerda o'zimizga ma'lum bo'lgan barcha materiallardan foydalanib, san'atkorlar talaffuzi uchun muhim bo'lgan ayrim qoidalarni tavsiya etishga jazm qildik.

Ma'lumki, imlo (orfografiya) bilan jonli talaffuz o'rtaida ancha-muncha farq bor. Ya'ni yozma matnlar har doim ham qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha talaffuz etilavermaydi.

Aksincha, aksariyat paytlarda nutq tovushlarining reduksiyalanishi, o'rin almashinuvi, bir-biriga ta'sir etishi kabi qator hodisalar tufayli, yozma nutq jonli talaffuzga ko'chganda boshqacha tus oladi. Zotan, ana shu hodisa, ya'ni yozma nutqdan og'zaki nutqning farq qilib turishida, jonli nutqning hayotiyligi, samimiyligi namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, har bir so'z san'atkorlari orfoepik qoidalarni bilish va undan unumli foydalanishga qobil bo'lishi shart.

O'zbek orfoepiyasining barcha qoidalarni qat'iy aniqlab chiqish boshqa tadqiqotchilarining ishi. Shuning uchun ham, quyida keltiriladigan orfoepik qoidalarni oddiy qoidalari, deb ataymiz. So'z ijrochilari hozirgacha ana shu qoidalarga itoat etganlarida ham, nutq jonliligi va adabiy talaffuz me'yorlariga yanada yaqinlashuvida ayrim

ijobiy siljishlar yuz berar, degan umiddamiz. Oddiy orfoepik qoidalar esa quyidagilardan iborat:

1. a) **a** unli *aka, uka, gal, katalak, kapalak, bizga, bo'lgan* kabi so'zlarda yumshoq aytildi;

b) *qanaqa, g'alaba, isirg'a, zag'cha, qarchig'ay, palak, gardish, tomorqa* kabi so'zlarda qattiqroq talaffuz etiladi.

2. a) **o** unli *ostob, olam, olim, oriyat, dono, bahor, ozor* singari so'zlarda cho'zibroq talaffuz etiladi;

b) *obro', bozor, bodom, bodring, sovuq, sovun, soy* kabi so'zlarda esa qisqaroq talaffuz etiladi;

g) *zavod, vagon, poyezd, tonna, futbol, orden* kabi so'zlardagi **o** tovushi o' tovushiga yaqinroq talaffuz etiladi;

d) *direktor, traktor, ekskavator* kabi so'zlardagi **o** tovushi noaniqroq i tovushi maylida aytildi.

3. a) **i** unli *bilan, birga, biroq, sira, tilak, zirak, zira, so'zlaridagi l, r, z* tovushlaridan oldin kelsa, qisqa va bilinar-bilinmas tarzda aytildi;

b) *qiliq, qirq, qirg'ich, xirmon, g'isht* so'zlarida **i** unli *yo'g'onroq* talaffuz etiladi;

v) birinchi bo'g'inda **o'** unli *bo'lgan o'tin, o'ttiz, to'qqiz, ko'mir, o'yin* kabi so'zlarda, oxirgi bo'g'indagi **i** tovushi **u** ga moyilroq aytildi.

4. **e** unli *bel, kel, sher, kech, beda, terak, teran, beshik, terim* kabi so'zlarda xuddi *etak, erka, elak, elat* so'zlaridagi kabi **e** tarzida talaffuz etiladi.

5. **ə** unli tovushi *degan, behi, mehnat, mehmon* kabi so'zlarda **i** tovushiga moyilroq aytildi.

6. **u** unli so'nggi yopiq bo'g'in boshidagi **v** tovushidan keyin kelgan chog'da **i** tovushiga moyilroq aytildi: *g'ovun, tovush, taruz, hovuz* va h.k.z.

7. Ayrim hollarda ikki bo'g'inli so'zlarining ikkinchi yopiq bo'g'inida qisqaroq aytildigan **u** yoki **i** unli kelsa, egalik qo'shimchasi qo'shilganida ikkinchi bo'g'indagi **u** yoki **i** unli tushib qoladi: *qorin-qorni, burun-burni, og'iz-og'zi* va h.k.z.

8. a) **b-d** jarangli undoshlari so'z oxirida kelganda **p-t** tarzida aytildi. Masalan: *maktab(p), tartib(p), targ'ib(p), kitob(p), maqsad(t), obod(t), ozod(t)*.

b) *xon*, *-chan*, *-siz* qo'shimchalari oldidan kelgan jarangli b undosh tovushi jarangsiz p tovushi kabi aytildi: *talab(p)chan*, *tartib(p)siz*, *kitob(p)xon*.

9. a) n tovushi *qorong'i*, *qo'ng'iz*, *qo'ng'ir*, *ko'lanka*, *alanga* so'zlarida q,g',k,g undoshlari oldida kelganda ng tovushi tarzida aytildi.

b) *shanba*, *yakshanba*, *aylanma*, *yonma-yon*, *sunbul* kabi so'zlarga b, m tovushlaridan oldin kelgan n tovushi m tarzida aytildi.

10. ch tovushi t undoshidan oldin kelsa sh tarzida aytildi. Masalan: *uchta-ushta*, *pochita-po'shta*.

11. a) ' (ayirish belgisi) unli tovushdan keyin kelgan bo'lsa, o'sha unli cho'zibroq talaffuz etiladi. Masalan: *ma'no*, *ta'na*, *ta'sir*, *va'da*, *ta'rif*, *me'yor*.

b) ayirish belgisi undosh tovushdan so'ng kelsa, ovoz bir oz tutilib, unli undosh tovushlarni ayirib talaffuz etiladi. Masalan: *jur'at*, *sur'at*, *san'at*, *qit'a*, *mas'ul*;

v) ayirish belgisi talaffuzidagi talablarga rioya qilish shart, chunki uning tushib qolishi so'zning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Masalan: *she'r-sher*, *ta'na-tana*, *sur'at-surat*, *da'vo-davo*, *sa'va-sava*.

12. a) q undoshi bilan tugallanuvchi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ko'pincha q tovushi g' tarzida talaffuz etiladi. Masalan: *o'rtoq-o'rtog'im*, *boshliq-boshlig'im*, *taroq-tarog'im*, *tayoq-tayog'im*.

v) q undoshi bilan tugallanuvchi bir bo'g'inli so'zlar esa bu qoidaga bo'ysunmaydi va aslicha talaffuz etiladi. Masalan: *o'q-o'qi*, *to'q-to'qi*, *taq-taqqin*.

g) *ittifoq*, *huquq* kabi so'zlardagi q undoshlari ham talaffuzda o'zicha qolaveradi. Masalan: *ittifoqi*, *huquqi*.

13. a) k undoshi bilan tugallanuvchi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k tovushi g tarzida talaffuz etiladi. Masalan: *bilak-bilagim*, *tilak-tilagim*, *elak-elagim*, *uzuk-uzugim*.

b) k undoshi bilan tugallanuvchi bir bo'g'inli so'zlar esa bu qoidaga bo'ysunmaydi va k tovushi aslicha talaffuz etiladi. Masalan: *tok-toki*, *nok-noki*, *ko'rk-ko'rki*.

v) *idrok*, *ishtirok* kabi ayrim so'zlardagi k undoshi ham o'zicha qoladi.

14. a) **x** va **h** harflari ayrim-ayrim undosh tovushni ifoda qiladi. Ularning yozilishi ham, aytilishi ham bir-biriga o'xshamaydi. **h** tovushi **x** tovushiga nisbatan yumshoqroq aytildi. Masalan: *xalq-mahkam, paxta-suhbat, xayol-holva*.

b) **x** va **h** tovushlarining almashishi so'zning ma'nosini butunlay o'zgartirib yuboradi. Masalan: *shox-shoh, uxladi-uhladi, xol-hol*.

15. a) ba'zan so'z oxirida har xil undoshlarning so'ngisi talaffuzda tushib qoladi. Masalan: *do'st-do's(t), g'isht-g'ish(t), artist-artis(t)*.

16. a) urg'usiz bo'g'indagi unlilar ko'p vaqt kuchsizlanadi. Masalan: *bilan, pishgan, bilak, bilim, bilimdon*.

b) so'z o'rtasidagi urg'usiz unli esa bilinar-bilinmas darajada aytildi yoki butunlay aytilmaydi. Masalan: *matematika, telefon*.

17. Yonma-yon kelgan bir xil qo'sh undosh aniq talaffuz etiladi. Masalan: *avval, ammo, do'ppi, arra, etti, sodda, ikki, chaqqon, pilla, izzat* va h.k.z.

---

## DIKSIYA

Sahna nutqi sahnadan turib aytiladigan so‘zdir. So‘z esa tafakkur xazinasining ko‘zgusi bo‘lib, u faqat fikrni ifodalash vositasigina bo‘lib qolmasdan, balki qahramonning ichki dunyosini faol ifodalaydigan asosiy omil hamdir.

Qahramonlarning fikran to‘qnashuvlarida va boshqalarning taqdiri uchun kurashda, nihoyat, muddaoga erishishda so‘z asosiy qurollardan biridir.

Bitta so‘z olamni vayron qiladi,  
Bitta so‘z qo‘rqoqni polvon qiladi.

*Jaloliddin Rumi*

So‘zning ma’nosи qanchalik aniq va o‘tkir bo‘lsa, shunchalik ta’sirchan bo‘lib, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham avvalo ijrochidan so‘zga katta mas’uliyat va nozik did bilan qarashni talab etadi.

Nutqni yuksak badiiyat, nafis san’at darajasiga ko‘taruvchi manbalar tizimi mavjud. Bu — ovoz, nafas, talaffuz manbalari bo‘lgan og‘iz bo‘shlig‘i, lablar, tishlar, til, burun yo‘laklari, qaytarg‘ichlar (rezonatorlar), tomoq, ovoz paychalari, o‘pka yo‘lagi (kekirdak, bronx), o‘pka, havo bo‘shliqlari, diafragma pardasi kabi qator tana a’zolaridan iborat. San’atkorlar bilan san’-atkor bo‘lmagan kishilar o‘rtasidagi muayyan farq ham shundaki, haqiqiy san’atkorning har bir a’zosi, xususan, nutq organlari ongli ravishda o‘ziga bo‘ysunadi va zarur bo‘lganda kerakli ton, zaruriy notaga sozlanadi. Bunday mukammallikka erishmoq uchun esa insoniyat tarixiy taraqqiyoti va xususan, san’at tarixiy taraqqiyoti jarayonida ishlab chiqilgan, amalda sinovlardan o‘tgan va butun dunyo miqyosida tan olingan jismoniy va psixologik mashqlar tizimi (sistemasi) mavjudki, ular san’at tilida «nutq texnikasi» deb ataladi.

Teatr san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan sahna nutqi bir necha muhim tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Bu nuqtayi nazardan sahna nutqi fani ikki qismiga bo‘linadi.

1. Sahna nutqi texnikasi.

2. Badiiy o'qish.

Sahna nutqi texnikasining o'zi ham bir-biriga o'xshamagan, lekin o'zaro aloqador, bir-birini to'ldiruvchi qator tarkibiy qismlardan iborat.

Bular:

1. Artikulyatsiya.

2. Diksiya (talaffuz).

3. Orfoepiya.

4. Nafas.

5. Ovoz.

Nutq texnikasini puxta egallamay turib, tinglovchi yoxud tomoshabin ruhiyatiga singish, unga ta'sir o'tkaza olish aslo mumkin emas. Demak, har bir so'z san'atkori uzlusiz mashqlar tizimi orqali nutqini o'z ifodasiga so'zsiz bo'ysunishini ta'minlashi kerak. Ana shundagina uning so'zi aniqlik, mukammallik va badiiy ta'sirchanlik sifatlariga ega bo'ladi. Nutq texnikasini o'zlashtirish talabidan sabr bardosh, mehnat, ko'p o'qish va izianishni talab etadi.

Talabalar nutqini takomillashtirish omillaridan biri shuki, nutq ravon, aniq va ommabop bo'lishi keraklidir. Nutqning aniqligini ta'minlashda ma'lum shart va sharoitlar bor. Shulardan eng muhimlari tubandagilardir: yagona adabiy talaffuz qonun-qoidalariga amal qilish, nutq tovushlarining paydo bo'lish o'rnlari va usullarini bilish, nutq jarayonida yuz beradigan organik va noorganik kamchiliklarni hisobga olib, ularni bartaraf etish, nutq san'atiga alohida ahamiyat berish va boshqalar.

Adabiy talaffuz yagona umumxalq adabiy tilining qonunlariga mos ravishda so'zlash, og'zaki nutqning bir xilligini ta'minlovchi qoidalar to'plami demakdir.

Fan tilida adabiy talaffuz – **orfoepiya** termini bilan yuritiladi.

Adabiy talaffuz bayon etilgan nutqning tinglovchiga yengillik bilan yetib borishiga imkon beradi. Shu jihatdan talaffuz aniqligi, ayniqsa, madaniyat va san'at xodimlari uchun katta ahamiyatga egadir.

Adabiy tilning qonun-qoidalarini puxta egallab olgan, orfoepiya normalariga to'la amal qilgan talabagina o'z nutqining ravon, o'tkir va ta'sirli chiqishiga, chuqur his va hayajonning ifodali bo'lishiga erisha oladi.

Aksincha, yagona adabiy talaffuz qoidalaridan chetga chiqish va mahalliy sheva, dialekt asirligida qolib ketish tinglovchida so‘zlovchining nutqi va san’atiga e’tiborsizlikni kuchaytiradi, notiqning fikrini tumanlashtiradi, anglashilmaydigan holga keltiradi.

Anatomiya va fiziologiya fanlarining ko‘rsatishicha, nutq tovushlari o‘pkadan chiqqan nafasning tovush psychalarini titratib o‘tishidan paydo bo‘ladi. Tovush psychalarining titrashi natijasida paydo bo‘lgan tovush og‘iz va burun bo‘shliqlariga nafasning erkin yoki tutilib o‘tishida turli vaziyatlarga kiradi va nutq tovushining ma’lum xilini vujudga keltiradi. Og‘iz bo‘shlig‘i va ikki lab orasida harf hech qanday to‘singga uchramasa unli tovushlar, to‘singga uchrasha, undosh tovushlar hosil bo‘ladi.

Nutq tovushlarining paydo bo‘lishida tovush psychalari bilan bir qatorda, boshqa nutq organlari, chunonchi, jag‘, og‘iz va burun bo‘shliqlari, lab, til, tish, qattiq tanglay, yumshoq tanglay, kichik til katta o‘rin tutadi. Lab va tilning xizmatlariga ko‘ra unli va undosh tovushlar har xil shaklga kiradi.

Tilning yotiq harakatida til orqaga tortilishi natijasida qattiq, oldinga surilishi natijasida yumshoq unlilar vujudga keladi. Tilning tik harakatida tilning yuqoriga ko‘tarilishi natijasida tor, tushirilishida keng unli paydo bo‘ladi. Labning orqa tomon tortilishida lablangan, oldinga harakat qilishida esa lablangan unlilar yuzaga keladi.

## **Unli tovushlar**

Unlilar so‘zning ko‘rki, lazzati.

*Mannon Uyg‘ur*

Nutqimizning ravon va ohangdor bo‘lishida unli tovushlarning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun texnik mashqlarda unli tovushlar talaffuziga alohida diqqat qilish va ular ustida maxsus ish olib borish zarur .

Diksija – nutq tovushlarining talaffuz etish me’yori. Diksion mashqlar – nutq tovushlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish, talaffuzni aniq va yorqinlashtirish maqsadidagi mashqlar.

Hozirgi zamон о‘zbek tilidagi 6 ta unli fonema – i, e, a, o, o‘, u yozma shaklini olgan. Ammo talaffuz paytida bu fonemalar o‘ziga

xos turli variantlarga ega bo‘ladi. Ularni mukammal o‘rganish va oralaridagi farqlarini bilish uchun talabalar bilan ko‘proq amaliy ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, lablanmagan til oldi **I** unli hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘rniga ko‘ra **bil**, **til** kabi so‘zlarda yopiq va juda qisqa yoki **bilimi**, **timim** kabi so‘zlarida bir muncha keng va ochiqroq yoxud **muhim**, **muhit** kabi so‘zlarda uzun aytigani kabi. Bu hol boshqa unlilarda, chunonchi, lablangan til oldi o‘ unlisida ham uchraydi.

Har bir tovushning hosil bo‘lish o‘rni va vaziyati lo‘nda va sodda qilib tushuntirilishi lozim. Masalan: i tovushini to‘g‘ri talaffuz etish uchun iljayish vaziyatini hosil qilish kerak. So‘ngra urg‘usiz asta talaffuz ettirilib tekshiriladi. Bu talabga binoan, har bir talabada i tovushining sof va to‘g‘ri bo‘lishi qulaylashadi. Bu tovushlarning so‘zlarda variantlarini aniqlash va oralaridagi farqlarini bilish mutlaqo zarurdir. Bunda asosiy e’tibor **i**, **a**, **o‘**, **u** fonemalariga qaratiladi.

Quyidagi so‘zlarning o‘qilishiga e’tibor qilinsa, har bir unlilarning varianti va ularning farqi aniqlanadi.

## I

Kir – qir  
Ish – qish  
Siyrak – sirg‘aluvchi

## U

Umuman – uyda  
Quruq – kuvrak  
Quroq – kurak

## A

Qalam – karam  
Taxta – kamalak  
G‘altak – gazmol

## O‘

O‘rish – o‘rish (sochni, o‘tni)  
O‘t – o‘t (olov, maysa)  
O‘tqaz – o‘tqaz (ko‘chat o‘tqazish, ignagaip o‘tkazish)

Unli fonemalarning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida kelishiga qarab o‘rnini aniqlash.

**I** - iltijo, gilos, o‘qidi  
**E** - ertak, terak, ehe  
**A** - archa, barcha, dara  
**O** - olma, bodom, oro

**O'** - o'tloq, bo'g'ot, obro'

**U** - urg'u, suv, ko'zgu

**I** - ijro, giyoh, ko'rdi

Unli toyushlar yuzasidan bu amaliy yondoshish talabalarda sof talaffuz uchun kurashning asosiy omillaridan biridir. Ularni qay xilda imtihonga olib chiqish har bir yondoshuvchining hukmiga havola. Adabiy talaffuz qonunlari va qoidalariga amal qilgan holda unli toyushlami aniq talaffuz etish uchun Toshkent, Namangan, Qo'qon, Andijon va Xorazm shevalaridan namuna keltirsak, adabiy talaffuz oydinlashadi.

### Toshkent

<i>To 'g'ri</i>	<i>Noto 'g'ri</i>
Ayt	Et
Jasur	Josur
Minnatdor	Minnador
Dedim	Didim
Aytolmayman	Etomiman
Umid	Umit
Kumush	Ko'mish

### Namangan

<i>To 'g'ri</i>	<i>Noto 'g'ri</i>
Kelyapti	Kelutti
Ketyapti	Ketutti
U yerda	Eyda
Ana bu yerda	Envayda

### Qo'qon

Olma	Alma
Oyoq	Ayaq
Shu erda	Shatta, ashatta

### Andijon

Qiladigan	Qiladig'an
Bo'lgan	Bo'g'an
Qolgan	Qog'an

### Xorazm

Keldim	Galdim
Ketdim	Gattim
O'zingga berdim	Ozinga bardim

Bir tovush o'rniغا ikkinchi tovushni almashtirib ishlatish jiddiy xatolardandir. Yagona adabiy talaffuz qoidalaridan chetga chiqish va mahalliy sheva asirligida qolib ketish tinglovchida so'zlovchining nutqi va san'atiga e'tiborsizlikni kuchaytiradi. O'zbek xalqi yagona adabiy til bilan bir qatorda mahalliy shevada ham gaplashadi. Sheva xususiyatlari ayrim joylarda ham kuchli saqlanib qolgan va bu hol uzoq davom etadi. Bu xususiyatlar turlicha: *oyoq so'zini ayaq yoki ayag', olma, bola so'zlarini alma, bala, yangi so'zini engi tarzida talaffuz etish.*

Unli tovushlarni mustahkamlash uchun matnlardan foydalanish mumkin. Quyida matnlar namunasini keltiramiz:

### I

Hoy, biz edik, biz edik,  
O'ttiz ikki qiz edik.  
Bir taxtaga tizildik,  
Bitta, bitta uzildik.

*/Topishmoq/*

Keldi, bahor, gul bahor  
Erib bitdi oppoq qor.  
Uchib keldi qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon.  
Suvlar oqar shildirab,  
Yulduz boqar mildirab,  
Chumolilar yayrashar,  
Sho'x bulbullar sayrashar.  
Quyosh nurlarin sochdi,  
Atirgul g'uncha ochdi.

*(Sh.Sa'dulla)*

U ochildi tong chog‘ida  
Erka chechak, oy chechak.  
Boychechak deb atadilar,  
Gullar ichra kelinchak.

(*M.Qo’shogov*)

Erta turganning ishi erta bitar.

(*Maqol*)

Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalabdan eplaydi.

(*Tez aytilish*)

Elakka chiqqan xotinning ellik og‘iz gapi bor.

(*Maqol*)

## A

«Hamma narsa menikidir», — dedi zar;  
«Hamma narsa meniki», — dedi xanjar.  
Zar dediki: — «barin sotib olaman»;  
Xanjar dedi: — «barin tortib olaman».

Alla, alla, orastasan,  
Alla, qo‘zim alla.  
Gunohi yo‘q norastasan,  
Alla, qo‘zim alla.

## O

Oltin tojli  
Sultonman.  
Somsa, patir,  
Shirmonman.  
Azizdirman  
Odamga,  
Arzandaman  
Olamga.

(*A.Obidjon*)

Sen balanda — biz pastda,  
Oymomajon, oymoma.

Talpinamiz havasda  
Senga tomon, hoy momo,  
Qo‘yni-qo‘nji g‘aroyib.  
Sir, hikmatga boy momo.

(*N.Parda*)

## H

Qonga kirgan sut bilan,  
O‘zbek tilim, o‘z tilim.  
Ardoqlayman yurt bilan,  
O‘zbek tilim, o‘z tilim

Burro-burro so‘zlayman,  
Kelajagim ko‘zlayman,  
Istiqbolim, iqbolim,  
O‘zbek tilim, o‘z tilim.

(*S.Ochil*)

Qalbda hamon o‘sha yoz-u  
O‘sha ko‘k chashma.  
O‘sha soz-u o‘sha noz-u  
O‘sha karashma.

(*E.Vohidov*)

## U

Boshim egik,  
Majnuntol,  
Majnuntolman,  
Majnuntol.  
Dam olsangiz  
Soyamda,  
Men sizlardan  
Mamnun tol.

(*E.Vohidov*)

Kecha-kunduz  
Uxlayman,  
Meva tugdim  
Gullayman.  
Mevam o'zi  
Gulchadir.  
Tillarangli  
Kulchadir.

(E. Vohidov)

Shevaning fonetik xususiyatini, *bozorga* so'zida *bozorda*, *ishga* so'zini *ishda*, *yig'layapti* so'zini *yag'lavotti*, *oldik* so'zini *oldivuz* yoki *odivuza* tarzida aytish morfologik xususiyatini, *chelak* so'zi o'rnida *satil*, *paqir*, *xurmacha* o'rnida *lapag'* so'zini ishlatalish leksik xususiyatini ko'rsatadi. Bo'lajak rejissyor-talaba nutqida qaysi shahar yoki viloyatdan bo'lishidan qat'iy nazar, mahalliy dialekt talaffuzining har qanday xususiyati aslo bo'lmasligi kerak. Demak talaba adabiy talaffuz qonunlariga to'la rioya qilishi mutlaqo shart. Shundagina tomoshabin, tinglovchilar uning nutqini tez tushuna oladilar.

### Undosh tovushlar

Ma'lumki, undosh fonemalar tovush psychalarining harakati va holatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: *jarangli* va *jarangsiz* undoshlar.

Jarangli undoshlar: **b**, **v**, **m**, **d**, **z**, **n**, **l**, **r**, **j**, **g**, **g'** va jarangsiz undoshlar: **p**, **f**, **t**, **s**, **sh**, **ch**, **s**, **k**, **q**, **x**, **h**. Faqat shovqindangina iborat tovushlar jarangsiz, shovqinga ovoz qo'shilishidan hosil bo'lgan tovushlar jarangli hisoblanadi. Undoshlar orasida shunday tovushlar borki, ularda shovqinga nisbatan ovoz ustun turadi. Bu xil undoshlar **m**, **n**, **r**, **l** sonor hisoblanadi:

Undosh toyushlarning unlilardan ajraladigan muhim xususiyati shundaki, undoshlarni talaffuz etganda o'pkadan chiqqan havo ma'lum joyda ikki nutq orasida to'siqlikka uchraydi. Bu holat undoshlarning paydo bo'lish o'mini maxrajini ko'rsatadi.

O'zbek adabiy tilidagi undoshlar paydo bo'lish o'rinalariga ko'ra beshga bo'linadi:

- 1) lab undoshlari: **p-b, f-v, m;**
- 2) til oldi undoshlari: **t-d, s-z, n, l, r, j-sh, ch-sh, s;**
- 3) til o'rtal undoshi: — **y;**
- 4) til orqa undoshlari bu ikki xil — sayoz til orqa — **k-g;** chuqur til orqa — **q, x, g'.**
- 5) bo'g'iz undoshi: **h.**

Nutqning ravon va aniq bo'lishini ta'minlashda, nutq jarayonida yuz beradigan noorganik kamchiliklarni tuzatishda va shu maqsad uchun nutq organlaridan to'g'ri va to'liq foydalananishda sahna nutqining texnik tomonini o'rgatuvchi mashqlar muhim ahamiyatga egadir. Mashqlar ochiq va yopiq bo'g'inni tashkil etuvchi unli va undoshlar birikmasi yoki alohida bo'g'in, ayrim so'z va so'z birikmalari, gap va matnlar ustida olib borilishi mumkin.

### Undosh tovushlar uchun mashqlar **p-b** undosh tovushlari

**p** — tovushini talaffuz etganimizda havo to'lqini ji slashgan lablarni yorib, portlovchi, jarangsiz lab va lab «p» tovushini hosil qiladi.

**p** — undoshiga unli tovushlarni qo'shib, bo'g'indek talaffuz etish:

1. Pi, pe, pa, po, po', pu, pi.

Ikkinci bo'g'indagi unliklarga urg'u berib talaffuz etish.

2. Pi-pi, pe-pe, pa-pa, po-po, po'-po', pu-pu, pi-pi.

Mashqni mustahkamlash uchun alohida so'zlar birikmasi va gaplar, kichik matnlar tanlash mumkin. Quyidagi mashqlarni bajarganda bo'g'irlarni haddan tashqari cho'zmasdan, birinchi gappacha nafasni bo'lmay, bir nafasda talaffuz etish kerak. Bu mashqlarda lablar juda epchillik bilan harakat qilishi lozim.

3. Pi — pi — pi — pi - pinhon, pilik, pinj, pinak, pilta, piyola.

Pe — pe — pe — pe - peshona, peshvoz, pechak.

Pa - pa - pa - pa — paxta, pand, parizod, payvasta.

Po — po — po — po — porloq, poyonsiz, popuk, poliz, pokiza.

Po' — po' — po' — po' — po'kak, po'stloq, po'stin.

Pu — pu — pu — pu — pushaymon, puxta, pufak.

**b** – undoshini talaffuz etganimizda og‘iz bo‘shtlig‘idan chiqqan havo jiplashgan lablarni qattiq itarib ochadi va shovqin paydo qilib, portlovchi, jarangli lab va lab «**b**» undoshi hosil bo‘ladi.

Urg‘usiz:

4. bi, be, ba, bo, bo‘, bu, bi.

Urg‘u bilan:

5. bi – bi, be – be, ba – ba, bo – bo, bo‘ – bo‘, bu – bu, bi – bi.

**b** – undoshi uchun:

6. bi – bi – bi – bi - biyobon, bilim, biyron, bitim.

be – be – be – be - bezak, beshik, beozor, bejirim.

ba – ba – ba – ba - barno, baho, balo, badavlat.

bo – bo – bo – bo - bobo, bog‘, bog‘bon, bola, botir.

bo‘ – bo‘ – bo‘ – bo‘ -bo‘ston, bo‘tako‘z, bo‘zchi, bo‘za.

bu – bu – bu –bu -bulbul, butun, bultur, burch.

Undosh p–b 4 marta takrorlanadi.

p- b, p - b, p – b ,p - b.

**p** – **b** undoshlarni qo‘shib aytish:

7. pi – bi, pe – be, pa – ba, po – bo, po‘ – bo‘, pu – bu, pi – bi.

8. bi –pi, be –pe, ba –pa, bo –po, bo‘ –po‘, bu –pu, bi – pi.

9. pi – bi – bi – bi – b i p p

pe – be – be – be – b e p p

pa – ba – ba – ba – b a p p

po – bo – bo – bo – b o p p

po‘ – bo‘ – bo‘ – bo‘ – b o‘ p p

pu – bu – bu – bu – b u p p

pi – bi – bi – bi – b i p p

10. bi – pi – pi – pi – p i b b

be – pe – pe – pe – p e b b

ba – pa – pa – pa – p a b b

bo – po – po – po – p o b b  
bo‘ – po‘ – po‘ – po‘ – p o‘ b b  
bu – pu – pu – pu – p u b b  
bi – pi – pi – pi – p i b b

11. pi – bi – b i p p  
pe – be – b e p p  
pa – ba – b a p p  
po – bo – b o p p  
po‘ – bo‘ – b o‘ p p  
pu – bu – b u p p  
pi – bi – b i p p

12. bi – pi – p i b b  
be – pe – p e b b  
ba – pa – p a b b  
bo – po – p o b b  
bo‘ – po‘ – p o‘ b b  
bu – pu – p u b b  
bi – pi – p i b b

Nutq organlarining muayyan qismini faollashtirishga o‘rgatish uchun matnlar.

13. **p** – Yashil yaproq, xush yaproq,  
Zar yaproq, kumush yaproq.

/Mirtemir/

Parizod qip-qizarib pishgan po‘rsildoq patirlarni tandirda yopib,  
Po‘latoylarnikiga yo‘l oldi.

14 **b** – Shu oddiy ko‘z bilan boqmagil, balki,  
Bilim ko‘zi bilan boqqil jahonga.

/Rudakiy/

Zog‘ bo‘lak, bulbul bo‘lakdir,  
Kun bo‘lak, kunduz bo‘lak.

/Durbek/

Bo'ldi bulbul bu bahorda baxtiyor,  
Bulbul sayrar bu bahorda baxtiyor.

/N.Aliyeva/

Bukun o'zgachadir jilvayi olam,  
Bukun o'zgachadir borliqda xanda.  
Bukun ko'zlarimga hatto quyosh ham ,  
Shafaq gulshanida tarang chirmanda.

/E.Vohidov/

*f – v* undosh tovushlari

*f* – undoshini talaffuz etganimizda ustki lab biroz yuqori tortilib, ustki tishlar ko'rindi. Pastki lab esa yuqorigi tishlarga tegib turadi. havo to'lqini tish va lablarning orasidan sirg'alib o'tishi natijasida jarangsiz lab va tish *f* undoshi hosil bo'ladi.

Urg'usiz:

1. Fi , fe , fa , fo , fo' , fu , fi

Urg'u bilan:

fi – fi, fe - fe, fa - fa, fo – fo, fo' - fo', fu - fu, fi – fi

F undoshi uchun:

2. fi – fi – fi – fi - fidokor, fidoi, firoq, fig'on  
fe – fe – fe – fe - fe'l, ferma, feruza  
fa – fa – fa – fa - faqat, falak, fahm,farosan, fazilat  
fo – fo – fo – fo - fozil, foydali, Fotima,Fotih  
fo' – fo' – fo' – fo' - (bunda o'zbek tilida so'z yo'q)  
fu – fu – fu – fu - fuqaro, fursat, Furqat, futbol

3. Fosiqdan hayo tilama,  
Zolimdan – vafo

/maqol/

Fikri ravshanning so'zi ravshan.

/maqol/

Fiksiz odamdan tosh yaxshi.

/maqol/

Bo'tako'zlar saf - safdir,  
O'rtasida sadafdir.

/Sh.Rashidov/.

V – tovushini talaffuz etganimizda lablar oldinga qarab biroz cho'ziladi, labning orasi ochiq bo'lib, bu oraliqdan tovush to'lqini chiqib sirg'aluvchi, jarangsiz lab va lab V undoshi hosil bo'ladi.

Urg'usiz:

4. Vi, ve, va, vo, vo', vu, vi

Urg'u bilan:

5. Vi – vi, ve - ve, va - va, vo - vo, vo' - vo', vu - vu, vi - vi

V – undoshi uchun

6. Vi – vi – vi – vi - visol, vido, viqor, vijdon

Ve – ve – ve – ve - vergul

Va – va – va – va - vaqo, va'da, varaqqa, vasl

Vo – vo – vo – vo - vodiy, voha, voqea, voqif, voris

Vo' – vo' – vo' – vo' - (o'zbek tilida so'z yo'q)

Vu – vu – vu – vu - vujud, vulqon

7. V-Vaq–vaq, vaq – vuq vaqqillashim-vaqtixushligu vaqtichog'ligimdandir, Vizildoq !....

Vaqtimxush, vaq – vaq, vaqtimchog', vaq – vuq !....

Vaqtimxush, vaq – vaq, vaqtimchog', vaq – vuq !....

/«Harflar o'yini» M.Xidir/.

Undosh f-v (4 marta takrorlanadi)

8. F-v, f-v, f-v, f-v

F-v undoshlarining birga qo'shib aytish;

9. Fi-vi, fe-ve, fa-va, fo-vo, fo'-vo', fu-vu, fi-vi

10. Vi-fi, ve-fe, va-fa, vo-fo, vo'-fo', vu-fu, vi-fi

11. Fi - vi - vi - vi - viff

Fe - ve - ve - ve - veff

Fa - va - va - va - vaff

Fo - vo - vo - vo - voff

Fo' - vo' - vo' - vo' - vo'ff

Fu - vu - vu - vu - vuff

Fi - vi - vi - vi - viff

12. Vi - fi - fi - fi - fivv

Ve - fe - fe - fe - fevv

Va - fa - fa - fa - favv

Vo - fo - fo - fo - fowv

Vo' - fo' - fo' - fo' - fo'vv

Vu - fu - fu - fu - fuvv

Vi - fi - fi - fi - fivv

Lab va tish undoshi **f** bilan lab va lab undoshi **p** uchun  
mashqlar.

13. Pi-fi, pe-fe, pa-fa, po-fo, po'-fo', pu-fu, pi-fi

14. Fi-pi, fe-pe, fa-pa, fo-po, fo'-po', fu-pu, fi-pi

15. **P-F** undoshi uchun:

Pi-fi-fi-fi - piff

Pe- fe-fe-fe - peff

Pa- fa-fa-fa - paff

Po- fo-fo-fo - poff

Po' - fo' - fo' - fo' - po'ff

Pu-fu-fu-fu - puff

Pi- fi-fi-fi - piff

16. Fi- pi-pi-pi - fipp

Fe- pe-pe-pe - fepp

Fa- pa-pa-pa - fapp

Fo-po-po-po - fopp  
 Fo'-po'-po'-po' - fo'pp  
 Fu-pu-pu-pu - fupp  
 Fi- pi-pi-pi - fipp

**p** va **f** undoshlarini bir-biriga qorishtirib yubormaslik va ularni to'g'ri talaffuz etish uchun yana misollar keltiramiz.

*To 'g'ri talaffuz*

Farg'ona  
 Fozil  
 Fotima  
 fido  
 fidokor  
 fursat  
 Furqat  
 foyda  
 vafo  
 fuqaro  
 fazilat  
 farzand  
 iltifot  
 sifat  
 fikr  
 farmon  
 insof  
 afandi  
 manfaat

*Noto 'g'ri talaffuz*

Parg'ona  
 Pozil  
 Potima  
 pido  
 pidokor  
 pursat  
 Purqat  
 poyda  
 vapo  
 puqaro  
 pazilat  
 parzand  
 iltipot  
 sipat  
 pikir  
 parmon  
 insop  
 apandi  
 manpaat

*t-d* undosh tovushlari

**t** – undoshini talaffuz etganimizda tilning uchi yuqori tishlarning orqa tomoniga yopishib turadi, tovush to'lqini bu to'siqni yorib chiqishida portlovchi, shovqinli, jarangsiz til oldi t undoshi hosil bo'ladi.

Urg'usiz:

1. Ti, te, ta, to, to', tu, ti

Urg'u bilan:

2. Ti - ti, te - te, ta - ta, to - to, to' - to', tu - tu, ti - ti

3. t - undoshini yana ham puxta aytilishi uchun texnik mashq va misollar.

Ti - ti - ti - ti - tiyrik, tirak, tikon

Te - te - te - te - tetik, terim

Ta - ta - ta - ta - talab, tabassum, tabrik, tanho, talab, tartib

To - to - to - to - totuv, tolib, tol, tomoq, tor

To' - to' - to' - to' - to'rva, to'g'ri, to'plam, to'kis, to'n

Tu - tu - tu - tu - tugun, tushum, turna, tuhfa, tun

Yuqoridagi tovushlarni ravon va aniq talaffuz etish uchun mashqlar:

4. T - undoshini mustahkamlash uchun matnlar:

Tiyonshon tog'ining tagida

Traktor tormozini topolmay,

Tirkachini torta olmay.

Tirillab turibdi.

/G'ayratiy/

Teranlikni qidirmadim ummonlardan,

Insonlardan topdim uni, insonlardan.

Teranlik bu - nur yog'ilgan yuzlardadir,

Teranlik bu - o'ychan boqqan ko'zlardadir.

Teranlik bu - aytilmagan so'zlardadir.

/E. Vohidov/

To'lqinlanib uchar ohista ohang,

To'lqinlanib uchar teran tuyg'ular.

Bir lahza to'xtab qiz sozlaydi tarang,

Ko'zlaridan qochadi og'ir uyqular.

/Mirtemir/

3. **d** – tovushining ham talaffuzi «t» tovushidek, faqat **d** undoshi portlovchi, jarangli til oldi tovushi.

**t** – **d** undoshlarini talaffuz etganda qattiq talaffuz uchun harakat qilish kerak.

4. di – di – di – di - diydor, diyor, diyda  
de – de – de – de - devor, devon, dehqon  
da – da – da – da - daraxt, davlat, dara  
do – do – do – do - dorboz, doston, dovul  
do‘ – do‘ – do‘ – do‘ - do‘lana, do‘sst, do‘xtir  
du – du – du – du - dugona, dutor, dugoh

Urg‘usiz:

7. di, de, da, do, do‘, du, di

Urg‘u bilan

8. Di – di, de – de, da – da, do – do, do‘ – do‘, du – du, di – di

9. **D** undoshi uchun:

Dadamning dadasi – dadamni darmonsiz deb darxonlik Davrondan dori berib darvozagacha kuzatibdi.

10. **T** – **D** undoshlariga unli tovushlarni qo‘shib talaffuz etish  
Ti – di, te – de, ta – da, to – do, to‘ – do‘, tu – du, ti – di.

11. Di – ti, de – te, da – ta, do – to, do‘ – to‘, du – tu, di – ti.

12. Ti – di – di – di - ditti  
Te – de – de – de - dette  
Ta – da – da – da - datta  
To – do – do – do - dotto  
To‘ – do‘ – do‘ – do‘ - do‘tto‘  
Tu – du – du – du - duttu  
Ti – di – di – di – ditti

13. Di – ti – ti – ti - tiddi

De – te – te – te - tedde

Da – ta – ta – ta - tadda

Do – to – to – to - toddo  
Do‘ – to‘ – to‘ – to‘ - to‘ddo‘  
Du – tu – tu – tu - tuddu  
Di – ti – ti – ti - tiddi

### K – G undosh tovushlari.

**k – g** undoshlarini talaffuz etganimizda tilning orqa qismi yumshoq tanglayga tegib, uchi esa pastki tishlarning tagiga tegib turadi.

Ichkaridan kelgan havo to‘lqini bu to‘sinqni yorib, tilni yumshoq tanglaydan ajratish bilan jarangsiz, portlovchi **k** va jarangli, portlovchi **g** undoshi hosil bo‘ladi.

#### 1. **k – g** undoshlari ( 4 marta takrorlanadi)

K – G, K – G, K – G, K – G

Urg‘usiz:

#### 2. Ki, ke, ka, ko, ko‘, ku, ki

Urg‘u bilan:

#### 3. Ki - ki, ke – ke, ka - ka, ko - ko, ko‘ - ko‘, ku - ku, ki – ki

#### 4. Ki -ki-ki-ki-kiyik,kiyim, kichik

ke – ke – ke – ke - kelajak, kema, kechki  
ka – ka – ka – ka - kapalak, kamalak, kamon, kapkir, kanop  
ko – ko – ko – ko - kokil, koptok, kon, Kozim, Komil  
ko‘ – ko‘ – ko‘ – ko‘ - ko‘prik, ko‘ylak, ko‘mir, ko‘ppak  
ku – ku – ku – ku - kulgi, kurak, kuvrak, kuldon, kumush

#### 5. K undoshi uchun matnlar:

Qo‘llarida aso, keksalar,

Yuzlarida ziyo, keksalar.

Dillarida davron sevinchi,

Tillarida duo keksalar.

/E. Vohidov/

Ko'p manzillar ko'zlaganman,  
Ko'p davonlar oshganman.  
Kimlarnidir izlaganman,  
Qaylargadir shoshganman.

/E.Vohidov/

Kipriklarim qo'ng'irmikan yo qora?  
Kipriklarim yuztamikan yoki ming?  
Kipriklarim muncha aziz vasara,  
Ko'zginamning kipriklari.....

/Mirtemir/

Urg'usiz:

6. Gi, ge, ga, go, go', gu, gi

Urg'u bilan:

7. Gi - gi, ge - ge, ga - ga, go - go, go' - go', gu - gu, gi - gi

8. Ki - gi, ke - ge, ka - ga, ko - go, ko' - go', ku - gu, ki - gi

9. Gi - gi - gi - gi - giłam, gilos, girdob, giyoh  
Ge - ge - ge - ge - gerdaymoq  
Ga - ga - ga - ga - gardish, gavhar, garov, gap, gapdon  
Go - go - go - go - gohi, govjum, govmish  
Go' - go' - go' - go' - go'zal, go'dak, go'sht  
Gu - gu - gu - gu - gul, gulzor, gunoh, gumroh, gulxan

10. Ki - gi - gi - gi - gikki  
ke - ge - ge - ge - gekke  
ka - ga - ga - ga - gakka  
ko - go - go - go - gokko  
ko' - go' - go' - go' - go'kko'  
ku - gu - gu - gu - guukku  
ki - gi - gi - gi - gikki

11. gi - ki - ki - ki - kiggi  
ge - ke - ke - ke - kegge  
ga - ka - ka - ka - kagga  
go - ko - ko - ko - koggo  
go' - ko' - ko' - ko' - ko'ggo'  
gu - ku - ku - ku - kuggu  
gi - ki - ki - ki - kiggi

12. **K - G** undoshlariga **P, T** undoshlarini qo'shib talaffuz etish.

Kpti - kpte - kpta - kpto - kpto' - kptu - kpti  
Gbdi - gbde - gbda - gbdo - gbdo' - gbdu - gbdi.

**G** undoshi uchun matnlar

13. Gul - gula, gul bulbul, bulbul gula noz ayladi.  
Damba-dam gul bazmida bulbul gula soz ayladi.

*/Folklor dan/*

O'zing kelmadingu gul yuboribsan,  
Ko'p intizor edim bugun yo'lingga.  
Men uchun gulshandan gul terganingda,  
Tikan kirmadimi gulday qo'lingga?

*/Uyg'un /*

Undosh **q-q** tovushlari

q - jarangsiz, chuqur til orqa undoshini talaffuz etganimizda tilning orqa qismi yumshoq tanglayga tegib jiplashadi. Tovush to'lqini bu to'siqni yorib chiqishida portlovchi, shovqinli q tovushi hosil bo'ladi.

Urg'usiz:

1. Qi, qe, qa, qo, qo', qu, qi

Urg'u bilan:

2. Qi-qi, qe-qe, qa-qa, qo-qo, qo'-qo', qu-qu, qi-qi  
Qi-qi-qi-qi- qizil, qiyomat, qiyofa, qismat, qiyomat, qiyom

Qe-qe-qe-qe- (qe birikmali so'z yo'q)  
Qa-qa-qa-qa- qachon, qadah, qadim, qallob  
Qo-qo-qo-qo- qog'oz, qozoq, qofiya, qoida  
Qo'-qo'-qo'-qo'- qo'zichoq, qo'ng'iroq, qo'zg'almoq  
Qu-qu-qu-qu- quvnoq, qutlov, qumursqa.

3. Qi-qi-qi-qi-qiqqi  
Qe-qe-qe-qe-qeqqe  
Qa-qa-qa-qa-qaqqa  
Qo-qo-qo-qo-qoqqo  
Qo'-qo'-qo'-qo'-qo'qko'  
Qu-qu-qu-qu-quqqu  
Qi-qi-qi-qi-qiqqi

Q undoshi talaffuzini mustahkamlash uchun matnlar:

4. Qaro qoshing, qalam qoshing,  
Qiyiq qayriima qoshing, qiz.  
Qilur qatlimga qasd qayrab-  
Qilich qotil qaroshing, qiz.  
Qafasda qalb qushin qiynab,  
Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan,  
Qarab qo'ygil qiylo,  
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

(E. Vohidov)

Aql vujudingda hokimi mutloq,  
Qalam qalb orqali unga tarjimon.

(G'. G'ulom)

**g'** – chuqur til orqa undoshi. Bu tovushni talaffuz etganimizda til orqaga tortiladi, orqa qismi yumshoq tanglay tomon ko'tariladi, o'rtasida esa tor yorig'lik vujudga keladi. Tovush to'lqini shu yorig'likdan chiqqanda sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli **g'** undoshi eshtiladi.

**g'**-undoshi uchun texnik mashqlar

Urg'usiz:

1. G'i, g'e, g'a, g'o, g'o', g'u, g'i

Urg'u bilan:

2. G'i-g'i, g'e-g'e, g'a-g'a, g'o-g'o, g'o'-g'o', g'u-g'u, g'i-g'i

3. G'i-g'i-g'i-g'i- g'iybat, g'ijim, g'ilof  
g'e-g'e-g'e-g'e- (o'zbek tilida so'z yo'q)  
g'a-g'a-g'a-g'a- g'azal, g'azab, g'alaba, g'alamis, g'amza  
g'o-g'o-g'o-g'o- g'olib, g'ofil, g'oya, g'oz  
g'o'-g'o'-g'o'-g'o'- g'o'za, g'o'zapoya, g'o'r  
g'u-g'u-g'u-g'u- g'ulom, g'ubor, g'urra

q va g' undoshlarini qorishtirib talaffuz etish.

4. g'i-g'i-g'i-g'i-g'iqq  
g'e-g'e-g'e-g'e-g'e-eqq  
g'a-g'a-g'a-g'a-g'aqq  
g'o-g'o-g'o-g'o-g'oqq  
g'o'-g'o'-g'o'-g'o'-g'o'qq  
g'u-g'u-g'u-g'u-g'uqq  
g'i-g'i-g'i-g'i-g'iqq

1. Qi-qi-qi-qi-qig'g'  
Qe-qe-qe-qe-qeg'g'  
Qa-qa-qa-qa-qag'g'  
Qo-qo-qo-qo-qog'g'  
Qo'-qo'-qo'-qo'-qo'g'g'  
Qu-qu-qu-qu-qug'g'  
Qi-qi-qi-qi-qig'g'

q-g' undoshini mustahkamlash uchun matn:

2. G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.  
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish.

(Navoiy)

Shunday qilib, texnik mashqlar ustida har kuni uzlucksiz ravishda ishlash unli va undosh tovushlardan to‘g‘ri foydalanishga yo‘l ochadi. Texnik mashqlarni muntazam ishlab borish natijasi-dagina tildagi mavjud bo‘lgan kamchiliklarni tugatish mumkin. Texnik mashqlar natijasida olingan malakani, hech ham shoshilmasdan, gaplarda va tez aytishlarda diqqat bilan ahamiyat berib, tekshirib borish kerak. Unli va undosh tovushlarning talaffuz etilishda hech qanday nuqson bo‘lmasa, matn ustida ishlashga o‘tish mumkin.

Xullas, sahna nutqi darslarining saviyasini oshirish, aniq maqsadga erishish uchun mazkur shartlar muhim ahamiyat kasb etadi.

---

## NUTQ ORGANLARI VA UNING FAOLIYATI

Nutq – rangbarang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Bu tovushlar oliv asab tizimining signallari asosida, nutq organlarining turlicha harakati natijasida paydo bo‘ladi. Nutqning oliv apparati miyadir. Qolgan qismini uch asosiy bo‘lakka ajratamiz:

1. Havo o‘tuvchi organlar (bronxlar, kekirdak) va o‘pka.
2. Ovoz psychalarini o‘z ichiga oluvchi hiqildaq.
3. Havo bo‘shliqlari (halqum, burun bo‘shlig‘i, og‘iz bo‘shlig‘i).

Bundan tashqari, nutq organlari o‘z o‘rnini va faoliyatiga ko‘ra aktiv va passiv bo‘ladi. Artikulyatsiya paytida eng muhim ishni aktiv nutq organlari: ovoz psychalari, til, yumshoq tanglay, jag‘ va lablar bajaradi. Passiv organlar bo‘lgan tishlar, qattiq tanglay va burun bo‘shlig‘i tovushlar paydo bo‘lishida hissa qo‘shadi. To‘g‘ri hosil etilgan tovushlarga so‘z va jumlalarning to‘g‘ri va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

### Artikulyatsiya mashqlari

Nutq jarayonida talaffuz organlarining turlicha shakllanushi harakatiga **artikulyatsiya** deyiladi. Artikulyatsiya mashqlari asosan, ana shu talaffuz a’zolarini faollashtirish, keyingi ish jarayoni bo‘lgan nutq tovushlarining aniq talaffuzini ta’minlashni ko‘zda tutadi.

1. Yuqori lab mashqi. Yuqori lab bilan yuqori tishlar massaj qilinadi.
2. Pastki lab mashqi. Pastki lab bilan pastki tishlar massaj qilinadi.
3. Yuqori labni tarash. Bunda pastki tish yuqori lablarni taraydi.
4. Pastki labni tarash. Bunda esa yuqori tishlar bilan pastki lablar taraladi.
5. Lablarni cho‘chchaytirish. Bir narsani o‘pmoqchi bo‘lganday lablar oldinga cho‘ziladi.
6. Lablarni aylantirish. Lablar yuqoriga, pastga, o‘ngga, chapga aylantiriladi. Avval sekin, keyin tezlashadi.
7. Tilni iloji boricha oldinga chiqarib keyin asliga qaytarish.

8. Til bilan yuqori lab va pastki lablar massaj qilinadi.
9. Lab bilan o'ng va chap yonoq ichdan turtildi.
10. Lablar yumuq holda til og'iz ichida yuqoriga, pastga, o'ngga, chapga aylantiriladi.
11. Jag'ni oldinga harakat qildirish.
12. Jag'ni ikki yonga harakatlantirish.

Mashqlarni bajarayotganda ortiqcha kuch sarflamaslik, bamaylixotir, qomatni ko'tarib, to'g'ri va erkin o'tirish yoki turish kerak.

### Nafas

Nafas ijrochilik san'ati, ayniqsa badiiy so'z san'atida juda katta ahamiyatga ega. Mustahkam nafas bazasi mavjud bo'lmasa, badiiy so'z yoki, umuman, so'z bilan bog'liq bo'lgan ijrochilik san'ati ko'rinishlarida mantiqiy va badiiy yetuk sahna asari yaratilishi mumkin emas. Shunday jumlalar mavjudki, ular qanchalik uzun bo'lmasin, bir nafasda o'qishni talab etadi. Aks holda, o'rtada olingan nafas va mantiqqa putur yetkazadi yoki mazmunni butunlay o'zgartirib yuboradi. Bunday paytlarda albatta mustahkam nafas bazasiga ega bo'lish shart. Buning uchun uzoq va tinimsiz mehnat talab qilinadi.

Nafas – hayotiy zarurat. Inson organizmi bilan atrofidagi muhit orasida sodir bo'ladigan gaz almaqshinuviga nafas olish deyiladi. Nafas olish organi o'pka bo'lib, tuzilishi jihatidan juda murakkabdir. Chuqur nafas olish sog'liq uchun foydalidir. Kundalik turmushda aksariyat kishilar o'pkaning yuqorigi qismiga nafas oladilar. Bunday nafas olish san'at tilida ko'krak nafasi deyiladi. Shuningdek, qorin nafasi va diafragma nafasi ham bor. Qorin nafasida o'pkaning qorin qismi havoga ko'proq to'ldirilsa, diafragma nafasda havo o'pkaning eng pastki qismlari, diafragma pardasiga eng yaqin joylariga ko'proq to'ldiriladi. Badiiy so'z san'atida diafragmal – aralash, ya'ni chuqur nafas olish tavsiya etiladi.

Tovush bilan bog'liq bo'lgan nafas sonatsion nafas (grekcha «phone» – tovush) deb ataladi. U xarakteri bo'yicha osoyishtalik (sukut) davridagi nafasdan farq qiladi. Fiziologik nafas – uzoqligi

bo'yicha teng bo'lgan, bir maromda almashinadigan nafas olish va nafas chiqarishdan iborat. Fonatsion nafasda esa nafas olish nafas chiqarishdan qisqaroqdир. Shu bilan birga nutq paytida nafas olish nutqimiz tovushlarini shakllantiradigan artikulyatsion apparat va hiqildoq (bo'g'iz) talablariga bo'ysunadi. Qaysi tovush paydo bo'lishiga (yasalishi, tuzilishiga), qanday kuch bilan talaffuz qilinishi kerakligiga qarab, havoning miqdori va kerakli bosimi aniqlanadi.

Demak, nafas tovushning to'g'ri chiqishi va nutqning aniqravshan bo'lishi hamda yaxshi diksiyaning shakllanishi uchun muhimdir.

Nafas bir vaqtning o'zida ovozga quvvat beradi hamda nutqimizda barcha tovushlarning eshitish kuchini avtomatik ravishda to'g'rilaydigan, boshqaradigan mexanizm rolini bajaradi. Masa-lan, **a** va **i** unlilarini navbatma-navbat talaffuz qilib tekshirib ko'rish mumkin:

**i** unlisini talaffuz qilish davrida diafragma kuchlanishi qattiqroq, **a** unlisida esa kuchsizroq.

Nafas ustida ish olib borishdan maqsad diafragma, tomoq va artikulyatsion apparat ishini rivojlantirishdan iboratdir.

Fonatsion nafasning to'rt xususiyati mavjud.

Fonatsion nafasni ko'p olish va chiqarishda mushaklar ishtirot etadi. Nafas olishning asosiy mushaklari diafragma (ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turuvchi a'zo) va ko'krak qafasi qovurg'alarini ko'tarib ikki tomonga suradigan mushaklardir. Nafas olishda asosiy boshqaruva rolini bronxial sistemaning mushaklari o'ynaydi.

Odatda odamlar aralash nafas oladilar, ya'ni bunda ko'krak qafasi ham, diafragma ham ishtirot etadi. Lekin, nafas olish asosan qaysi mushaklar yordamida amalga oshirilishiga qarab u bir necha turga bo'linadi: tepa (o'mrov), **ko'krak nafasi**, **qorin**, pastki qovurg'a – **diafragma** nafasi, **diafragmal** – aralash nafas. Oxirgi nafas olish turi og'zaki nutq uchun qulay. U fonatsion nafasning tezroq mashqini olishga va nafasning chuqurlik, teranlik, balandlik, yaqinlik, tez-tez takrorlanishi kabi sifatlarini ongli boshqarish imkonini beradi.

Ma'lumki, hiqildoqda joylashgan tovush paylari tovush hosil qilish manbaidir. Bo'g'izda hosil bo'ladigan tovush to'lqinlari

bo‘g‘iz atrofidagi havo olib boradigan yo‘llar orqali tepa va pastga tarqaladi va faqat tovush (ovoz) quvvatining ozgina qismi og‘iz orqali tashqariga chiqadi. Ovoz quvvatining asosiy qismi organizmning ichiga singib ketadi. Bu so‘zlovchiga tanish bo‘lgan bosh, ko‘krak, bo‘yin to‘qimalarining tebranishini hosil qiladi.

Ovozni yo‘lga qo‘yish «ovoz apparatining foydali ish koeffiseyenti»ni ko‘tarishdan iborat. Ovoz apparatining foydali ish koeffiseyentini ko‘tarishda fonatsion nafasning yuqorida aytilgan xislatlari asosiy rol o‘ynaydi.

**Chuqur nafas olish** bu pastki qovurg‘a (diafragma) nafas turidir. U chuqur va to‘liq nafas olishga imkon beradi. Bundan tashqari, nafas olishning bu holati, nutq paytida ham yordam beradi. Pastki qovurg‘a – diafragmatik nafasda olinadigan havoning yetarli miqdori diafragmaning faol ishlashi uchun qulay sharoitdir va chuqur nafas nutq uchun eng ma’quldir.

Bo‘g‘izda to‘g‘ri hosil bo‘lgan tovush ovoz rezonatorining tepa bo‘shliqlarida aks-sado olgandan keyin boyiydi, jarangli, ravshan bo‘ladi. Bosh rezonatorining to‘g‘ri nuqtalarida tebranishni his qilish ovoz funkisiysi uchun katta omildir. Baland nafas olishni bilish degani – havo oqimini vertikal bo‘yicha – tepaga (boshga) yuborishni his qila bilishni shakllantirishdir.

**Tez-tez nafas olish** – nutq jarayonida havoni yengil, tez, bilinmaydigan tarzda nafas olishdir. Nafas ustida ish olib borishda bir nafasda ko‘proq so‘z, ibora ayta olish malakasini takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Lekin buni suiste‘mol qilish ham bo‘lmaydi. Chunki ovoz xiralashadi, notejis bo‘ladi, turli modulyatsiyaga (tuslanishga) qodir bo‘lmay qoladi.

Tez-tez nafas nutqning ifodali, jonli vositalarini, ya‘ni intonasjon – ohang, temporitm, pauzalarni yengil boshqarishga imkon beradi, aytilgan so‘zni yanada ta‘sirchan qiladi va qanchalik ko‘proq, tez-tez havo to‘dirilsa, shunchalik nafas olish kaltaroq, bilinmaydigan bo‘ladi, odam bir nafasda gapi rayotganday tuyuladi. Tez-tez nafas olish (bilintirmasdan mohirona havo olish) ijrochilik san‘atida muhim hisoblanadi.

Yaqin nafas – bu bo‘g‘izda tug‘ilgan ovozni nutq tovushlariga (unli va undosh) aylantiradigan omil demakdir. Artikulyasiya apparati

qismlarining biror bir harakati (lablar, til, tanglay, halqum, tomoq, pastki jag' mushaklari) u yoki bu nutq tovushini shakllantirish uchun kerak bo'lgan nafasda albatta aks etadi. demak, diksiyani (talaffuz) mashq qila turib, nafasni esdan chiqrashi mumkin emas. Faqat shu sharoitda artikulyasiyaning aniqligi tomoq va diafragma harakatlarining organik birligi shakllanadi. Agar nutq to'g'ri boshlansa (chuqur nafasda), rezonans bilan boyisa (baland nafas yordamida), ifodali ovoz tusini oladi va tez-tez nafas olish hisobiga aniq-ravshan bo'ladi.

Ovoz ustida ish olib borishdan avval nafas mushaklarini nafas mashqlari yordamida qizitish, tayyorlash foydalidir. Nafas mashqlari yaxshi fizik va psixologik kayfiyat yaratish uchun juda muhimdir. U nafas mushaklarini, ayniqsa diafragmani mustahkamlaydi.

Nafasni mustahkamlash uchun ayrim mashqlarni tavsiya qilamiz.

**1-mashq.** Qomatni erkin tutib, shamni o'chirib qo'ymaslik uchun yengilgina nafas chiqaramiz. 1-2 soniyadan keyin xuddi shunday nafas olinadi.

**2-mashq.** Qo'llarni parallel holda tik ko'tarib, burundan nafas olinadi, tushirayotib nafas og'izdan chiqariladi.

**3-mashq.** Qo'llarni ikki yondan yuqoriga ko'tara turib, burundan nafas olinadi va qo'llarni tushirayotib nafas og'izdan chiqariladi.

**4-mashq.** Engashib nafas olamiz (qo'llar, yelka, bosh bo'shashtiriladi), keyin turib nafas chiqariladi.

**5-mashq.** Qo'llar bilan qarama-qarshi yelkalarni ushlab nafas olamiz, qo'llar yozilib, erkin holda nafas chiqariladi.

**6-mashq.** Stulga o'tirib, oyoq bukiladi va ko'krakka bosgan holda, qattiq quchoqlab olinadi. Shu holatda nafas olinadi va erkin holatga qaytib, nafas chiqariladi.

**7-mashq.** Tik turgan holda nafas olinadi. Keyin tizzalar bukib o'tiriladi (jag' tizzalar ustida) va nafas chiqariladi. Shu holatda nafas olinadi va turgan holda nafas chiqariladi.

**8-mashq.** Erkin nafas olib, uch soniya ushlab turiladi va uch soniya davomida nafas chiqariladi. Bu mashqni 20 soniyagacha ko'paytirib boriladi.

**9-mashq.** Nafas olinadi, to'liq ovozda va aniq talaffuz bilan 5,

10, 15 gacha sanaladi.

**10-mashq.** Yarim ovozda va tez aytish bilan 0-25 gacha sanaladi.

**11-mashq.** Pichirlab, tez aytish bilan 0-10 gacha sanaladi.

**12-mashq.** Ovozsiz, artikulyatsiya bilan 0-20 gacha sanaladi.

**13-mashq.** Galma-galdan 0-5 gacha to‘liq ovozda, 5-10 gacha yarim ovozda, 10-15 gacha pichirlab, 15-25 gacha yarim ovozda tez aytish bilan va nihoyat, 0-25 gacha artikulyatsiya bilan sanaladi.

**14-mashq.** To‘liq nafas olinadi va to‘rt misra she‘r bir nafasda o‘qiladi.

**15-mashq.** To‘liq nafas olinadi uzun misrali she‘r 2 nafasga bo‘lib aytildi.

**16-mashq.** Chalqancha cho‘zilib yotgan holda suqur nafas olinadi va lablarni siqb, ingichka oqim hosil etib puflab chiqariladi.

**17-mashq.** Yengilgina, chuqur nafas olinadi va uch qadam qo‘yib chiqariladi. Keyinchalik mashqni har xil vazifalar qo‘yib o‘zgartirib turish mumkin. Masalan: bir nafasda 2 qadam, 4 qadam, yana 2 qadam, keyin 6 qadam va h.k.z.

**18-mashq.** Undoshlarni talaffuz etganda, butun a’zolar tegishli faoliyatini bajaradi, biroq ovoz qo‘shilmaydi. Ya’ni har bir undosh aniq va ravshan talaffuz etiladi-yu, xuddi gapirishga ilojsiz qolgandek, ovoz qo‘shilmaydi.

Oppoq tumanlarga chulg‘anib yotar,  
Moviy samolarga tutashgan boshing.  
Bu yurtda eng avval senda tong otar,  
Eng keyin tark etar seni quyoshing.

(E. Vohidov)

Shundan keyin mazkur she‘r o‘zi to‘liq ovoz bilan mantiqqa rivoja qilib o‘qiladi.

**19-mashq.** Stulga g‘oz o‘tiriladi. Oyoqlar juft, bo‘yin cho‘zilmaydi, qo‘llar erkin, tizzaga qo‘yiladi. Shu holatdan oldinga egilib, qisqa nafas olinadi va ko‘tarilgan nafas chiqariladi.

**20-mashq.** Tovonlar bir-biriga yaqin turgan holda oyoq uchi qarama-qarshi tomonlarga qaratiladi. Shu vaziyatda oyoq uchiga ko‘tarilib, nafas olinadi, oyoq tushirilib nafas chiqariladi.

## IVOZ MANBALARI VA UNI CHINIQTIRISH

So'z ijrochilarining ovozini tarbiyalash eng muhim masalalardan biridir. Chunki nutqiy ovozning tarbiyasi, bor ovoz imkoniyatlarining tez ishdan chiqib qolishining oldini olish kabi tadbirlar aktyorlik va umuman so'z san'atkorlari uchun g'oyat katta ahamiyatga ega.

Ayrim so'z ijrochilari, o'z ovozlari ustida muntazam ishlab bormasliklari tufayli ifodalı vositaning sehrli imkoniyatlaridan mahrum bo'lib qoladilar. Bora-bora ovoz tembrining (ovozning o'ziga xos sifati) kam ifodaliligi, ovozning xirildoqligi, sof jarangdorligining yo'qolishi kabi salbiy hodisalar ro'y bera boshlaydi. Bunday nuqsonlarning oldini olishning birdan-bir va to'g'ri yo'li ovoz ustida muntazam ish olib borishdir.

Ijrochi ovozini o'z xohishiga tobe etolmasa, ovozi uning irodasi, niyati, hissiyoti va asablariga bo'ysunmasa, tinglovchi-tomoshabin uning nafis hissiyoti va psixologik kayfiyatlarini to'la-to'kis ilg'ab ololmaydi. Bularning barchasi so'z ijrochilari ovozini tarbiyalash masalasi ustida yanada jiddiyroq bosh qotirishni taqozo etadi.

So'z ijrochisi katta diapozonli (ovozning eng past va eng baland darajasi o'rtasidagi hajmi), egiluvchi, yo'lga qo'yilgan ovozga ega bo'lishi kerak. Yanada aniqrog'i, har bir so'z ijrochisining ovozi chidamlilik (charchamaslik), kuchlilik, ravonlik va ifodaviylik xususiyatlari ega bo'lishi lozim.

Ovozni tarbiyalash uchun professional sog'lom ovoz apparati bo'lishi shart. Hatto o'rta darajadagi ovoz imkoniyatlarini kundalik muntazam mashg'ulot yo'li bilan o'stirsa chiniqtirsma bo'ladi. Ovoz organlarining hech qanday davoga imkon yo'q, noqobil holatda bo'lishi professional nomuvofiq ovoz hisoblanadi. Bu o'rinda biror dardga duchorlik, ovoz paylarining bo'shligi, xasta paylar, normal tovush oqimiga xalaqit beradigan, ovoz tembriga ta'sir etadigan darajada ovoz organlaridan birortasining g'ayri-tabiiy (nuqsonli) tuzilishi, g'o'ng'illab gapirish kabi hollarni ko'rsatish mumkin. Bunday hollarda hech qanday ovoz tarbiyalash usullari yordam berolmaydi. Ovozni tarbiyalash, o'stirish va chiniqtirish uchun

ovoz apparatlari mutlaqo sog'lom bo'lishi zarur.

Ovoz musaffoligini saqlab qolishga shart-sharoit yaratuvchi dastlabki gigiyenik talab nafasga rioya qilmaslikdir. Olinadigan nafas organizmni yetarli kislorod bilan ta'minlaydigan hajmda bo'lishi kerak. Loringolog olim M.E.Marshakning aniqlashiga qaraganda, kishi erkin holda 1 daqiqada 6-8 litrdan nafas olib chiqarsa, kuchli jismoniy harakat qiigan chog'da bu miqdor 100 litrdan oshadi.

Ijrochilarning ijodiy va texnik kamoloti yuzaki qaraganda, ijodga sira aloqasi bo'limgan ikir-chikirlardan iborat bo'lib tuyuladi. Shuni aytish kifoyaki, agar mehnat tartibi, to'g'ri va yetarli dam olish ijrochining ijodiy imkoniyatlari takomillanishiga yaqindan yordam bersa, bularning aksi esa, uni asabiylashtiradi va ijodiy kayfiyatdan mahrum etadi.

Ijrochi o'z ovozining hamisha talabga javob bera olar darajada bo'lishi uchun dastavval ovoz va nafas organlarining salomatligi, qolaversa, butun tana a'zolarining salomatligi haqida qayg'urishi kerak. Aksincha, ovozni chiniqtirish — uning ifoda imkoniyatlarini oshirish, ya'ni yumshatish, egiluvchanligini, jarangdorligini takomillashtirish demakdir. Ovozning bunday sifatlarini qo'lg'a kiritish uchun, ovoz paylari, asab ovoz yo'llari va u bilan aloqador bo'lgan barcha a'zolar sihat-salomat bo'lishi shart!

Ovoz paydo bo'lishi markaziy a'zo — oliy asab sistemasining mahsulidir. Ovoz va nutqning barcha jarayonini markaziy a'zo bajaradi. Undan kelgan signal natijasida ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo'ladi. Energetik sistema yordamida paydo bo'lgan ovoz «haydab» chiqariladi. Ovoz psychalari hiqildoq ichiga joylashgan bo'lib, ular juda yumshoq to'qimalardan iborat. Ovoz psychalari gapiroyotgan vaqtida tez-tez uzayib, qisqarib turadi. Psychalarda paydo bo'lgan tovushlar qaytargich(rezonator)ga urilib qaytgandan keyingina ovoz shaklini oladi. Qaytargichlar ovozni shakllantiruvchi asosiy manbadir. Qaytargichlarsiz tovush kuchsiz va ifodasizdir. Qaytargichlarga ko'krak qafasidagi suyaklar, bosh suyagi, burun tog'aylari, burun bo'shilg'i, tishlar, yuz suyaklari, yelka kuraklari, jag' suyaklari va boshqa qattiq to'qimalar kiradi.

Qaytargichlarga kelib urilgan yoki yo'naltirilgan tovush turli rang oladi va maqsadga muvofiq tusga kiradi. Demak, tovushni

qaytargichlarga to'g'ri yo'naltira bilish go'zal va shirali ovozning zamiri bo'lib xizmat qiladi. Ovoz mashqlarini bajarish uchun quyidagi larda alohida e'tibor berish kerak:

1. Ovoz mashqlari hamisha nafas mashqlari bilan bog'lanib olib borildi.

2. Ozodalikka rioya qilish.

3. Jismoniy siqilishga yo'l qo'ymaslik.

Quyida ovoz imkoniyatlarini takomillashtirish va uni chiniqtirishga xizmat qiluvchi mashqlar namunasi keltiriladi.

### **Ovoz mashqlari**

**1- mashq.** Ovoz markazini topib olish. Har kimda ravon, bevosita yaxshi jaranglaydigan biror tovush darajasiga ovoz markazi deyiladi. Ovoz markazi kundalik oddiy nutq paytida yo biror matnni o'qiyotgan vaqtda topib olinadi. Shundan so'ng o'sha jarangdor tovushdan boshlab ovoz pastga va yuqoriga tomon kengaytirila boshlanadi.

**2- mashq.** p tovushi kuch bilan talaffuz etmoqchi bo'linadiyu, biroq lablar qattiq siqilib, talaffuz etishga yo'l qo'ymaydi. Shu paytda qov (qorinning pastki qismi)ning tortilgani seziladi. Keyin nafas ham, qov ham qo'yib yuboriladi. Bu mashq bir necha bor qaytariladi.

**3- mashq.** Ovoz jarangdorligini, markazini topib olishning 2-usuli. Unli tovushlar ovoz markazini topib olishga keng imkon beradi.

a) erkin holda ovoz jarangligiga, tomoqning erkin, ochiq turishiga e'tibor berib:

I-A-O (bir necha marta), a-o-o' (bir necha marta)

I-E-A-O-H-U-I (bir necha bor) takrorlanadi.

b) shu tovushlar bilan yonlarga, yuqoriga, pastga qaraladi.

**4- mashq.** Bosh oldinga yengil egiladi va bosh harakati bilan birga hmmmmmmmm.... hmmmmmmmm... ovoz qo'shiladi, lablar yumuq.

**5- mashq.** Hmm... ovoz chiqariladi va qo'llar bilan ko'krakni ushlab kuzatiladi.

**6- mashq.** Hmm... hmm... hmm... ovoz chiqarib aytildi va musht

bilan ko'krakka urib turiladi.

**7- mashq.** Hmm... hmm... hmm... cho'zib aytildi. Yuz va lablar qo'l bilan asta urib turiladi.

**8- mashq.** Hmm... aytildi, shu vaqtida ikki barmoq bilan burun teshiklari siqilib, qo'yib yuboriladi.

**9- mashq.** Zzz... cho'zib aytildi, til uchi va tishlarning titrab turishi kuzatiladi.

**10- mashq.** Zmm... zmm... zmm... deb turib, bosh doira shaklida aylantiriladi.

**11- mashq.** Bu mashqda undosh toyushlar ovoz bilan talaffuz etilgan holda unlilar aniq va ravshan, biroq ovozsiz talaffuz etiladi.

Bi-ba-bo-bu-ba                    Li-la-lo-lu-la

Ki-ka-ko-ku-ka                    Vi-va-vo-vu-va

Ti-ta-to-tu-ta                    Fi-fa-fo-fu-fa

**12- mashq.** Mimmm, memmm, mammm, mommm, mo'mmm, mummm, mimmm

Rirrr, rerrr, rarrr, rorr, ro'rrr, rurrr, rirrr.

**13- mashq.** Oyoqlar juftlanadi. Oyoq uchiga ko'tariladi va har ko'tarilganda ba-ba-baba takrorlanadi.

**14- mashq.** Arqonda sakrab turiladi va har sakraganda ba-ba, ba-ba yoki ba takrorlanadi.

**15- mashq.** Yurib quloch ikki yonga yoziladi va harakat asosida bi-be-bo-bu talaffuz etiladi va qo'llar yonga tushiriladi.

**16- mashq.** Koptokni yuqoriga irg'itib turib, ba-bu-ba (bir necha marta) talaffuz etiladi.

**17- mashq.** Oyoqlar yelka kengligida qo'yiladi. Qo'llar oldinga cho'ziladi, keyin yuqoriga ko'tarilib, nafas olinadi, shundan keyin qo'llar yon tomondan asta-sekin pastga tushirilib, cho'zib hm-hn, hm-hn deb ovoz chiqariladi. Shu mashqni qo'lni oldinga cho'zgan holda, egilib va asta-sekin tiklanib bajarish mumkin.

**18- mashq.** To'liq nafas olib, hmmm-o-o-o-o-o-ommm deb ovoz oldinga yo'naltiriladi (bir necha bor takror).

**19- mashq.** To'liq nafas olinadi zmmmm, zmmmm... deb ovoz cho'ziladi.

**20- mashq.** To'liq nafas olinadi.

zmmmm —————— nafas olinadi

vmmmm ----- nafas olinadi  
 gmmmm ----- nafas olinadi  
 dmmmm ----- nafas olinadi  
 jmmmm ----- ovoz cho'ziladi

**21- mashq.** Nafas olinadi zm-vm-gm-dm-jmmmm, keyin ohang qo'shilib, bir nafasda zmm-vmm-gmm-dmm-jmm aytiladi.

**22- mashq.** Nafas olinadi va to'rt tomondan xuddi bir narsani tortib, ko'krakka bosgan kabi harakat qilinadi (qo'l bilan) va har bir harakat bilan birga «ba-ba-ba» deyiladi. Bu mashq matnni o'qish yo'li bilan mustahkamlanadi.

Yiroqdan eshitib surnay ovozin  
 Ko'chaga yugurgan bola singari,  
 Men ham qo'lga olib sibizg'a sozim,  
 To'yingga shosharman eldan ilgari.  
 Tilak shu – qo'shig'im katta bayramga  
 Yetib borsa kichik to'yon bo'lib,  
 Mening ham qolmasdi dilda armonim,  
 O'lkam onajonim, yuragim, jonim O'zbekistonim.

(E. Vohidov)

**23- mashq.** Maqsad –ovozning baland notasini mustahkamlash va diapazonini kengaytirish (xromatik gamma bo'yicha).

Do – Istaymizki, quvnoq kulgining  
 Re – Jarangiga qo'shilib olam.  
 Mi – Nega kulmas ertangi kuning  
 Fa – Ishqi bilan yashagan odam!!!  
 Sol – Istaymizki, xurramlik bo'lsin,  
 Sol – Sho'x qahqaha bog'lasin qanot.  
 Fa – Kuy shalola yanglig' quyilsin,  
 Mi – Qo'shiq bo'lib tuyulsin hayot.  
 Re – Istaymizki, qalblarimizni  
 Do – Chulg'amasin g'am-qayg'u bir zum.

(E. Vohidov).

Bunday mashqlami cholg'u asboblari yordamisiz ham bajarish mumkin.

Masalan:

Boshlang'ich ton – Ey, hayot deyilgan mo'jiziy qudrat,  
Tiriklik atalgan buyuk ibtid!

Balandroq – Ey, meni olamga keltirgan qismat,  
Jonlar validasi – ey oliv momo!

Undan balandroq – Charxmisan-falakmi yoki tabiat,  
Shukrona ayturman senga avvalo!

Yana balandroq – Inson jismin berib menga bul sifat,  
Keng olamni qilding ko'kragimga jo.

Orqaga qaytib – Diliimga his berding, boshimga fikrat,  
Qulog'imga ohang, ko'zimga ziyo.

Boshlang'ich ton – Solding qalbga jon-u, jonga muhabbat,  
Qo'limga soz tutding, tilimga navo.

(E. Vohidov)

**24- mashq.** Ovoz va diksiyani chiniqtirish. Mashqda undosh tovushlar ovoz bilan talaffuz etilgan holda, unlilar aniq va ravshan, biroq ovozsiz talaffuz etiladi:

Bi-ba-bo-bu-be  
Ki-ka-ko-ku-ke  
Gi-ga-go-gu-ge  
Ti-ta-to-tu-te  
Di-da-do-du-de  
Ri-ra-ro-ru-re

Fi-fa-fo-fu-fe  
Vi-va-vo-vu-ve  
Li-la-lo-lu-le  
Si-sa-so-su-se  
Zi-za-zo-zu-ze  
Ji-ja-jo-ju-je

**25- mashq.** Nafasni to'g'ri sarflash va ovozni mustahkamlash. Stulga g'oz o'tiriladi. Oyoqlar just, bo'yin cho'zilmaydi, qo'llar tizzaga qo'yiladi. Shu holatdan oldinga egilib, qisqa nafas olinadi va ko'tarilgach, «Bi-ba-bo-bu-bi» deb ovoz bilan talaffuz etiladi. Keyin mashq davom ettirilib, har egilib, turishda bir misradan, quyidagi birikmalar aytildi.

Pi-pa-po-pu-pe  
Vi-va-vo-vu-ve  
Fi-fa-fo-fu-fe

Ti-ta-to-tu-te  
Di-da-do-du-de  
Li-la-lo-lu-le  
Zi-za-zo-zu-ze  
Si-sa-so-su-se

Shundan so'ng birorta 4 misrali she'r o'qiladi.

Ovoz balandligi, kuchi, egiluvchanligini qo'lga kiritgach, nutq tempini egallash ustida ham mashq qilish kerak. Albatta mashqlarni sekin tempda boshlab, asta-sekin tezlashtira borish kerak.

Yuqorida zikr etilgan gimnastik mashqlar ham, ovoz mashqlari ham har bir shug'ullanishda bir necha martadan qaytariladi.

Shuni ta'kidlash joizki, so'z san'atkori o'z ijodiy imkoniyatlarini takomillashtirish ustida muntazam ish olib borish kerak. Yuqorida keltirilgan mashqlar esa, ana shunday mehnat jarayonining ayrim misoli bo'la oladi. K.S.Stanislavskiy aytganidek, «nutqdan o'zingizgina rohatlanib qolmay..., so'z va ohangni sezdirmasdan turib, tinglovchining qulog'iga quyib qo'yishingiz kerak». Bu esa, o'z navbatida, ijrochidan o'z ovoz imkoniyatlarini yaxshi bilish, uning diapozoni, fazilat va kamchiliklarini o'rganishni talab qiladi.

---

## **TALAFFUZDAGI NUQSONLARNI BARTARAF ETISH USULLARI**

Talabalar repertuaridagi asarlardan namunalar o'qitilib (monolog, she'r, hikoya, masal) nutqiy kamchilik va imkoniyatlari tekshirib ko'riladi. Misol uchun, tishlarning notejis joylashuvi, tilning ortiqcha semizligi yoki qisqaligi, ovozda shira (tembr)ning yo'qligi, ovozning nihoyatda zaifligi, burun va dimoqda gapirish, fikr siqiqligi, eshitish qobiliyati(slux)ning sustligi, ritmni sezmaslik, tasavvuri va hissiyoti.

Talabadagi faqat o'zigagina xos bo'lgan kamchilikni maxsus mashq, misol, vazifalar berib, sinab, tekshirib ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Aytaylik, sirg'aluvchi tovushlarda kamchilik (defekt) sezildi. Buning uchun, avvalo, to'g'ri talaffuzga nima xalaqit berayotganini aniqlash kerak. Agar tishlar qatorining notejisligi sabab bo'lsa, hushtakka o'xhash shovqin eshitiladi yoki tilning kaltaligi sabab bo'layotgan bo'lsa, tovushning talaffuzi yana o'zgaradi. Tovushning hosil bo'lish o'rni o'zgarganligi oqibatida esa ingichka, shovqinliroq va hushtakka yaqinroq tovush paydo bo'ladi.

Jag'ning noto'g'ri tuzilishi oqibatida yuz berayotgan bo'lsa butunlay boshqacha tovush, ya'nii boshqa tovushga moyil, ajratish qiyin bo'lgan tovush paydo bo'ladi. Yana boshqa sababi mazkur tovushning artikulyatsion holatini yaxshi bilmaslik oqibatida yuz beradi. Bunda yo nutq organlari sust ishtirok etadi yoki hosil bo'lish o'rni noto'g'ri bo'ladi. Ushbu sabablar, albatta maxsus mashq, misollar bilan tekshirilib, ma'lum xulosaga kelinadi. Mashq, misol va maslahatlar haqida quyiroqda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Talabadagi kamchilik va imkoniyatlarni maxsus anketa tuzib o'rganish lozim, deb o'yaymiz. Bu anketa talabaning institutga qadam qo'yanidan boshlab, to bitirib ketguniga qadar har yil oxirida yozib borilsa, uning talaffuzidagi o'zgarishlar qanday borayotganligi yaqqol seziladi.

Anketadan talabaning ovoz, nafasga oid kamchiliklari, talaffuzga oid kamchiliklari, eshitish (slux) qobiliyati, saviyasi, madaniyati, imkon darajasi joy olishi kerak.

Kamchiliklarni aniqlash o'qituvchidan katta sinchkovlikni talab etadi. Agar kamchiliklar puxta o'rganilib, sabab va ravnaqi to'g'ri belgilansa, kelgusi nutq tarbiyasiga zamin yaratilgan bo'ladi.

Keyingi yillarda san'atga layoqati bor yoshlarda sirg'aluvchi (s - z, f - v, sh - j, x - h, y - g') va qorishiqlar (ch - j, s) talaffuziga aloqador kamchiliklar ko'p uchramoqda. Bunday kamchiliklarni kelib chiqish sabablariga ko'ra guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh kamchiliklarga shartli ravishda sirg'aluvchilarining talaffuzi tishlar qatori bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarni kiritamiz. Bunday kamchiligi birlarda tishlarning old qatorlari past-baland joylashishi, ichkari va tashqi tomon notejis chiqqan bo'lishi mumkin. Tishlar orasining ochiqlari ham ko'p uchraydi. Bunday kamchiliklar sahna nutqida katta nuqson hisoblanadi va ularni bartaraf etish har xil yo'llar bilan sinab ko'rildi. Shularga oid ba'zi maslahatlarni havola etamiz.

Eng avvalo, ishni soddaroq yo'ldan boshlaymiz. Ma'lum artikulyatsion holat natijasida tishlar qatori xiyol ochiq bo'ladi, lablar ozgina ikki tomonga tortiladi, tilning uchi pastki tishlar qatoriga tiralib turadi va til pastki tomon o'zak sari yoy shaklini oladi. Havo siqilibroq sirg'alib chiqishi oqibatida «S» tovushi paydo bo'ladi. Shu kabi boshqa sirg'aluvchilarining ham ma'lum artikulyatsiyasi bor. Sirg'alib chiqayotgan havo oqimi ochiq va notejis tishlar orasidan tartibsiz ravishda ko'p o'tishi ayrim sirg'aluvchilar me'yorini buzib yuboradi. Bunday talaffuz kamchiligi ma'noga katta putur yetkazadi: *Zajfona, zamin, zamzama, zardo'sh, ovsar, sifatsiz, sersuv, safarbar, saksovul, safsata, sarafroz, feruza, farrosh, fazilat, oftob, sharshara, shinni, shifokor, shikor, g'uj'on, g'avvos, hassos, hassa.... va h.k.z.*

Kamchilikni aniqlashning eng nozik pallasi uning xarakterini aniqlash. Qaysi tovushdan keyin yoki qaysi tovushdan oldin kamchilik kuchli sezilgan tovush qanday eshitiladi?

Kuchli seziladimi yo nisbatan zaif? Bu savollarga javob topish o'qituvchidan alohida sinchkovlikni talab etadi. Kamchilikning qay xilidan ekanligidan kelib chiqib, ish ko'rildi.

Balki bunday paytlarda lablar faoliyati rol o'ynar, balki til?!

Har qalay, talaba ham tovush artikulyasiyasini aniq idrok etishi kerak, ham tovush ohangini yaxshi ajrata olishi kerak. Talabaning eshitish qobiliyati (sluxi), xotirasi ham ahamiyatga ega.

Sinab ko'rish uchun mashq, misollar keltiramiz: *viz*, *vaz*, *voiz*, *gaz*, *ko'z*, *kuz*, *mis*, *mesh*, *besh*, *qosh*, *tosh*, *mosh*, *fosh*, *bosh* va h.k.z.

SI , SE , SA , SO , SO' , SU , SI  
IS , ES , AS , OS , O'S , US , IS  
ZI , ZE , ZA , ZO , ZO' , ZU , ZI  
IZ , EZ , AZ , OZ , O'Z , UZ , IZ

SIZZI , SEZZE , SAZZA , SOZZO ,  
SO'ZZH , SUZZU , SIZZI

ZISSI , ZESSE , ZASSA , ZOSO ,  
ZHSSH , ZUSSU , ZISSI

She'rnning sozi – to'rt satr,  
To'rt ajoyib – zo'r satr.  
Shoir odam o'zini  
To'rt satrda ko'rsatur.

*/E. Vohidov/*

So'z borki, dillarga shifo keltirur,  
So'z borki, boshlarga balo keltirur.  
So'zingni o'ylamay so'zlama hargiz,  
Yomon so'z oxiri jazo keltirur.

Suzma ham bemazamas maza,  
Cho'zma ham bemazamas maza.

*/Tez aytish/*

Non yasashasizmi,  
Sholi sanashasizmi.

*/Tez aytish/*

Mashq – misollar shoshilmasdan, dona-dona, burro-burro, o'qituvchining topshirig'iga qat'iy amal qilgan holda bajarilishi shart. Bunday kamchiligi bor talabalarga lablar va til uchi faol ishtirok etuvchi tovushlardan tuzilgan mashqlar ham foyda beradi.

Pi-pi-pi-piyola  
Bi-bi-bi-binafsha  
Fu-fu-fu-furqat  
Vo-vo-vo-vodiy  
Ma-ma-ma-madad  
De-de-de-devona  
Tu-tu-tu-tutam  
No-no-no-norasida  
Lo'-lo'-lo'-lo'li  
Ru-ru-ru-rutubat

Ana endi sirg'aluvchi tovush so'zning o'rtasida kelishini (bastakor, manzil, visol...) va boshqa tovushlar ta'sirida kamchilik o'zgarish yasayotgan bo'lsa, o'shanday tovushlar yonma-yon keladigan so'zlardan ko'proq foydalanib, talaffuz me'yorida labning yoki tilning ishtiroki aniqlab olinadi. Uni bartaraf etish davridagi birinchi urinishlarda kamchiligi bor tovushlar uchramaydigan mashqlardan boshlash foydali.

Lab-lab, lab-tish, til oldi sonor tovushlardan tuzilgan mashqlar tavsiya etiladi.

1. Viff, veff, vaff, voff, vo'ff, vuff, viff.
2. Pti, pte, pta, pto, pto', ptu, pti.
3. Bris, bres, bras, bros, bro's, brus, bris.
4. Triz, trez, traz, troz, tro'z, truz, triz.
5. Vijdon, visol, viqor, vatan, vujud.
6. Plik, peshtaxta, paxta, po'kak.
7. Bino, beshik, bahor, bo'g'in, butun.
8. Tilim, tesha, taxta, to'plam, tugun.

Mashqlarni shoshilmasdan cho'zibroq, ravon, to'g'ri talaffuz etishga harakat qilish kerak. Sirg'aluvchilar bilan bog'liq ikkinchi

guruh kamchiliklarga tilning semiz bo'lgani sababini kiritamiz. Bu hol boshqa tovushlarga nisbatan sirg'aluvchilarga katta ta'sir etadi. Chunki bu hol har bir sirg'aluvchi artikulyatsiyasini o'zgartirib yuboradi, oqibatda ma'lum sirg'aluvchi tovush paydo bo'lmay, bo'g'iq, xira shovqin eshitiladi. Bunday kamchilik uchun maxsus til mashqlari mavjud.

Masalan:

1) til chiqarilib, erkin holda iyak tomon tushiriladi. Shu holda bir oz tinim qilingandan so'ng lablar yig'ilib, tilni tarnov shakliga keltiriladi va til shu shaklda ichkariga tortiladi;

2) lablar erkin yumiladi, tishlar xiyol ochiq. Til uchi bilan tashqi milkni yalab aylantiriladi. Tilni shoshimasdan, erkin, avval bir tomonga, so'ngra ikkinchi tomonga aylantiriladi. Tildan boshqa nutq a'zolarining (ayniqsa, jag', yuz muskullari) ishtirok etmasligiga e'tibor qaratish kerak;

3) lablar erkin yumiladi, pastki jag' tushiriladi. Tilning uchi bilan yuqori tishlardan tanglay tomon harakat qilib, massaj qilinadi;

4) og'iz ochiq, tilning uchi yuqori tishlardan yumshoq tanglay tomon harakat qilib, massaj qilinadi. Mashqni shoshmasdan, aniq bajarish kerak.

Bu mashqlardan keyin artikulyatsion-fonetik mashqlarga o'tiladi. Artikulyatsion-fonetik mashqlar til uchi faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Ti, te, ta, to, to', tu, ti.
2. Di, de, da, do, do', du, di.
3. Tri, tre, tra, tro, tro', tru, tri.
4. Tilni biroz chiqarib tishlar orasiga erkin olinadi. **M** tovushi talaffuz etiladi (ichda imitatsiya etiladi.) So'ngra **t** yoki **d** tovush ovoz chiqarib, talaffuz etiladi.
5. Yuqoridagi 3- mashq bir karra bajarilab, s yoki z tovushlari talaffuz etiladi.
6. Bri, bre, bra  
Bri, bre, bra – bunda lablar faol qatnashishi kerak.  
Bri, bre, bra

Uchinchi guruh kamchiliklar til uchining faol qatnashmasligi yoki tilning kaltaroq bo'lishi oqibatida sirg'aluvchilarda seziladigan kamchiliklardir. Tilning uchi pastki tishlar qatoriga tegib so'zlash paytida tirkalibroq turmasligi oqibatida sirg'aluvchi tovushlar talaffuziga ta'sir etadi. Natijada, bo'g'iq, shovqin paydo bo'ladi. Bunday holda tilning pastki tishlar qatoriga tirab turib, o'sha sirg'aluvchini cho'ziqroq talaffuz eting.

Misol uchun: s-s-s-somon, s-s-s-sulton.

z-z-z-zamon, z-z-z-zuravon

s-s-s-salom, s-s-s-saxro.

z-z-z-zolim, z-z-z-ziyon.

s-s-s-sanamay sakkiz dema.

z-z-z-zamonaning zayli.

R tovushi talaffuzda ko'p uchrab turadigan kamchilik. Agar til me'yordan kalta bo'lsa-yu, nutqda kuchli sezilayotgan bo'lsa organika bilan bog'liq bo'lgan bo'ladi. Bunda R boshqa tovushga, ya'ni y ga moyil talaffuz etiladi. Yoki ba'zida to'g'ri talaffuz etishga tirishganda, bo'linib-bo'linib, titroq tormozlashgan tovush paydo bo'ladi.

Bunday hollarda foneator bilan maslahatlashishga yuborish kerak. Sinab ko'rish uchun til cho'zib chiqariladi. Tilni toza ro'molcha bilan ushlab, engak tomon tortiladi. Til o'zagi va jag' erkin holda bo'lishi kerak. Til o'zagida og'riq paydo bo'lmasligi kerak. So'ngra tilni qo'yib yuborib, misol va mashqlar bajariladi: *jir, sir, or, tor, bor, kor, qor*. Mashqlarda o'zgarish kam sezilsa, demak organika bilan bog'liqligi yana bir bor isbot bo'ladi. Agar tekshirishlarda til uchining sust tebranishi kuzatilsa, til uchi faoliyatini oshiruvchi mashqlar beriladi:

1) ti-ti-ti-ti-ti.

di-di-di-di-di.

tiditt, tedett, tadatt.

ti-ti-ti — tilak, tirkak.

di-di-di — diyonat, davomat.

te-te-te — terak, tevarak.

de-de-de — devona, dengiz.

2) Tubsiz dengiz dengizmi,

Dengiz tengsiz dedingizmi?

(Tez aytish)

3) Qator-qator tosh terdim,

Jayron otni bo'sh qo'ydim.

(Topishmoq)

4) Ertak, ermak, erkak...

«Tish orasidan gapirish» ham ko'p hollarda uchrab turadi. Jag' ni me'yorida ochmaslik unli tovushlar talaffuziga putur yetkazadi. Jag' ochilmasligini asosiy sabablaridan biri asab siqiqligidir.

Asab ta'sirida jag' muskullari bir muncha qotib qoladi. Yana boshqa ayrim sabablar ham yuqoridagi kamchilikning kelib chiqishiga olib keladi. Chunonchi, ayrim kishilar og'izni kichik, bilintirmay ochishlikni odob, hayo, andisha deb biladilar. Oqibat, unlilarning to'g'ri ish holati buziladi, tish orasidan so'zlashishga olib keladi. Yuqoridagi har ikki sababning va boshqa sabablarning oqibati bo'l mish tish orasidan gapirishni bartaraf etish uchun ayrim mashqlar tavsiya etiladi.

### Artikulyatsiya mashqlari

1. Jag' mashqlari:

a) esnash mashqi (og'iz esnash holatida ochiladi, so'ngra yumiladi);

b) M talaffuz etiladi, esnash holatida a talaffuz etiladi;

v) M – esnash – O;

g) M – esnash – U;

d) M – esnash – E.

2. Jag' muskullarini bo'shatish:

a) jag'ni oldinga harakat ettirish;

b) jag'ning ikki yonga harakati;

v) saqich chaynayotganday harakat qilish.

3. Unlilar ishtirokidagi mashqlar;
- ba-bo-bo’;
  - da-do-do’;
  - ab-ob-o’b;
  - ad-od-o’d;
  - ib-ab-ob.
4. Unlilar ko‘p uchraydigan so‘z va matnlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi.
- Ozoda, ovora, ohista , orasta, olam, ozor, aqiba, aqida, Aziza, archa, imon, ilon, eshik, teshik, barcha, barno, ra ’no, Laziza, latifa.*
  - Olmasam gar ko‘nglim to‘lmas,  
Ota-onam duosini.  
Olmasam gar yo‘lim bo‘lmas,  
Ota-onam duosini.
- (S.Ochil)*
- ikki bola,  
Yasan-tusan.  
Biri Hasan,  
Biri Husan.
- (E.Madrahimov)*

Talabalarda yoshlarga xos bo‘lgan yana bir kamchilik bo‘lib, bo‘g‘izda gapirishdir. Buning sababi til o‘zagi orqaga tortilib qolgan bo‘lishi va til o‘zagining kam harakati oqibatida yuz beradi. Bunday hollarda til mashqlaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

- Yuqoridagi holat qaytariladi, faqat ba-bo-bu talaffuzi bilan almashiladi.
- ma-mo-mu  
ma-mo-mu  
ma-mo’-mu
- ma-ma-ma-a-a-a- (cho‘zib)  
mo-mo-mo-o-o-o...  
mo’-mo’-mo’-o’-o’-o’...

4. bo-bo-boooo!  
bo'-bu-bo' o' o' o'

Dimoqda gapirish juda ko'p uchramasa ham, har qalay uchrab turadigan nuqsondir. Bunda yumshoq tanglayning pastga tushishi kuzatiladi. Bu hollarda ham mutaxassis shifokor maslahatini olish kerak. Ba'zida e'tiborsizlik yoki odat natijasida yuz berishi ham kuzatiladi. Bu vaqtida ovozning xususiyati (tembr)ga e'tibor qaratiladi. Agar kasallik oqibati bo'lsa, bo'g'iqroq, burunda gaplashadi. Agar odat yoki e'tiborsizlik bo'lsa, ovozi tiniqroq bo'ladi. Aniqlash uchun mashqlar:

1. Og'iz orqali ko'p havo birdaniga tortiladi va biroz ushlab turilib, yana o'shanday ko'p havo birdaniga chiqariladi.
2. Ko'p havo birdaniga og'izga olinib ba-bo-bo' deb kesib-kesib chiqariladi.
3. Og'izdan «ho'p» deb nafas olinadi va «po'» deb cho'zib chiqariladi.
4. Bo-bo  
Bo'-bo'  
Bu-bu  
Ab-ob-o'b

Yuqoridagi va shunga o'xhash mashqlardan keyin xulosa chiqarish mumkin.

Burundan gapirish ko'p hollarda burun a'zolari kasalligidan dalolat beradi. Sinab ko'rish uchun sonor tovushlar so'zning qayerida kelganida ko'proq sezilishini aniqlash va shunga qarab, mashq va misollardan foydalansa bo'ladi.

**M:** *meros, mezon, maqom, marom, mudom, muz, mulk, mo'ri, motam, nizom, nozik, nihol, ne'mat, in'om, egam, amma va h.k.z.*

Ana endi sonor tovushlar kam uchraydigan so'zlarni aytib ko'rish kerak.

**M:** *Ozor-ozod, omon-obod, kamon-hamon* so'larida sonor tovushlarning qisqa va chertib aytishiga erishing. Ovozning burunga yo'nalishidan ehtiyoj bo'ling. Agar o'zgarish sezilsa ham, xulosa qilishga shoshilmang. Sonorlar kam ishtirok etgan jumlalardan foydalaniib, mashq qilishda davom etavering.

Ovozni toməqda hosil bo'lishi juda ko'p uchraydi. Bu kamchilik sababining ko'lami keng. Kamchilikni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri — kishi xarakteri xususiyati bilan bog'liq, deyish mumkin. Ba'zida muomala, o'zini tutish, ta'lim-tarbiya, munosabat oqibati bo'ladi. Yasama tortinchoqlik, uyatchanlik muomalaga ta'sir etadi. Ovozni yashirib, tortinib, muloyim gaplashadilar. Oqibatda yuqorida qayd etilgan kamchilik va nuqsonlar sekin-asta paydo bo'la boshlaydi. Bunday holatlarda ovozni rezonator(qaytargich)ga yo'naltirib tekshiriladi. Quyida bir necha mashqlar tavsiyasini beramiz.

Mashqlar:

1. Xitob etish, chaqirish, to'xtatish  
bi-ba-bo-bo'-bu! (bir necha bor takrorlanadi)  
Mashq qat'iy ijro etilishi kerak.

2. Bi (cho'zib) bi-bi (qisqa)  
Bo (cho'zib) bo-bo (qisqa)  
Bo' (cho'zib) bo-bo (qisqa)

3. Men bi-ba-bo  
Sen bi-ba-bo  
U bi-ba-bo  
Ular bi-ba-bo

4. Turli-tuman  
Bolalar ko'p  
Jahonda,  
Yig'lsalar  
Sig'mas ming-ming


Maydonga:  
— Bu juda soz,  
Bu juda soz, (ovozni balandlatib)  
Juda soz! ! (yanada balandlatib)

Xirillash ovoz pardasining lat yeganidan nishonadir. Ovozdan noto'g'ri foydalanish (haddan ziyod baqirish, ovozni ko'p ishlatish, noto'g'ri ovoz yo'naltirib, ashula aytish) uni jarohatlab

qo'yadi. Bu davrda ovozdan umuman foydalanmay, oldin davolanish zarur. Ba'zan ayrim pardalarningina lat yegani seziladi. Bunday holda musiqa asbobi jo'rligida xromatik gamma asosida ovoz diapazoni o'rganib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Misol uchun:

Ozoda



Shundan so'nggina biror xulosa chiqarish mumkin.

Eshitish qobiliyati (slux) san'at yo'lini tanlagan qibiliyat egalari, talabalar uchun eng zarur layoqtatlardan hisoblanadi.

Eshitish qibiliyatini chiniqtirish usullaridan biri so'zlashuv (rechetativ) mashqlaridir.

Misol tariqasida quyidagi mashqlarni tavsiya etamiz.

1. Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

- e ) \_\_\_\_\_, ...
- d) \_\_\_\_\_, ...
- g ) \_\_\_\_\_, ...
- v) \_\_\_\_\_, ...
- b) \_\_\_\_\_, ...
- a ) \_\_\_\_\_, ...

2. Doira usullarini takrorlash;

a) bak – bum – bak – bum - bak

bak – bum – bak – bum – bak

b) bak – baka – bum - bum

bak – baka – bum – bum

v) buk – baka – buk – bak - bum

buk – baka – buk – bak – bum

d) bum – bak – bum – bak – baka – baka - bum  
bum – bak – bum – bak – baka – baka – bum

Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, san’atga layoqatli yoshlar, talabalar nutqidagi kamchilik va nuqsonlarni o‘rganish, ularni bartaraf etish sahna nutqi fani oldida turgan eng dolzarb masaladir.

Tovushlar talaaffuziga oid diksion nuqsonlarni bartaraf etishda she’riy matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki she’rlar ritmik tashkil etilgan nutq bo‘lgani uchun ham asab sistemasini yengil qo‘zg’otadi. She’riy matnning o‘zi ijrochida ijobiy his-tuyg‘ularni chaqiradi va bu, o‘z navbatida, ovozni ham erkin shakllantirishga yordam beradi. Quyida namuna sifatida ayrim she’niy matnlarni keltiramiz.

### Kakku

Bir qush sayrar kun bo‘yi

O‘monda:

- Kakku!
- Kakku!

Qichqirolmay xo‘rozday,

Armonda:

- Kakku!
- Kakku!

Bu qanday qush, kim topar?

- Kakku !

O‘zi ham nomin bilmas

Ekan-ku ?

(R. Farhodiy)

### Til topishdi

Uchrashdilar

G‘oz, o‘rdak

- Isming nima

Ayt o‘rtoq ?

— Menikimi,  
g'оq..., g'оq..., g'оq...  
— Senikichi ?  
— G'о...g'о...g'о...  
Bir zumda til topishdi.  
O'ynagani  
Chopishdi.

(Q. O'tayev)

### **Chorlov**

O'yinda o'ying o'sar,  
Ar-ardek bo'ying o'sar.  
Do'st-o'rtoqlar ichida  
Charx urib, ko'ngling o'sar,  
Kel-ho ! Kel-ho !

(A. To'ymurodov)

### **Shaftoli — shakar**

Shaftoli — shakar  
Pishibdi bog'da.  
Rangi qizarib,  
Bizni kutmoqda.  
Fursat g'animat.  
Lazzatli ne'mat  
Bo'imasdan tamom,  
Shaftoli tomon —  
Falonchingin bog'iga  
Girrrr -----

(A. To'ymurodov)

### **Og'iz boylash**

Gap-so'zni sol to'rvaga,  
Mehmon keldi o'rdaga.

Mehmon – uyqu, o'rda – ko'z,  
Sichqon tushdi o'raga.  
Guldur – gup!

Uyqu kelar yugurib,  
Tutib oling ulgurib.  
Qo'lga tushmang so'z aytib,  
Kulib yoki kuldirib,  
Guldur-gup !

Dim-dim !  
O'ra ko'mdim,  
O'ra ichra  
Qo'ra ko'mdim,  
Qo'ra ichra  
Qo'ra ko'mdim.  
Qo'ra g'o'ramas,  
Uni bilganlar  
Ne deb so'ramas!  
Guldur-gup!

(A. To'ymurodov)

### Tush

Arra kesar	Quyuq tuman
Sharra – sharra.	Atrofimda.
Borib kelar	Aylanadi
Qirr-qirr.	Girr-girr.
Quloch yozmas	Azim daraxt
Azim daraxt.	Boshim uzra.
Nafas olar	Bosib kelar
Xirr-xirr.	Birr-birr.
Yaproqchalar –	Men ham yurak
Barmoqchalar.	Hovuchlayman.
Titrashadi	Qaltirayman
Zirr-zirr.	Dirr-dirr.

Yosh sizadi  
Ko'zlarimdan.  
Labim uchar  
Dirr- dirr.

Shunday yomon  
Tush ko'tibman.  
Otam tutni  
Kesgan tun.

Paypaslayman  
Qo'llarimni.  
Hamma yog'im  
Bus-butun.

(N. Komilov)

### Bug'doy

Oltin tojli  
Sultonman.  
Somsa, patir,  
Shirmonman.  
Azizdirman  
Odamga,  
Arzandaman  
Olamga.

Yer kuylasa,  
O'ynayman.  
Xirmon sari  
Bo'ylayman.  
Oy chiqqanda  
Qo'noqqa.  
O'xshar  
Kumush o'roqqa.

### Sabzi

Yupqagina  
Po'stim bor,  
Dalada  
Ko'p do'stim bor.  
Maqolda ham  
Yoziqman,  
O'sha  
«Oltin qoziq» man.

Yotsam  
Yerga qapishib,  
Dumginamdan  
Tortishib,  
Tashladilar  
O'raga...  
Salom  
Palov to'raga!

### Sholg'om

Popuk bargli  
Boshim bor.  
Vazmingina  
Toshim bor.

Yosh-da,  
Picha shoshar u —  
Bahordayoq  
Pishar u.

Dumi uzun  
Rediska –  
Menga  
Kenjatoy uka.

Men shoshmayman,  
Beg'amman.  
Shuning uchun  
Sholg'omman.

### **Uzum**

Donalarim  
Marjoncha,  
Bir boshim-  
Naq bir jomcha.  
Quritsangiz  
Mayizman,  
Dasturxonga  
Fayzman.

Kuzda.  
Yeb-yeb to'yishar.  
Qishga.  
Osib qo'yishar.  
Boqar shod  
Yosh-qarilar.  
Maqtar hatto  
Arilar.

### **Pista**

Quvnoq-shodon  
Pistaman.  
Askiyaga  
Ustaman.  
Jilmayganim  
Jilmaygan,  
Kimga yoqar  
Tumtaygan?

Nega meni  
Erkalab;  
Chaqmayapsiz  
Bittalab?  
Yo'qmi sira  
Xushingiz?  
Demak,  
Chatoq tishingiz.

### **Handalak**

Handalakman  
Polizda,  
Lekin qandman  
Og'izda.  
Yayrab o'sdim  
Dalada  
Oftob chiqsa,  
Yalla-da.

Suv kelmasa,  
Tomirga,  
Yalinaman  
Yomg'irga.  
Mening faxrim  
Shiramdir.  
Qovun  
Katta enamdir.

### **Anjir**

Kecha-kunduz uxlayman  
 Meva tugdim gullamay.  
 Mevam o'zi gulchadir,  
 Tillo rangli kulchadir.  
 G'o'daymayman, sipoman,  
 Ko'p dardlarga shifoman.  
 Meni esa Mutalib,  
 Yurmas edi yo'talib.

### **Anor**

Har donacham bir askar,  
 Bir qal'ada ming lashkar.  
 Yotar ular panada,  
 Oq pardali xonada.  
 Xonalar tinch, atrof jim.  
 Qal'achani buzsa kim,  
 Boshlanadi to'polon....  
 U yog'i sizga ayon.

### **Bodom**

Men bahorning sevinchi,  
 Gullagayman birinchi.  
 Chiroylidir qomatim,  
 Bu ham bo'lsa omadim.  
 Havas qilib mevamga,  
 Qiziga bir yosh yanga.  
 Nom qo'yanmish Bodom deb,  
 Shirin bo'lsin bolam deb.

### **Behi**

Ikki yuzim burishqoq,  
 Dema meni urishqoq.

Ishga solib aqlimni,  
Sezdirmayman jahlimni.

Agar shirin bo'lmamasam,  
Xushomadni bilmamasam.  
Meni darrov kesishar,  
O'mimga nok ekishar.

### **Qovun**

Obinovvot qovunman,  
Bitta tishlab ovun, ma.  
Nega bo'ldim men nomdor?  
Chunki, choponim guldar.  
Yonbosh qilib yotaman,  
Shirin ishga botaman:  
Xayolimda – odamlar,  
Bozorda meni tanlar.

### **Pomidor**

To's-to'polon	Ko'rganmisan
Bozorda,	Kinoni –
Yoki biron	Mashhur.
Guzarda.	«Chippolino»ni?
Uchrab qolgan	O'sha yerda
Onimda,	Men ham bor.
O'tib ketma	Nomim
Yonimdan.	«Senyor pomidor»

### **Oshqovoq**

Ismim –	Qo'shib yesang
Kadi – oshqovoq,	Shakarga,
Osiltirib	Doridirman
Qosh – qovoq,	Jigarga...

Barg ostida  
Yotaman,  
Tomga  
Palak otaman.

Nega uzding  
Bandimni,  
Sog'indingmi  
Mantini?

### Kartoshka

Goh uxlayman  
To'rvada,  
Goh pishaman  
Sho'rvada.  
Qovurmada.  
Qaynayman,  
Mastavada  
Yayrayman.

Lag'monda ham  
Men borman,  
Hamma joyda  
Tayyorman.  
Ko'rinnamasam  
Shavlada  
Erinmasdan  
Kavla-da.

### Tez aytishlar

Diksiyani rivojlantirishda tez aytishlar juda katta foyda beradi. Mashqlar davomida nafasga jiddiy e'tibor berilishi muhimdir. Buning uchun, tez aytish talaffuzining sur'atiga ko'ra bir tez aytishni ikki-uch nafasda, bir tez aytishni bir nafasda (va nihoyat, bir nafasda, ayniqsa, sur'at tezlashtirilgan davrda) bir tez aytishni ikki-uch marta qaytarish mumkin. Buning uchun nafas olinadigan yoki to'ldiriladigan paytlar oldindan belgilab olinadi. Tez aytish mashqlarini asta-sekinlik bilan, dona-dona, burro talaffuz etish bilan boshlash kerak.

To'ti tutgan to'rtta to'ti to'rda turibdi.

Tog'am tog'da bir tog'ora tog'olcha, tag'in bir tog'oracha olcha terdi.

Oltin olmay, olqish olgan odam – odam.

Niyoz piyoz archdi,

Fayoz piyoz artdi.

Piyozdan Niyoqning ko'zi  
Achidimi, Fayoznimi?

Sovuqda tovuqqa tovoqda bodroq sochdim.

Tursunda to'rtta to'r qop, Unsinda bitta qulqop bor.

Tojining tojdor xo'rozi gultojixo'roz tagida turibdi.

Jajji jiblajibon jajji jo'ja bilan jo'ra, jajji jo'ja jiblajibon bilan  
jo'ra.

Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.

Qirg'ovul qiryoqdamas qirg'oqda.

Qishda kishmish pishmasmish,  
Kishmish pishsa, qishmasmish.  
Kishmish yegan kishining,  
Tishlari qamashmasmish.

To'p-to'p ko'k koptok,  
Har to'p ko'k koptokda.  
Bittadan katta ko'k koptok.

Quvondiqning qovun qoqisi qovunchidan.

Chumchuq chug'urchuqni cho'qimasa,  
Chug'urchiq chumchuqni cho'qimaydi.

Salimjon Sanamjon bilan sanoq sanashda sinashdi.  
Sanamjon sanoqni sakizgacha sanab adashdi.  
Salimjon sanoq sanashda adashmadi.

Ja'far Zafardan zarbdor,  
Safar Zarifdek dongdor.

Telpakli bola To‘ytepaga keldi.  
Qalpoqli bola qishloqda qoldi.

Durdonaning marjoni bir dona, u ming dona danak mag‘zidai  
tizilgan.

Tilim-tilim tilla qovunning to‘rt tilimi tilimni tildi.

Jajji Jamilning jimmilog‘i judayam jajji.

Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida  
Besh ming besh yuz mis barkash.

---

## **IV BO'LIM**

### **SHE'RIY ASARLAR USTIDA ISH OLIB BORISH**

Sahna nutqi fanida she'riy matn ustida olib boriladigan ishdan ko'zda tutilgan maqsad, birinchi navbatda, talabalarini «she'rning tabiatiga» singishga, uning qonun - qoidalarini ijodiy o'zlashtirishga, she'rning poetik-musiqiy ifoda vositalari yordamida ma'lum mazmunni ta'sirli va tushunarli qilib ifoda eta olishga zamin tayyorlashdan iboratdir.

Shuni ham aytib o'tish zarurki, she'r o'lchovi mavzu va mullifiga qarab o'z intonasiyasiga ega bo'ladi hamda u har gal turlicha jaranglaydi. Shu bilan birga, har bir o'lchov muayyan mavzu mohiyatining, voqealar ritmining ifodasidir. U muallif maqsadini va ijodiy vazifalarini aks ettiradi. Shu sababdan she'r xususiyatlarini tushunmoq, mazmunni yorqin va chuqur anglashning aniq omillarini topa bilmoq har bir talaba uchun nihoyatda zarur bo'lgan shartlardandir.

Badiiy ijodning bir turi hisoblangan she'rning texnikasini, poetik xususiyatlarini tushunish, uni o'zlashtirish anchagina murakkab. M. Uyg'ur she'riy asarlar, rollar ustida ishslash aktyor tarbiyasida muhim deb hisoblagan, shu boisdan teatrdragina emas, balki o'zining pedagogik faoliyatida ham bu ishga alohida diqqat bergen va talabalardan she'riy asarlarni muntazam o'qib turishni talab etgan. Uning fikricha, she'riy asarlar bilan ishslash va she'riy matnlarni o'zlashtirib olish talaffuzda mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf qilishning kalitidir.

Buyuk rejissyor va pedagoglarning she'rga hamda she'riy asar ustida ishslashga bu qadar e'tibor berib, uni o'rganishga da'vat etishlari beziz emas. Zotan, she'riy matn o'quvchiga o'z ona tilining go'zalligini, musiqiyligini, teran ma'nolarni ifoda eta olish qudratini, har bir so'zning turli-tuman ma'no va ohanglarga ega ekanligini anglash, o'zlashtirishga hamda ko'rish, tasavvur qilish orqali adabiy-badiiy asarlarning g'oyaviy-tematik yo'nalishini tezroq yuzaga chiqarishga ko'maklashadi. Umuman, talabalarda ijrochilik mahorati asoslarining qaror topishi va mustahkamlanishida she'riy matn ustida ishslashning ahamiyati katta.

O'quvchi she'riy matnni o'zlashtirishda uning mag'ziga kirib borishga intilishi kerak. Har qanday she'riy asarni ijro etmoqchi bo'lgan talaba faqat uning mazmuniinigina emas, balki she'ning o'ziga xos nafosatini ham tinglovchilarga yetkazib berishga harakat qilmog'i lozim. Goho shunday ijrochilar uchraydiki, ular ijro vaqtida she'riy asarning tashqi formasiga haddan tashqari berilib ketib, mazmunni unitib qo'yadilar. Natijada ijro tumtaroq, dabdabali bo'lib, ma'nosiz bir qiroatxonlikka aylanib qoladi. Vaholanki, har qanday ijroda fikr, ma'no birinchi o'rinda turmog'i zarur. Biroq, ayni chog'da, ma'noni formasiz bayon qilib ham bo'lmaydi. She'riy asarlarni ijro etishdagi o'ziga xos qiyinchilik mana shu forma va shu mazmun uyg'unligini saqlab, uni tinglovchilarga yetkaza bilishda bo'lsa kerak. Shunday uyg'unlik bo'lgandagina she'r ham ma'noli, ham ta'sirli eshitiladi. She'rni go'zal, ta'sirchan va ma'nodor qilib ijro etuvchilar tinglovchilarda to'liq taassurot uyg'otadilar. Zotan, mazmun va shaklning birligi ijrochining har bir so'zida ifodalanadi, ovozida eshitiladi, ko'zlarida porlab turadi, butun borlig'ida namoyon bo'ladi.

Demak, she'rni she'r qilib ijro etish uchun o'quvchi uning mazmunini chuqur anglash bilan birga, she'riy shaklini, ya'ni she'riy nutqning bir-biriga mos, teng, o'Ichovchi bo'laklarga misra, bayt va bandlarga bo'linishini ritmik jihatdan uyushganligini, mazmunning aniq, tartibili bir shaklda ifoda etilishini, unda uyg'unlik, ravonlik va musiqiy asos bo'lishini, poetik nutqning ichki me'yoriga hamda hamohanglik va ko'tarinkilikka ega ekanini, xullas, she'riy nutq asoslarini o'rganishi, uning tabiatini tashkil etuvchi barcha elementlarni sezishi, his etishi lozim.

Zotan, bo'lajak har bir ijrochiga zarur bo'lgan narsa poetik nutqning asoslarini adabiyotshunos sifatida o'rganish emas, balki she'r qurilishiga ijrochi sifatida ijodiy yondashish ehtiyojidir. Gap faqat she'rning u yoki bu elementini bilish, uni aniqlashni o'rganishdagina emas, gap she'riy nutqni badiiy eshitda bilishda, vazn, qofiya, ohang, ritmnii, har bir misra yoki banddag'i she'riy pauzani sezaga bilishdadir.

### Barmoq vaznidagi she'rlar ustida ishlash

Barmoq vazni o'zbek poeziyasida qadimdan qo'llanib kelinadi. Barmoq vaznining asosiy talablaridan biri misralardagi bo'g'inlarning son jihatdan bir-biriga teng bo'lishidir.

Masalan:

Bahor nasimlari, xushbo'y nasimlar,  
Boshim aylanadi gullar atridan.  
Ko'kka bir boqsang bas kelar nazmlar,  
Parvozga chog'langan yurak qatidan.

(Ra'no)

Misralardagi bo'g'inlarning bir-biriga teng (11) bo'lishi ma'lum bir o'Ichovni yuzaga keltiradi. Ana shu o'Ichov she'r musiqiyigini hosil etadi, musiqiylik esa barmoq vaznining asosida yotadi.

Poeziyadagi musiqiylik, avvalo, til materiali asosida kelib chiqadi va u har bir milliy tilning fonetik xususiyatlari, unli va undosh tovushlarning so'z ohangdorligida o'ynagan roli bilan bevosita aloqada bo'ladi. Ikkinchidan, she'r musiqiyligi she'riy ritm va so'zlarning o'zaro joylanish tartibi bilan bog'liq. Uchinchidan, u misralar oxirining bir-biriga hamohang bo'lishidan ham kelib chiqadi. She'r musiqiyligi bilan bog'liq bo'lgan poetik ritm barmoq vaznida misralarning ma'lum bir tartibda takrorlanishi orqali vujudga keltiriladi. Mazkur vazndagi istagan she'rda muayyan bir ritm mayjudligini sezish mumkin. Masalan:

Odatlanganman, deding,  
To'g'ri, hamma gap shunda.

Lekin axir, o'z tiling  
O'zingga bo'ysunsin-da.

(E. Vohidov,

Sehrli dunyosan, sirli dunyosan,  
Kim uchun go'yo baxt, kimga ro'yosan.  
Kimga nadomatsan, kimga navosan,  
Men qanday aytayin, go'zal ma'vosan,  
Sehrli dunyosan, sirli dunyosan.

(Ra'no,

Eng go'zal nozik nazokat olami she'r olami,  
Eng nafis-u ham nazokat olami she'r olami,  
Xo'p shirin nafis-u latofat olami she'r olami,  
Qilni qirq yorgan fasohat olami she'r olami,  
She'r jonlar rishtasidan der qo'pol arqon emas.

(Chustiy,

Misollarning birinchisi yetti, ikkinchisi o'n bir, uchinching o'n besh bo'g'inli misralardan tashkil topgan bo'lib, ularning bir me'yorda va muayyan tartibda takrorlanishi natijasida ritm vujudga keladi. Binobarin, barmoq vaznidagi ritm «birinchidan bo'g'lnarning sifatiga emas, balki soniga, ikkinchidan, bu bo'g'lnlar sonining band misralaridagi izchilligiga, uchinchingdan har bir misradagi bo'g'lnarning muayyan tartibda turoqlarga bo'linib kelishiga, to'rtinchidan, har bir turoq oxirida ritmik pauza hosil bo'lishiga asoslanadi».

Poetik nutqning ifodaviyligini kuchaytirish, emotSIONalligini oshirishda ritmnинг xizmati juda katta. Ritmnинг badiiylik roli shundaki, u nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi, uning emotional tovlanishini bo'rttiradi, uni oddiy so'zlashuv nutqiga nisbatan yuksakroqqa ko'targanday bo'ladi.

She'riy matn ustida ish olib boruvchi har bir o'quvchi ritmni belgilashda asar mazmunidan kelib chiqishi lozim. Ammo o'quvchi tinglovchiga she'rning ma'no va emotional mazmuninigina emas, balki uning shaklini, musiqiyligini ham ifoda etishga harakat qilmog'i kerak, albatta.

Barmoq vaznida ritm bo'g'inlarning urg'usizligi, ochiq yoki yopiqligi bilan emas, balki ularning misralalararo tartibli guruhlanishi bilan bog'liqdir.

Masalan:

4                  4

Omad degan noyob bo'larkan,

4                  4

Hammavaqt ham kulib boqmaydi.

4                  4

Do'sti borning ko'ngli to'larkan,

4                  4

G'iybatlarga qulqoq qoqmaydi...

Bu yerda muayyan hajmdagi bo'g'inlar soni ikkita to'rt bo'g'inli guruhlarga uyushgan, bu uyushganlik ma'lum bir ritmnini yaratgan. Bo'g'inlarning guruhlarga bo'linishi esa turoqlar yordamida amalga oshadi. Xo'sh, turoqning o'zi nima? U she'riy matn ustida ishlovchiga nima beradi?

Turoq barmoq vaznida poetik ritmni vujudga keltiruvchi, she'r musiqiyligini kuchaytiruvchi elementlardan biridir. Shunga ko'ra turoqlarning muayyan bir tartibda takrorlanib turishiga qattiq rioya qilinadi.

Turoqlar joylashish jihatidan ko'pincha bir xil bo'ladi. Agar, aytaylik, birinchi misradagi turoq to'rt bo'g'indan tashkil topgan bo'lsa, qolgan misralarda ham xuddi shu holat takrorlanadi.

Barmoq vaznidagi turoqlar hech vaqt so'z o'rtasida kelmaydi, ya'ni bir so'zni ikkiga bo'lib yubormaydi. Demak, turoq faqat bo'g'inlarning sonigagina asoslanadi.

Odatda turoq she'r ritmini o'zgartiradi. Chunki turoq bor joyda ritmik pauzalar hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, turoq she'riy misralardagi pauzalarni vujudga keltiruvchi zarur elementlardan hisoblanadi.

Turoqlar talaffuzda ko'pincha pauzalar bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham prozaik nutqni taktlarga bo'lib o'qish qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, she'riy nutqdagi turoqlar o'mini belgilab o'qish ham talaba uchun shu qadar muhimdir. Turoqlar

she'riy asarlarning ichki mazmuniga olib boradigan yo'lni belgilab turuvchi ko'rsatgich barmoq, deb atash mumkin. Turoq so'zlarning intonatsiyasini, ularning harakatchanligi, ta'sirchanligini ko'rsatib, eslatib turadi.

Shunday ekan, she'riy asar ijro etmoqchi bo'lgan har bir san'atkor matn ustida ishlash jarayonida turoqlarning joylashish tartibiga qattiq rioya qilmog'i zarur. Aks holda, u muallif ko'rsatmasidan uzoqlashadi va natijada ma'noga, qolaversa, she'riy shaklga, uning o'ziga xos intonatsiyasiga zarar yetkazadi.

She'riy matnni turoqlarga ajratib o'qish talaba nutqini tartibga tushiradi, so'zlarning oxirini yamlab ketishdan tiyadi, poetik nutqning go'zalligini, nafosatini his etish tuyg'usini o'stiradi, muallif uslubini o'rganish ishiga, she'riy misralarning ichki mohiyatini ochishga yordam beradi.

Talaba o'qituvchi bilan birgalikda she'riy matn ustida ish olib borar ekan, she'rning ritmini keltirib chiqarishda xizmat qiluvchi turoq va uning tartibini o'rganish bilan birga, she'rning ohangdorligini, ta'sirchanligini kuchaytiruvchi belgi — qofiyaga ham o'ze'tiborini qaratadi.

Qofiya she'riy asarlarning asosini tashkil etuvchi elementlardan biri, u she'riy nutqning ohangdor va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Poetik nutqda qofiyaning ahamiyati katta. Chunki «keng ma'noda tushunganda, qofiya bo'limasa, she'r sochilib ketadi. Qofiya sizni oldingi misraga qaytaradi, uni eslashga majbur etadi, bir fikrni ifoda etuvchi barcha misralarni qovushib turishga majbur qiladi».

Shuni ham aytib o'tish kerakki, qofiya she'r mazmunidan ajralgan alohida bir element emas, u hammavaqt mazmun bilan charbarchas bog'liq bo'ladi. Ishlatilish o'midan qat'iy nazar, misralardagi bir-biriga ohangdosh bo'lgan so'zlarga qofiya deyiladi. Shuni e'tirof etish kerakki, misralar oxirida keluvchi qofiya eng asosiy va ommalashgan qofiyadir. U misralarning oxirini ko'rsatib turish bilan birga, kuchli ritmik pauzaga ham ega. Boshqa o'rnlarda keluvchi ohangdosh so'zlarda bunday xususiyat yo'q. Ular she'riy misralarda ohangdoshlik yaratib, uning musiqiyligini oshiradi hamda she'r ritmiga o'ynoqilik kiritadi.

Biron-bir she'riy asar matni ustida ishlagan vaqtida qofiyani yashirmasdan, uni yuzaga qalqib chiqishiga imkon yaratish lozim. Ammo ovozga kuch berib, qofiyani ta'kidlab o'taverish ham maqsadga muvofiq emas. Unda she'r qo'pollashib, o'z jozibasi, nafosatini yo'qotadi.

«She'riy misralardagi qofiyani atayin, zo'rma-zo'raki ko'rsatishga urinish, — degan edi M.Uyg'ur, — yuzaki qiroatxonlikni, baqiroqlikni keltirib chiqaradi. O'quvchi har bir ohangdosh so'zni bir xil kuch bilan bir tekisda talaffuz etishdan ham saqlanishi kerak».

Qofiyaning obrazli va ta'sirli bo'lishi hamda uning talaffuzda jarangdor ifodalanishi she'riy asar g'oyasining tinglovchiga oson singishi uchun yo'l ochadi. Talaffuzda obrazli, badiiy ifodalangan qofiyaning estetik ta'siri kuchli bo'ladi. Shoirlarning qofiyaning turli usullaridan foydalanishlarining boisi ham shunda.

Qofiyaning rang-barangligi xilma-xil she'riy ohang yaratadi. Bu, o'z navbatida, tinglovchilarga yaxshigina estetik ta'sir o'tkazadi.

She'mi, eshita bilish qobiliyatiga ega bo'lmay, na uni ijro etib bo'ladi va na o'rgatib.

### **Aruzda yozilgan she'rlar ustida ishlash**

Klassik poeziya asosida yotgan she'r vazni — aruz o'zbek shoirlari ijodida ham barmoq vazni bilan bir qatorda qo'llanilib kelinmoqda. Aruz misralardagi hijolarning sonigagina emas, balki ularning sifatiga, ya'ni qisqa va cho'ziqligiga hamda talaffuz vaqtida ketgan vaqt miqdoriga asoslanuvchi poetik vaznidir.

Aruz vazni o'zbek poeziyasiga arablar O'rta Osiyoni istilo qilganlaridan keyin fors adabiyoti orqali kirib kelgan bo'lsa-da, u o'zbek poeziyasi va tilining barqaror xususiyatlari tayangan holda, musiqa san'ati bilan uzviy aloqada shakllandi va takomillashdi. O'zbek poeziyasida aruz vaznining hamon yashab kelish sabablaridan biri ham shu bo'lsa kerak.

Aruz vaznining kelib chiqish tarixi, uning shakllanishi, lug'aviy ma'nosi, ko'rinishlari, o'zbek poeziyasida tutgan o'rni kabi masalalar adabiyotshunoslik fani tomonidan o'rganilgan. Bizni qiziqtirgan

masala aruzning ijro uchun zarur bo'lgan o'ziga xos tomonlarini bilish, aniqlash va o'rganishdir. Masalaning bu qirralarini yoritish aruz vazni to'g'risida ozmi-ko'pmi ma'lumot berishni talab etadi. Shuni nazarda tutib, aruz vaznining biz uchun kerakli bo'lgan umumiylazariy tomonlariga qisqa-qisqa to'xtab o'tildi.

Aruz vaznining asosiy talabiga ko'ra, har bir she'riy misradagi hijolar miqdor jihatidan, aksariyat hollarda xuddi barmoq vaznidagi sodda vaznga o'xshash, bir xil bo'ladi. Bular, o'z navbatida, cho'ziq va qisqa hijolarga ajratiladi – bu bir. Ikkinchidan, shu cho'ziq va qisqa hijolar misralar aro bir xilda, bir tartibda takrorlanib turadi. Uchinchidan, har bir misraga ajratilgan vaqt birligi talaffuzda bir xil bo'ladi. To'rtinchidan, aruzda yozilgan asarlar hijolarning qisqa va cho'ziqligiga asoslanganligi tufayli yozuvda ularning teng bo'lmaslik hollari ham uchraydi. Aruzning barmoq vaznidan farq qiluvchi asosiy belgilari ham mana shunda.

Talabalar bilan aruz vaznida yozilgan she'rlar matni ustida ish olib borilar ekan, albatta, asosiy diqqatni g'azal janriga qaratmoq lozim. Negaki, g'azal, birinchidan, ma'no va emotsiyal jihatdan eng tushunarli, o'zbek xalqi orasida eng ommalashgan, eng sevimli janr hisoblanadi g'azalning musiqa san'ati bilan uzviy bog'liqligi ham uning xalq orasida keng ommalashib ketishiga, e'zozlanishiga olib kelgan. Zero, g'azal deganda ham she'r, ham musiqa tushuniladi. Ana shu hodisaning o'ziyoq g'azalning tabiatini, o'qilish uslubining yaxshi o'zlashtirilishini talab etadi. Ikkinchidan, G'azal janri ustida ishslash orqali umuman aruzning o'ziga xos xususiyatlari, unda yozilgan she'rlarning ichki va tashqi tabiatini, so'zlarni talaffuz etish yo'llari o'zlashtiriladi. Uchinchidan, g'azal matni bilan shug'ullanish jarayonida aruz vaznida yozilgan she'rlar ustida ishslashning ayrim usullarini belgilash imkoniyati tug'iladi. g'azal ishqiy mavzudangina iborat bo'lib qolmay, balki axloqiy, falsafiy va ijtimoiy masalalarni ham o'z ichiga qamrab olib, poeziya tarixida, estetik tarbiya va ijtimoiy ong rivojida katta rol o'ynaydi. Darhaqiqat, o'zbek adabiyotining taraqqiyoti ko'zdan kechirilganda buyuk Navoiydan boshlab yozilgan g'azallarning mavzusi kengayib, badiiy-tasviriy vositalari boyib borganligi, unda lirika bilan bir qatorda satira va humor keng yoyilganligi ayon bo'ladi. Modomiki,

shunday ekan, g'azallarni o'qishda lirik kechinma bilan chegaralanib qolmasdan, har bir asarning konkret mavzui, g'oyaviy mazmuni va formasiga yarasha ijro uslubi topish maqsadga muvofiqdir. G'azal o'qish uslubini aniqlash uning mavzusini belgilashdan boshlanadi. Zotan, shoир bir mavzuga qo'l urar ekan, oldiga qo'ygan maqsadiga qarab, shakl bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham g'azal mavzusini aniqlash va uning g'oyaviy mazmuni haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lish har bir talaba uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mabodo g'azal faqat ishqiy mavzudan iborat, degan eski tushunchaga asoslanadigan bo'lsak, u holda hamma mavjud g'azallarni bir xil ohangda, g'amginlik yoki o'ychanlik bilan o'qishga to'g'ri keladi. Afsuski, hamon uchrab turuvchi bunday hodisa haqiqatga mutlaqo zid. Chunki g'azalning g'oyaviy-badiiy mundarijasi keng ekan, uning o'qilishi ham turlicha bo'lishi kerak. Fikr qanchalik o'tkir va to'g'ri bo'lsa, intonatsiya ham shu qadar ifodali va ta'sirli bo'ladi. Intonatsiya fikrning talaffuz va ovoz orqali yuzaga keladigan bir ko'rinishdir. Shunday ekan, ma'lum bir badiiy janrda yozilgan adabiy asarlarni bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu janrda yozilgan asarlarni faqat shunday o'qish kerak, deb ham bo'lmaydi. Muayyan bir janrda yozilgan adabiy asarlarga aniq yondoshmoq kerak. Lekin muayyan bir janrda yozilgan asarlarning umumiyligi bo'lgani singari g'azal janridagi asarlarni ijro etishda ham o'ziga xos umumiy shartlar mavjud bo'lib, ular, fikrimizcha, tubandagilardan iborat:

1. Lirik kechinmalarni bayon qiluvchi g'azallarni ijro etish uchun tayyorlayotgan vaqtida undagi mayinlik, ravonlik, musiqiylik va ayrim hollarda xazinlikni saqlash zarur.

2. Odatda har qanday g'azalning birinchi bayti (matla), ya'ni dastlabki ikki misrasi bir-biriga qofiyadosh bo'lib keladi va ularning har qaysisi o'zicha tugal fikrga ega bo'ladi. Ana shu xususiyat talaffuzda ham alohida ifodalanishi shart. Bu – misralar so'ngida keladigan pauzalar va intonatsiyaning yo'nalishi orqali ifodalanadi. Lekin bu yerdagи pauza keyingi toq misralarda ishlatiladigan pauzalardan miqdor jihatidan ham, ovozning intonatsion yo'nalishi jihatidan ham farq qiladi, chunki keyingi toq misralar o'zicha tugal fikrni bildirib kelmaydi. Shuning uchun ham birinchi

misraning so'ngidagi pauza miqdori har qaysi baytning oxirida keladigan pauza miqdori bilan teng bo'ladi.

3. G'azaldagi misralar sust bo'lmasdan, mazmun jihatdan borgan sari kuchayib borishini nazarda tutib, ularni talaffuz etganda, umumiy mazmun bilan bog'lagan holda, tadrijiy o'stira bormoq talab etiladi. Aks holda, misralar bo'shashib, uning ta'sir va ifoda kuchi zaiflashadi.

4. G'azalda qofiyadan keyin, ayrim hollarda, muallifning asosiy maqsadi, uning turli-tuman kechinmalari va holatlarini ifodalovchi so'zlar — radiflar takrorlanib kelishi mumkin. Bunday so'zлarni o'zining mantiqiy yo'naliшhiga qarab ifodalamoq zarur. Masalan:

Ey, Qo'qon boyonlari, sizlardek insonlarga tuf!  
Taltayib faytunda surgan davr-u davronlarga tuf!

Keltirgan baytimizda insonlarga, davronlarga so'zлari bir-biriga qofiyadosh, ulardan keyin kelayotgan tuf so'zi radifdir. Shu so'zda muallifning asosiy maqsadi, uning kechinmalari ifodalangan. Bunday usul she'rning musiqiyligini, ta'sirchanligini oshirish, asosiy zarb tushadigan so'zni ajratish uchun qo'llaniladi. Radiflar, ko'pincha, o'ziga intonatsion zarb berilishini talab etadi.

5. Aksariyat g'azalning so'nggi baytida, ya'ni maqtada shoirning adabiy taxallusi va xulosasi birlashib kelgan bo'ladi. Shuning uchun ham uni talaffuzda boshqa baytlarga nisbatan bo'ttiribroq berish kerak.

Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Maxmur, Mashrab, Muqimiy, Zavqiy singari ko'pgina shoirlarning she'rlarida hozirgi yoshlarimizga tushuniishi qiyin bo'lgan qator so'zlar uchraydiki, ularni anglamasdan, mag'zini chaqmasdan she'rning nafosatini, go'zalligini, g'oyaviy - falsafiy mazmunini bir butun holda tinglovchiga yetkazib berish juda mushkul. Bu, talabadan so'zлarning ma'nosi ustida qunt bilan ishlashni talab qiladi. Zotan, so'z-inson tafakkuri mahsulidir. Bu o'rinda o'qituvchi matnni sharhlash usulidan foydalansa bo'ladi. Chunki matnni, qolaversa, har bir anglashilmagan so'zni sharhlash orqali she'riy asarning umumiy mazmuninigina emas, balki shoirning obrazli va aniq tushunchalarini, falsafiy-estetik

qarashlarini, intonatsiyasini, uning o'ziga xos uslubini aniqlash, belgilash, o'zlashtirish mumkin. To'g'ri topilgan intonatsiya fikni to'g'ri va ta'sirli ifoda qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar fikrda chalkashlik, noaniqlik bo'lsa, bu intonatsiyada ham o'z aksini topadi. Intonatsiyani to'g'ri belgilash va tinglovchilarda lozim kayfiyat tug'dirish esa asarni chuqur o'rganishga bog'liq.

Demak, o'qish va o'qitish jarayonida she'r matnini sharhlash usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Zero, bo'lajak ijrochi talabalik davrida qancha ko'p she'r o'qisa, uni mumkin qadar ko'proq, o'qituvchining yordamida sharhlab chiqsa, tushunib, ijro etsa, keyingi mustaqil ijodiy ish uchun puxta zamin tayyorlanadi.

She'riy asarlar matni ustida aytib o'tilgan usulda ishlash talabalarini she'riy asarni eshitva his eta bilishga o'rgatadi; nutqini tartiblashtiradi, go'zallashtiradi, ko'rish va obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi; so'z boyligi va bilim darajasini oshiradi; kelajakda mustaqil ijodiy ish olib borishi uchun puxta va asosli zamin tayyorlaydi.

### **Nasriy asarlar ustida ishlash uchun namunalar**

#### **Hikmat va Ibratlar**

Borliqdagi barcha narsa-hodisa o'ziga xos yaratilgan. Ularning har biri muayyan shakl, ko'rinish, rang, tus, maza, ta'mga ega. Narsa-hodisalar o'zlarining ayni shu jihatni betakrorligi bilan jozibali ko'rindi, e'tiborni tortadi. Nega shunday? Nima uchun aynan o'xhash narsa-hodisa mavjud emas? Borliqning bu «ish»ida ham g'aroyib hikmat bor. Bu xususda mushohada qilish, o'ylash kerak, xolos. Fikr yuritishga intilgan kishi esa zerikish nima ekanligini bilmaydi. Chunki u tevarak-atrofidagi har bir narsada ajoyib sir-sinoat borligini ko'radi. Ularni ko'rib, kuzatib, mushohada qilib, hayratga tushadi. Hayotida yuz berayotgan, boshidan kechirayotgan har bir voqe-a-hodisa bejiz emasligi, ular ortida allaqanday sir-sinoat turganiga ishonchi ortib boraveradi. Dunyoda hech bir hodisa sababsiz ro'y bermasligini anglab, hayratga tushadi.

Odamlar dunyoni turlicha ta'riflashadi. Kimdir uni «darsxona» desa, kimdir «G'amxona» deydi. Yana birov «dunyo-oyna» desa, yana allakim «dunyo-yolg'onchi» deydi. Chunki dunyo bunday

turfa-tuman ta'riflarning barchasiga loyiq turadi. U muttasil o'zgaradi: bir zumda nurga to'ladi, bir pastda zulmat bo'lib ko'rindi. Unda bir-biriga qarama-qarshi kecha-kunduz, nur-soya, issiqsovut, oq-qora bor. Borliq ana shunday o'zaro zid narsa-hodisalarga to'laligi bois unda ezgulik va yovuzlik to'xtovsiz kurashadi. Bu murorasiz kurash nabotot dunyosida ham, hayvonot olamida ham, odamlar orasida ham kuzatiladi. Ana shu muttasil olishuv tufayli borliq to'xtovsiz harakatlanadi. Bu jarayonni ko'rish, kuzatish kishini gohida quvontirsa, ba'zida qo'rquvg'a soladi. Mushohada qiladigan kishilar borliqning har bir hodisasida, dunyoning har bir ishida cheksiz hikmat ko'rishiadi. Unda yashiringan sir-sinoat to'g'risida fikr yuritib maroqlanishadi. Dunyoning go'zalligini, u beqiyos mukammal yaratilganini, unda sababsiz hech bir o'zgarish yuz bermasligini his qilishadi.

Hayot hodisalaridan saboq ola bilganlar sabr-bardoshli bo'lishadi. Ular shu tufayli dunyoning boshqalar anglamagan sir-sinoatlarini anglashadi.

Hayot hech qachon to'xtamasligi, dunyoning yaxshi-yomon barcha ishlari o'tkinchi ekanligi, quvonch ham, qayg'u ham, qashshoqlik ham, boylik ham abadiy emasligini tushunib etishadi. Ortiqcha shodlikka berilish takabburlik, behad iztirobga tushish noshukrlik ekanini ichki bir kuch ta'sirida sezishadi. Shu bois ular boshqalarga: «Birni ko'rib fikr, birni ko'rib shukur qiling» deyishadi. Ularning fe'l-atvoriga, yashash tarziga atrofdagilar beixtiyor havas qilishadi.

Kishilarga hayot yo'llarida saboq bo'la oladigan talaygina hikoyat, rivoyat, ertak, masallar mavjud. G'arb-u Sharq donishmandlarining hikmatga yo'g'rilgan o'git-nasihatlari, ramz, ishoralarga boy masal, matallari xalqning uzoq asrlik turmush tajribasining qaymog'i-maqollar xususida ibrat va xulosalar chiqarilgan. Ular har bir kishining qalbiga tunganmas quvvat beradi. Bu ma'naviy-ma'rifiy quvvat nuri ko'pchilikning hayot yo'lini yoritadi.

Quyosh nuri, oyning yog'dulari nabotot, hayvonot dunyosiga, kishilarga hayot baxsh etadi. Ammo odamlarga quyosh, oy nuridan tashqarii, ma'naviyat, ma'rifat nuri ham kerak. Bu nursiz kishilar hayoti zulmatga aylanadi.

Hikmat va ibratlar yosh avlodni komil inson darajasida tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Donishmandlarning o'gitlari, nasihatlari yoshlarni to'g'ri hayot tarzini tanlashda ularga dasturil amal vazifasini o'taydi.

Siz ham shu ma'rifat nuriga intilib, hayotning har bir hodisasi haqida mushohada yuriting. Ulardan ibrat oling.

*Ibrat*

### **Qovoqari va asalari**

Bir kuni qovoqari asalarini o'ldirmoqchi bo'ldi. Chorasiz qolgan asalari qovoqariga faryod qila boshladi:

— Ey, aziz qardoshim! Atrofda shuncha ko'p bol bor ekan, ularning qo'yib nechun menga nashtaringni sanchib, o'ldirmoqchisan, — dedi.

Qovoqari:

— Ey asalari! To'g'ri aytyapsan, lekin sen bol xazinasisan, bolning qaynog'i senda, — dedi.

### **Hikmat**

Mulla Jomiy kishilarga katta bir hiqiqat darsi berish bilan shunday demoqchilar: «Hayotda asalari kabi shifobaxsh kishilarni ba'zi yomon, axloqsiz kimsalar ta'qib ostiga olib, yo'q qilishni istaydilar. Ularning eng shirin so'zлari, hatto, yolvorishlari ham yovuz kimsalarning rahmini keltirmaydi. Rahmsiz kimsalar dono olimlarni o'ldirish bilan rohatlanadilar». Shu boisdan aytadilarki, «Olimning o'limi — olamning o'limidir. Olimni o'ldirmoq — olamni o'ldirmoq. Olimning tirikligi — olamning tirikligidir».

### **ILOVA**

Talabaning tushuncha va taassurotlarini yanada to'ldirish, fikr — mulohazalarini boyitish hamda ijro uchun belgilangan maxsus parchalar majmuasiga bo'lgan ehtiyojni nazarda tutib, ijro uchun yaxshi manba bo'la oladigan asarlardan parchalar havola etiladi.

### Oq kema

Bu juda qadimda bo'lib o'tgan. Zamonlarning zamonida, yer yuzida maysalardan ko'ra dov-daraxtlar ko'p bo'lgan, qo'rg'oq yerlardan ko'ra o'lkamizda obi hayot mo'l bo'lgan davrlarda bir qirg'iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo'yida yashardi. Bu daryoni Enasoy deb atashardi. U bu yerlardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerlarga otda uch yil uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Enisey deyishadi, ilgarilari Enasoy deb yuritishgan. Enasoy bo'yida turli xil elat yashardi. Ular g'oyat og'ir hayot kechirardi, chunki ular bir-birlariga doimo adovat ko'zi bilan qarar edilar. Qirg'iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg'izlarning o'zi ham boshqalarga chovut solib, mollarini haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarni o'ldirishardi. Shu zaydakun o'tgan sayin ko'proq qon to'kilardi. Odamlarda aql o'tmaslashib borardi. Dushmanlarni yarashtiradigan, insofga keltiradigan odam yo'q edi. Dushanba qiron keltirib, o'zga qabilaning so'nggi odamigacha, qonini oqizgan, molu mulkini qo'lga kiritgan odam eng aqlii va uddaburon sanalardi.

O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovoziga o'xhash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shoxdan-shoxga sakrab so'ylardi: «Katta baxtsizlik bo'ladi! Katta baxtsizlik bo'ladi». Shunday bo'ldi ham, o'sha qora kun keldi. O'sha kuni qirg'iz qabilasi Enasoy bo'yida o'zining buyuk oqsoqolidan judo bo'ldi. Botir Qulchi ko'p yillar yo'lboshchilik qildi, ko'pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlар ikki kun katta g'am-alamda o'rtandilar, uchinchi kun esa, botirning jasadini yerga topshirgani yig'ildilar. Eski odatga ko'ra, buyuk oqsoqolni Enasoyning o'nqir-cho'nqirli qirg'og'i bo'ylab, so'nggi yo'lga kuzatish lozim edi, toki marhumning ruhi Enasoy daryosi bilan yuksaklikda judolashsin, axir «Ena!» — bu ona demak, «soy» esa — bu daryoning o'zani-ku.

O'sha kuni hamma tayyorgarlik ko'rib bo'linganda quyosh uyqudan bosh ko'targandi. Uchiga otning dumi bog'langan tug' va

botirning urush aslahalari — nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn etish yopiqlari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovor kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahtlari bilan urishga shay edilarki, toki o'rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig' osmonga ko'tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtiqich hayvonlar bo'kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab, tog'larni larzaga keltirsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib, botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta og'ir jasadini bezovta qilmay ko'tarish uchun tiz cho'kkani edilar. Hamma narsa botirni oxirgi yo'lga kuzatib qo'yishga tayyor edi. O'rmon etagida esa to'qqizta biya, to'qqizta ho'kiz, to'qqizta qo'y qurbanlik uchun hozirlab qo'yilgandi.

Shunda kutilmagan hodisa ro'y berdi. Enasoyliklar bir-biriga har qancha dushman bo'lmasin, oqsoqollarining dafn marosimi kunlarida bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagandi. Mana hozir esa, bir to'da dushman g'am-anduhga botgan qирг'oqdагиларни tong chog'i to'rt tomondan sezdirmay o'rab kelib, pistirmalardan barobariga otolib chiqib, hamlaga o'tdilarki, oqibatda hech kim otga ham mina olmadi, qo'liga qurol ham ola olmadi. Shu tariqa ko'z ko'rmagan: qирг'in urush boshlandi. Hammani bir chekkadan o'ldira boshlashdi. Yengimas qирг'iz qabilasini bir hamla bilan qirib tashlash — dushman rejasi ana shunday edi. Hammani bir boshdan qilich domidan o'tkazishdi, toki bu yovuzlikni eslab, hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o'tmish izlarini qumlar bilan ko'mib yuborsin. Tuya ko'rdingmi-yo'q... Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa — hammasidan oson.

*O'tkir Hoshimov*

### **Illi karra illi besh**

G'ira-shira esimda. Tomsuvoq boshlangan kezlar edi. Tomsuvonni bilasizmi? Ha, yashang! Tomorqadagi xuddi o'sha yong'oq tagidan loyxandaq qazib, somon bosishdi. Loyni somonga aralashtirib rosa qorishdi. Dadam shiminining pochasini qayirib, loyxandaqqa kirdi.

Hasharchilarning paqiriga paydar-pay loy solib turibdi. Hasharchilar zippillab tashib turibdi. Ey, do'xtirjon, siz bilmaysiz. Qishloq joyda hashar desa, hamma yopirilib keladi. «Qayoqqa, nimaga», deb surishtirib o'tirish nomardlik bo'ladi. Xullas, hovlimizga tumonat odam to'plandi. Qarasam, bashang kiyangan, o'zim bilan teng bola yong'oqqa kesak otyapti. Shunaqangi do'mboq, shunaqangi dumaloq bolaki, ho'ppa semiz, quyonga o'xshaydi. Otgan kesagi tom baravar ko'tarilsa, o'la qolay! «Hoy, kimsan?» desam, yig'lamsirab «yong'oq» dedi. Chaqqonligimni bir ko'rsatib qo'ygim keldi. Kaftimga tuflab turib, yong'oqqa tirmashganim esimda. Mehmon bolani yong'oqdan siylay qolay, deb maymundek tipirchilab, daraxtning qir uchiga chiqqanim ham esimda. Yong'og'imiz ham xo'p meva solgan ekan o'zil! Har bittasi olmadek keladi jonivor! Tag'in g'ujg'uj. Eng yuqoridagi shoxni siltaganimni bilaman. Bir mahal qarasam... televizorda ko'rsatadigan suvga sho'ng'uvchilar bork-u, o'shang a o'xhab loyxandaqqa kalla tashlab tushyapman. Oyoq-qqo'llarimni juftlab olganman. Hali tushyapman, hali tushyapman, qani loyxandaqqa yetsam. Bir mahal «shulq» etgan ovozni o'zim ham eshitganday bo'ldim. U yog'i esimda yo'q. Keyin aytib berishdi. Loyxandaqning qoq o'rtasiga boshim bilan sanchilib qolibman. Dadam ishga qiziqib ketib, sezmabdi ham. Hatto, bir-ikki marta ketmonning orqasini juftlashtirib turgan oyog'imga qoqib, loyni tozalabdi. Qoziq deb o'ylaganda! Anchadan keyin charchab «perekur» qipti. Nosqovog'ini tovonimga urib-urib tagidagi yopishib qolgan nosini ko'chirmoqchi bo'lgan ekan, qitig'im kelib, oyog'imni tipirlatib qolibman. Qitig'im yomonda! Otam turgan joyida taxta bo'lib qolibdi. Hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketibdi. Ko'plashib loyxandaqdan sug'irib olishdi. Yuvib tarab, bunday qarashsa, boshim tars yorilib ketgan emish. Men bo'lsam, yig'lash o'miga kulib yotgan emishman. To'g'risini aytaymi? O'shandayam onam «Voy bolajonim, senga nima bo'ldi», deb yig'laganida kulib turaveribman. Sal-pal esimda bor. Negadir o'shanda onam ko'zimga ikkita bo'lib ko'rindi. Ovozi bitta-yu, o'zi ikkita. Uch kun ichida hech nima ko'rmagandek o'ynab ketdim. Dadam jo'ralariga maqtandi «Bizning o'g'il malades! Tegirmonga tushsa, butun chiqadi».

*O'ikir Hoshimov*  
**Laylak**

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona - bola qishloqqa - uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib, atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq guzarida yarmini yashin urib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib, angrayib qoldi: chinorning tarvaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi.

Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtadi.

- Anavi nima, oyi? - so'radi o'sha tomondan ko'z uzmay.
- Laylak, o'g'lim, laylak! - ona o'g'lining boshini silab qo'ydi.
- Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi .U yana to'xtab qoldi.

- Nima u oyi? - dedi tag'in chinor uchiga ko'z tashlab.
- Laylak, o'g'lim, laylak.
- Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kului:

- Bir oyog'i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Oyog'i uzun qush negadir bo'ynini cho'zib, tumshug'ini osmonga qaratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshitilardi.

Bola tag'in to'xtab qoldi.

- Nima o'zi u, oyi?

Uning ko'zlarida quvonch bor edi, hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

- Laylak dedim-ku, jinnivoy, - deb ohista egilib, o'g'lining yuzidan o'pdi. - Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

...Oradan o'ttiz yil o'tdi. Bola yigit bo'ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog'idan mador, ko'zidan nur ketdi.

Kunlardan bir kun ona-bola ittifoqo yana o'sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, ona esa toliqgan

oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosgancha, harsillab borar edi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorming tarvaqaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydi-yu, qadamini tezlatdi.

Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

— Anavi nima, o‘g‘lim? — dedi to‘xtab.

— Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadni. Uch-to‘rt qadam yurib, yana to‘xtab goldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Tavba...

— Nima, o‘g‘lim? — dedi ko‘zlarini pirpiratib.

O‘g‘il taqqa to‘xadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

— Laylak! — dedi jerkib. — Laylak deyapman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan yurib ketdi.

Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko‘p. Hali shaharga qaytishi kerak. Uning g‘o‘r, go‘dak bolalari bor...

*Maksim Gorkiy*

### Xo‘inning onasi

Onalar haqida gapirgan bilan gap tamom bo‘lmaydi.

Temir qalqon kiygan yov bir necha haftadan beri shaharni qamal qilib olgan edi.

Xonadonlarda chiroq yoqishdan qo‘rqardilar, ko‘chalarni qop-qorong‘u zimiston qoplardi. Shunday tunlarda daryoning tagida suzib yuruvchi baliq kabi, qora sholga o‘ralgan bir ayol ko‘chalardan o‘tib qolar edi. Uni ko‘rgan odamlar bir-birlaridan so‘rardilar.

— Shumi?

— Shu!

So‘rab darhol darvozalariga kirib berkinishar yoki uning yonidan chopib o‘tib ketishardi. Patrul boshliqlari esa uni jiddiyatlilik bilan ogohlantirar edilar:

— Yana ko'chaga chiqdingizmi, Monna Marianna? Ehtiyyot bo'ling, sizni o'ldirishlari mumkin, keyin gunohkorni hech kim ayblamaydi...

Ayol qaddini ko'tarib, qismatini kutib turardi, ammo patrul yo jur'at etolmay, yo bo'lmasa qo'l urishga hazar qilib, unga tegmay o'tib ketar edi. Qurolli kishilar murdadan hazar qilganday, undan nari o'tib ketardilar. U esa hamon qorong'ulikda turar, so'ngra yana o'zi sekin-asta yo'lga tushib, xuddi butun shaharga tushgan kulfatni o'z ichiga sig'dirganday, so'zsiz, indamay ko'chadan o'tar, qayoqqadir borar edi.

Ona o'z farzandi va o'z vatani haqida o'yldi. Shaharni vayron etgan kishilarning boshida uning o'g'li, xushchaqchaq va shafqatsiz xushro'y c'g'li turar edi. U yaqindagina o'g'liga vatanga o'zi taqdim etgan qimmatbaho sovg'a, o'zi tug'ilib o'sgan, o'g'lini ham tug'ib, katta qilgan shahar aholisiga madad beruvchi polvon deb qararfaxrlanar edi. Uning qalbi qadim zamonlardan qolgan shu toshlar bilan, ota-bobolari bino etgan tosh imoratlar va devorlar bilan, qon-qarindoshlarining suyaklari ko'milib yotgan yer bilan, odamlarning afsonalari, qo'shiqlari va tilak-umidlari bilan chambarchas bog'langan edi. Mana shu qalb, shu yurak o'ziga eng yaqin kishini yo'qotib, yig'lardji. U bir tarozu edi, ammo farzandga bo'lgan muhabbat bilan shaharga bo'lgan sevgini tortib, qaysi biri og'irligini bilolmasdi.

Shu ko'yida u kechalari bilan ko'chalarda yurib chiqardi; ko'p odamlar uni oldin tanimay, uning qop-qora siymosini hammaning ustiga kelgan ajal deb, qo'rqliishiadi. Keyin tanigach, xoinning onasidan indamay o'zlarini chetga olardilar.

Biroq bir kun, xilvat bir joyda, shahar devorining tagida u boshqa bir xotinni ko'rib qoldi: u xotin bir o'lik yonida tiz cho'kib toshday qotib qolgan edi. Harakatsiz yuzini yulduzlarga qaratib fotiha o'qirdi, uning tepasida, devor ustidagi qorovullar sekin-sekin suhbatalashar edilar.

Xoinning onasi so'radi:

- Eringmi?
- Yo'q.
- Iningmi?

— Farzandim. Erim o'n uch kun ilgari halok bo'ldi, o'g'lim — bugun.

Halok bo'lgan farzandning onasi oyoqqa turib, taqdirga tan berib, dedi:

— Hammasini Madonnaning o'zi biladi, hammasi unga ayon, Madonnamga shukr!

— Nimasiga shukr qilasan? — deb so'radi bиринчи айол. Ikkinchisi aytdi:

— Endilikda o'g'lim vatan uchun halol kurashib shahid bo'lgandan keyin men aya olaman: u yengiltak, o'yin-kulgini jonidan ortiq ko'rardи. Shuning uchun ham xudo va inson dushmani, yovlarning boshlig'i bo'lgan Mariannanинг o'g'li singari u ham o'z shahriga xiyonat qilmasa deb qo'rqardim. La'nat xoinga, la'nat o'shani tuqqan onaga!

Marianna betini berkitib ketdi. Ertasi kuni erta bilan shahar himoyachilarining oldiga kelib dedi:

— O'g'lim sizlarga dushman bo'lgani uchun yo meni o'ldiringlar, yo darvozani ochib beringlar, men uning yoniga ketay...

Unga javob aytdilar:

— Sen — inson, senga vatan qimmat bo'lmog'i kerak; o'g'ling bizga qanchalik dushman bo'lsa, senga ham shunchalik dushman.

— Men — onaman, men uni sevaman va uning shunday bo'lishiga men gunohkor!

Ular ayolga darvozani ochib, shahardan chiqarib yubordilar va o'g'li to'kdirgan qon-la mo'l sug'orilgan jonajon tuproqni bosib borishini uzoq vaqtgacha kuzatdilar. U oyog'ini yerdan zo'rg'a-zo'rg'a ko'tarib, shahar himoyachilarining jasadlariga ta'zim qilar, pachoqlangan yarog'-aslalahaldan hazar qilib oyog'i bilan chetga itarib, sekin-asta ketib borar edi.

Ayolning yarim yo'lga borib to'xtaganini, boshidan chodirini olib tashlab, shaharga uzoq tikilib qarab qolganini ko'rdilar. Narigi tomondagilar, dushman lageridagilar ham keng yaylovda yolg'iz turgan ayolni ko'rib qolishdi.

Ayol yoniga kelib, « kimsan, qayoqqa ketayotirsan? deb so'radilar.

— Sizlarning sardoringiz mening o'g'lim bo'ladi, — dedi ayol va soldatlarning hech biri bunga shubha qilmadi. Uning bilan yonmayon boruvchi soldatlar uning o'g'lini mard va bahodirligi haqida entikib so'zlardilar. U esa boshini mag'rurona baland ko'tarib, hech narsaga ajablanmay olg'a borardi.

Nihoyat u, tug'ishdan to'qqiz oy burun bilgan, o'z qalbiga eng yaqin sezgan odam huzuriga keldi. Ayolning oldida shohi va baxmal liboslar kiygan, aslahalari qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan o'g'li turardi.

— Onam! — dedi u, onasining qo'lini o'pib. — Sen meni deb kelibsan, demak mening orzuimga tushunibsang, ertagayoq bu la'nati shaharni zabit etaman!... Men shu dunyoda yashash va shu dunyoni hayratlan-tirish uchungina tug'ildim! Men seni deb bu shaharni ko'zim qiyimaydi, u oyog'imga kirgan tikan kabi, shuhurat sari borishimga xalal beradi. Ammo endilikda, ertagayoq bu o'jarlar uyasini tor-mor etib yuboraman!

— Bu uyaning har bir toshi sening bolalik chog'ingni biladi va eslaydi, — dedi ona.

— Agar inson majbur etmasa toshlar ham soqov, tog'lar kuylasin meni, shuni istayman!

— Insonlar-chi? — deb so'radi ona.

— Ha, ular mening esimda, ona! Ular menga nihoyatda kerak, chunki faqat insonlar xotirasidagini qahramonlar tirik qoladilar!

Ona dedi:

— O'limga qaramay hayot baxsh etuvchilar, o'limni yenguvchilargina tirik qoladilar!

Ona bilan farzand quyosh botguncha shu ko'yda so'zlashdilar.

Ona o'g'lining telba so'zlarini kesmay qo'ydi, uning mag'rur boshi borgan sari quyi solinardi.

Yaratuvchi ham — ona, himoya etuvchi ham — ona, uning huzurida barbod etish to'g'risida so'zlash — unga qarshi chiqish degan gap, ammo o'g'ilning bunga fahmi etmas edi, demak, onani inkor etardi.

Ona ikki bukilib o'tirardi. Butun qadrdon va jonajonlar uning hukmini kutib turardi, o'zini shahardagi barcha kishilarning onasi deb sezardi.

— Agar tun yetarli darajada qorong'u bo'lib bersa, balki shu kun kechasi shaharga hujum qilarmiz. Ko'zga oftob urib turganda,

aslahalarning yaltirashi ko'zni qamashtirganda odam o'ldirish qiyin bo'ladi, chunki qo'l adashadi, — o'g'il qilichini sinab turib.

Ona dedi:

— Kel, boshingni ko'kragimga qo'y, yoshligingda qanday sho'x va xushchaqchaq bo'lganiningni, hamma seni yaxshi ko'rib erkalashini eslab, dampingni ol...

O'g'il ko'ndi, onasining oldida tiz cho'kdi-da:

— Shuhratni va meni shunday o'g'il qilib tuqqan sen onamni sevaman, — deya, ko'zini yumdi.

— Xotinlar-chi? — deb so'radi ona, unga engashib.

— Xotinlar haddan ortiq ko'p, har qanday shirinlik kabi, ular ham tez jonga tegadi.

Ona so'nggi marta so'radi:

— Farzand ko'rish orzusi yo'qmi senda?

— Nima keragi bor? Ularni birovlar o'ldirsin uchunmi? Menga o'xshagan kimsa o'ldirib ketsa, ozor ko'rsam, ammo qarib qolib ularni himoya qilishga kuchim yetmasa...

— Sen chaqmoq kabi go'zal, ammo samarasizsan... — dedi ona og'ir nafas olib.

O'g'il jilmayib dedi:

— Ha, chaqmoq kabiman...

O'g'il shunday dedi-da, onasining ko'kragiga boshini qo'yib, go'dak singari, uyquga ketdi.

Shunda ona, o'g'lining ustini qora chodir bilan yopib, uning qalbiga pichoq soldi, o'g'il bir seskandi-da, shu onda jon berdi — ona o'z farzandining yuragi qayerdaligini yaxshi bilar edi. O'g'lining jasadini tizzasidan hayratda qolgan soqchilar oyog'i tagiga olib tashladi-da, shahar tomonga qarab, dedi:

— Insonman — vatan uchun qo'llimdan kelganini bajardim. — Onaman — o'z farzandim yonida qolaman! Yana boshqa farzand tug'ishga qariman, mening umrim hech kimga darkor emas.

Ona shunday dedi-yu, yana o'sha pichoqni, farzand qoni — o'z qoni bilan hali iliq turgan pichoqni o'z ko'kragiga sanchdi, pichoq bu safar ham yurakni adashmay topdi - og'igan qalbni topish qiyin emas edi.

### **Singil va akalar**

Ikki eman daraxt o'sgandi qator,  
Bular o'rtasida bir nozik archa.  
O'sgan eman emas – ikki og'ayni,  
O'sib ulg'ayishib birga yashardi:  
Biri Pavel edi, biri Radula,  
Bular o'rtasida – singil Eliza.  
Akalar sevardi yolg'iz singilni,  
Unga chin yurakdan bo'lib mehribon:  
Bir kuni bir pichoq taqdim etdilar,  
O'zi zarhallangan,qini kumushdan.  
Ranjiydi yangasi – u yosh Pavlixa,  
Qayin egachiga qiladi hasad.  
Deydi Radulaning xotiniga u:  
«Ovsin, menga qara, qadrdon singil,  
Eshitmaganmisan shunday bir o'tni:  
Uni ezib ichgan kishi daf'atan-  
O'z tug'ishganiga ko'rinsin yomon?»  
Radula xotini beradi javob:  
Xudo haqi, opa, qadrdon ovsin,  
Bilmayman bundayin irimli o'tni,  
Bilganda ham senga aytmasdim aslo.  
Akalarim shunday meni ham sevgan,  
Menga ham xilma-xil sovg'a berishgan.  
Mana, otxonaga bordi Pavlixa,  
To'riq otni so'yib qonin oqizdi,  
Qaytib kelib dedi o'z eriga u:  
«Singlingni sevishing o'zingga balo,  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
O'ldiribdi sening to'riq otingni».  
Pavel Elizani qiladi so'roq:  
«Bu nega, ayt menga, ayt xudo haqi»  
Singlisi yosh to'kib javob beradi:

«Men emas akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqi qasamyod!»  
Ishonar, hech narsa demas akasi.  
Mana, ko'm-ko'k bog'g'a kirdi Pavlixa,  
Shartta ko'k lochinning boshini uzdi,  
Qaytib kelib dedi o'z xo'jasiga:  
Singlingni sevishing o'zingga balo,  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
Mana o'ldiribdi ko'k lochiningni.  
Pavel Elizani qiladi so'roq:  
Bu nega? Ayt menga, ayt xudo haqi?  
Singlisi yosh to'kib beradi javob:  
Men emas, akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqi qasamyod!  
Bu gal ham ishonar akasi yana.  
Qorong'i kechada Pavlixa sekin  
Qayin egachisin pichog'in oldi,  
O'zining norasta yolg'iz o'g'lini  
Oltin beshigida so'yib o'ldirdi.  
Ertalab yugurib bordi eriga,  
Yig'lab faryod solib sochlari yuldi  
Singlingni sevishing o'zingga balo,  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
Mana, o'ldiribdi o'g'limizni u,  
Agar ishonmasang bu gal ham menga,  
Borib ko'rgil uning zarhal pichog'in.  
Sakrab turdi Pavel shu zamon,  
Eliza uyiga yugurib bordi.  
Singlisi to'shakda uxlab yotardi,  
Boshida osig'liq zarhal pichog'i.  
Qinidan sug'irib qaradi Pavel, —  
Pichoq bo'ylagandi qip-qizil qonga.  
Siltab tortdi qizning oppoq qo'lidan:  
Xudo urgur singil, bu nega aytgil?  
Otxonada to'riq otni o'ldirding,  
Bog'da ko'k lochinning uzding boshini,

Endi bolamizni so'yibsan, nega???  
Singlisi zor yig'lab javob beradi:  
Men emas akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqi qasamyod!  
Agar ishonmasang mening ontimga,  
Olib chiq mayliga taqir dalaga,  
Bog'lagin yugirik otlar dumiga,  
Ular sudrasinlar oppoq tanimni,  
Sadpora qilsinlar, roziman, mayli.  
Singlisiga endi ishonmas aka,  
Olib chiqdi uni taqir dalaga,  
Yugurik otlarning dumiga bog'lab,  
Sudratib haydadi otlarni quvib.  
Uning tomchi qoni tomgan har yerdan  
Qirmizi lolalar, chechaklar undi.  
Beginoh va oppoq tani ustida,  
Katta cherkov bo'libdi paydo.  
Shundan bir oz fursat o'tgach, Pavlixa  
Bir og'ir kasalga bo'ldi mubtalo.  
To'qqiz yilcha davom etdi bu kasal,  
Butun suyagidan o'tlar ko'kardi.  
Bu o'tga in qurib yovuz ilonlar,  
Kunduz ko'zin so'rib, tunda yotardi.  
Ilon Pavlixani qiyndi shunday.  
Oxiri eriga yalinib dedi:  
Arzim eshit, to'ram, meni olib bor,  
Qayin egachimning cherkovi tomon  
Zora, shifo topsam men o'sha joydan.  
Eri yetakladi cherkovga tomon,  
Yaqinlashar ekan oq uyga ular,  
Birdan u tomondan chiqdi bir ovoz:  
Kelma, bu tomonga, ey yosh Pavlixa,  
Bo'lmaydi sen uchun bu yerda shifo.  
Ovozni eshitgach bu yosh Pavlixa,  
Yalinib yolvordi o'z xo'jasiga:  
To'ram, xudo haqi, so'rayman sendan,

Olib borma meni oq uyga, to'xta!  
Yugirik otlarning dumiga bog'lab,  
Keng, taqir dalada sudrat meni ham!  
Xotinning arzini tingladi Pavel,  
Yugirik otlarning dumiga bog'lab,  
Keng, taqir dalaga qo'yib yubordi.  
Uning tomchi qoni tomgan har yerdan  
Tikan, qichitqonlar o'sib chiqardi.  
Uning oppoq tani qolgan o'rinda  
Ajoyib, katta bir ko'l bo'ldi paydo.  
To'riq ot shu ko'lda suzib yuribdi,  
Uning orqasidan zarhal pichoq ham,  
Beshikning ustiga ko'k lochin qo'ngan,  
Unda norasida go'dak yotibdi.  
Bolaning bo'g'zida onaning qo'li  
hamda ammasining zarhal pichog'i.

*S. Akbariy*

### **Qora g'unchalar**

Shoyi kapalaklarning  
Yumshoq yelpig'ichlari  
Jim, jim.

Ko'k shamollar  
Gullarning shirin o'pichlari  
Jim, jim.

Pildiragan irmoqlar  
Chalmay turing kumush qo'ng'iroq  
Jim, jim.

Tabiatning zilol ko'zlari  
Xayolimni sudramang yiroq  
Kim, Kim.

Shakarqamishlarmi yo  
Tiriklarning yupqa soyalari  
Balkim.

Hidsiz gerbaryylardir  
Balkim quritilgan Nil xurmolari  
Jim, jim

Birdan tikilganimcha  
Titrab yig'lab yubordim ichda:  
Oqsum bolalari ekan bu tugunchalar,  
Mo'miyolab qo'yilgan qora g'unchalar.

Nozik ayriga o'xshash  
Oyoqchalar,  
Qizil kun ko'ringan  
Qulooqchalar.

Og'izlari qonsiz  
Gullarday yumuq.  
Gullar soyasiday  
Vaznlari yo'q.

Suyak bilan yurag-u  
Ingichka ichak  
Qancha kelardi, axir  
Oshqozonlarida faqat  
Onaning to'ymas suti  
Po'stloq shimgan lablari taxir.  
Oh, Oqsum bolalari yengil tugunchalar.  
Kulishni bilmagan qora g'unchalar!  
Oppoq surp bilan emas,  
Barglar-la yo'rgaklangan  
Bolalarning aybi ne?  
Savanna ostobida  
Yiltiratib loklangan

Bolalarning aybi ne?  
Nahot, qaymoq, shirin non,  
Nahot saryog'li yovg'on,  
Nahot bir kosada sut,  
Shu tugmaday og'izlarga yetmasa?  
Nahot ular yosh xurmoday yechinib,  
Kiyim-boshsiz yalong'och  
O'tib ketsa dunyodan  
Bolalikning lazzatini totmasa?  
Qo'g'irchoq o'yashlardan  
Mahrum etilganlarning  
Qurigan gulday hidi.  
Yadrolar xarajati  
G'ijimlangan ana shu  
Hayot parvarishiga  
Berilsa bo'lmasmidi?  
Harbiy kazarmalarmas,  
Oppoq yasliiar kerak!  
Urush maydonlarimas  
Oltin fasillar kerak!  
Asrimiz tinch o'rgansin  
O'yinchoq yasashlarni  
Rohatda yashashlarni!  
Jim, jim.  
Oqsum bolalari ekan bu tugunchalar  
Mo'miyolab qo'yilgan qora g'unchalar...

*E. Vohidov*

### **Fuzuliy haykali qoshida**

Yellar, bir daqqa to'xtang esishdan,  
Sernavo bulbullar, sayramang bir oz.  
Karbalo dashtida yayov kezishdan  
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.

Dengiz, to'lqinlaring urma qirg'oqqa,  
Shoir o'ylariga bermagil xalal.  
Ustoz yuragida she'r tug'ilmoqda,  
Dunyoga kelmoqda bir munis g'azal:

«Sabo ag'yordan pinhon g'amim dildora izhor et,  
Xabarsiz yorimi holi xarobimdan xabardor et,  
Ko'ngil, g'am gunlarin tanho kechurma, ista bir hamdam,  
Ajal xobindin afg'onlar chekib Majnunni bedor et».

Yaproqlar tebranar she'r maqomiga,  
Chechaklar jimgina egib turar bosh.  
Marmar sarhovuzning kumush jomiga  
Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.  
Boku bog'lariga cho'kmoqda oqshom,  
Dengiz mavj uradi toyvanib zarhal.  
Shoir yuragidan toshganda ilhom,  
Yosh bilan quyulib keladi g'azal:  
«Parishon holing o'ldim, so'rmading holi parishonim.  
G'amidgan darda tushdim, qilmading tadbiри darmonim,  
Na dersan, ro'zigorim bo'yłami kechsun, go'zal jonim.  
Go'zim, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim».  
Oshiqlar uxlaydi saharga tomon  
Fuzuliy devonin boshiga qo'yib.  
Majnun sevgisidan o'qilsa doston,  
Bulbullar tinglaydi butoqqa qo'nib.  
Xalqim jondan sevar dilbar kuylarni,  
Xalqim she'riyatga shaydodir azal.  
Nechun band etmasin fikr-u o'ylarni,  
Nechun mahv etmasin qalblarni g'azal?!

«Muqavvas qoshlaringkim, o'sma birla rang tutmishlar,  
Qilichlardirki qonlar to'kmak ila zang tutmishlar  
Sahar bulbullar afg'oni dagil behuda gulshanda,  
Fuzuliy nołai dilzo'zina ohang tutmishlar».  
G'azal ham bo'lurmi muncha dilrabo,  
Bunchalar serishva, bunchalar sernoz.

Mening shoirligim yolg‘ondir, ammo  
Fuzuliy she’riga oshiqligim rost.  
Majnundek beorom bo‘lib qolganim  
Sarsari yugurgan to‘lqinlar aytsin,  
Kechalar uyqusiz she’r yod olganim  
Tongi ufqdag‘i yolkinlar aytsin;  
«Shifoi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landan so‘r,  
Zuloli shavq-zavqin tashnayi diydor o‘landan so‘r.  
Ko‘zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g‘ofil,  
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r».  
Yellar, bir daqiqqa to‘xtang esishdan,  
Sernavo bulbullar, sayramang bir oz.  
Karbalo dashtida yayov kezishdan  
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.  
Dengiz, to‘lqinlarining urma qirg‘oqqa,  
Shoir o‘ylariga bermagil xalal.  
Ustoz yuragida she’r tug‘ilmoqda,  
Dunyoga kelmoqda yangi bir g‘azal.

*B. Turobova*

### Ayollarga maktub

Sog‘lom ayol kerak hayotga,  
Farzand o‘sirishga, ro‘zg‘or tutishga.  
Yor ko‘nglin ovlashga, mehmon kutishga,  
Yana qancha dardni ichga yutishga.  
O‘ktam, kuchli ayol kerak hayotga,  
Qo‘li kosov bo‘lgan jon opalarim.  
Bir dam tin oling-u oynaga boqing,  
U ko‘rkam husnni tortib oldi kim?  
Rayhonlar ekkansiz, sochlarga taqing,  
Sochlari supurgi jon singillarim.  
Yoringiz boshqaga qiyo ham boqmas,  
Agar siz sezsangiz kimligingizni.

Unda sizni ilon, chayonlar chaqmas,  
Sal pardozlab yuring hayoli yuzni.  
Pardoz ne bilmagan jon opalarim.  
Jodu ko'zlarinez yosh ko'rmas hecham,  
O'zingizga sal-pal qarab yursangiz.  
Hech bo'lmasa bir bor qo'lga olsangiz,  
Pardoz qutichangiz bo'lsa sizni ham.  
Pardoz ne bilmagan jon singillarim.  
Go'daklar uxlagach, xamir qorasiz,  
Tunda yaratasisz ertangi kunni.  
Siz uchun farqi yo'q kun bilan tunni,  
Nima ham qilasiz, qayga borasiz?  
Nolishdan or qilgan jon opalarim.  
Xiyonatga to'la dunyoda yashab,  
Jondan to'yganimda sizni o'layman,  
Sizga sig'inaman ma'budam atab,  
Birovdan kelganini — taqdirdan ko'rib,  
Nochor qolganimda sizni o'layman,  
She'rlar yozgum siz-la suhbat qurib!  
Bog'i Eramdag'i parilar-ku siz,  
Siz-ku jannatdag'i gunohsiz hurlar.  
Sizni xor etadi so'qir va ko'rlar,  
Esiz, qadringizni bilmaysiz, esiz!  
O'ttizdan o'tin-jon singillarim,  
Temirmisiz, metin-jon opalarim!  
Buyursin farzandlar kamolin ko'rmoq,  
So'ngsiz mehnatlarning gashtini surmod.  
Qo'sha qarib yuring juftingiz bilan,  
Uyingizga to'lsin yor-yor — o'lan.  
Menga ham buyursin o'kinmay kuylash,  
Katta minbarlardan baxtingiz so'ylash.  
Xinoli ko'rayin qo'llaringizni,  
Omadli ko'rayin yo'llaringizni.  
Qo'llari yorilgan jon singillarim,  
Mehnatga qorilgan jon opalarim!  
Axir, sog'lom ayol kerak hayotga,

Farzand o'stirishga, ro'zg'or tutishga.  
Yor ko'nglin topishga, mehmon kutishga,  
Yana qancha dardlarni ichga yutishga,  
O'ktam, sog'lom Ayol kerak hayotga!

*A. Oripov*

### **Ko'zgu parchalari**

Ko'zgu parchalari yo'lakda yotar,  
Unsiz sharpalari ruhimga botar.

Yuzlarim aks etar bir parchasida,  
Ko'zlarim aks etar bir parchasida.

Birida osmon aks etsa agar,  
Birida qushlarning raqsi jilvagar.

Olamning yaxlit bir suvratin ammo,  
Namoyon etolmas bu ko'zgu aslo.

Xilqat uning uchun but bo'lmas mangu,  
Axir, parcha-parcha singan ko'zgu bu.

Meni ma'zur tutgin, muhtaram inson,  
Suvrating chizolmay turibman hayron.

Bir kun fazilating olsam qalamga,  
Bir kun qabihliging yoygum olamga.

Bir kun ko'z yoshlaring qog'ozimdadir,  
Bir kun zaharxandang ovozimdadir.

Bir kun o'tmishingdan faryod solurman,  
Bir kun iqbolingdan o'yga tolurman.

Sening bo'y-bastingni ko'rsatmoq uchun  
Ko'zgu kerak axir yaxlit va butun.

Shoir yuragi-chi, olamda yakkash  
O'sha chil-chil singan ko'zguga o'xshash.

*Ra 'no*

### Dunyo

Sehrli dunyosan, sirli dunyosan,  
Kim uchun go'yo baxt, kimga ro'yosan.  
Kimga nadomatsan, kimga navosan,  
Men qanday aytayin, go'zal ma'vosan,  
Sehrli dunyosan, sirli dunyosan.

Birovga odilsan, birovga sitam,  
Shul sabab deydilar dunyo biri kam.  
Jonimni o'tlarda kuydirma, erkam,  
Dard-u alamimga yolg'iz davosan,  
Sehrli dunyosan, sirli dunyosan.

Kimdir rozi ketar, kimdir norozi,  
Nahot yorug' olam toshli tarozi.  
Umidimni bergen yozi, ayozi!  
Yo hech kim aytmagan so'zsan, da'vosan,  
Sehrli dunyosan, sirli dunyosan.

Sen borsan, go'zallik, baxt bor, ey dunyo,  
Agar qizg'anmasang taxt bor, ey dunyo.  
Momolarim aytgan ahd bor, ey dunyo,  
Sen odam Atosan, Momo Havosan,  
Sehrli dunyosan, sirli dunyosan.

*E.Vohidov*

### **Yana qalamga**

Bargi gul qog'ozim o'lsin,  
Shoxi gul – xoro qalam,  
Lafzi bu'lbul birla qilsin  
Ishq so'zin insho qalam.

Orazin tasvir etarda  
Bargi gul chok - chok o'lib,  
Qoshi ta'rifin aylab  
Yig'lasin shaydo qalam.

Hajr tahririda giryon,  
Jabr taqririda xun.  
Vasl tasvirida bo'lsin  
Bulbuligo'yo qalam.

Bejavob ishq dardini  
Tunlar bayon etdik ikkov,  
Bu azoblarni bilar  
Yolg'iz men-u tanho qalam.

She'r ila shod o'lding Erkin,  
Qilmading dunyo havas,  
Bor ekan ko'ksingda otash,  
Sen uchun dunyo qalam.

*Uvaysiy*

### **Kulmishlar**

Fig'onkim, xushmanqlar telba ahvolimg'a kulmishlar,  
Bu manzum ahlining raxshida pomolimg'a kulmishlar.

Tun-u kun ayladim bir laylivash vasfin tila mazkur,  
Etay deb shavq-u zavqidin par-u bolimg'a kulmishlar.

Necha kun tutqon erdim hush-u idrokim bila ulfat,  
Bukun dashti junun ichra qil-u holimg'a kulmishlar.

Muhabbat darsini takror etardin man'i qol etdim,  
Mudarris ahli bedardlig' ila holimg'a kulmishlar.

Tavakkul peshasin po'shok etib, cho'mdim haqiqatga,  
Qo'lim sar domanimda el bu af'olimg'a kulmishlar.

Bag'ir xunobman, bedard ahlin guftago'yidin,  
Dag'i ko'z jo'yidin oqqon sirishk olimg'a kulmishlar.

Alar kulmaklarin gustohliq tab'ida fikr etdim,  
Yana gul xandasidek ushbu dam holimg'a kulmishlar.

*Chustiy*

### **Uyqudan**

Boshdag'i ro'moli bo'lsam, tursa jonon uyqudan,  
Surma bo'lsam ko'ziga, tebransa mijgon uyqudan.

Yuziga xol tashlasam ko'z mardumidan bir qarab,  
Seskanib uyg'onsa, jonim unga qurbon, uyqudan.

Ko'z yarim uyquda, lab kulkuga moyil subhidam,  
Bir boqib lazzat olay men ushbu yolg'on uyqudan.

Navdayi gulga qo'nib, husnin guliga termulib,  
Men desam bulbul bo'lib, tur endi chaqqon uyqudan.

Ilgiga qo'ysam xino dildan uzib rangin giyah,  
Yelpisam, to'lg'onsa ushlab dasta rayhon uyqudan.

Bo‘yniga taqsam tizib mehr-u vafo gavharlarin,  
Uyg‘onur g‘abg‘abga shoyad botsa marjon uyqudan.

Kun yarimda turmasa noz uyqudan dilbarginang,  
Yoz qalam Chustiy bilan bir katta doston uyqudan.

*Bobir*

### **Yaxshilik‘**

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshilik‘,  
Kimki andin yaxshi yo‘q ko‘z tutma andin yaxshilik‘.

Bu zamonni nafy qilsam ayb qilma, ey rafiq,  
Ko‘rmadim hargiz netoyin bu zamondin yaxshilik‘.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,  
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilik‘.

Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yomonliq asru ko‘p,  
Emdi ko‘z tutmak ne ya‘ni har yomondin yaxshilik‘.

Bori elga yaxshilik‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik‘.

Yaxshiliq ahli jahonda istama Bobir kibi,  
Kim ko‘rubdir, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilik‘.

*Abdulla Qodiriy*

### **O‘tkan kunlar**

Poyafzal bozori va uning burchagidagi havli... Havlining kun  
chiqarida kun botishg‘a qaratib soling‘an, uncha maxtarliq bo‘lmasa  
ham, ammo zamonasining olding‘i binolaridan hisoblang‘an bir

ayvon bilan bir uy ko'zga tushadir. Sahn va binolar kishi zotidan bo'sh, shuning uchun bu havli oilaning tashqarig'i qismi - mehmonxona ekanligi ongashilur. Sahnning tun va kun botar jihatlari kichkina hujralar bilan o'ralg'an va bu hujralarning barcha eshlari yopiq va qulflang'an holda bo'lib, mollar bilan bandligi va uy egasining davlatlik kishi bo'lg'anlig'i bilunur. Endi biz tashqari havlini qo'yib, mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz. Ichkari havlining yo'lagi ham narigisidek usti va bag'ri yopiq-qorong'u, yo'lakning nihoyasiga borib, o'ngga yurilsa, axtaxonaga, chapka yurilsa birinchi martaba kiganimizdek ulug' bir havliga chiqarmiz. Havlining to'rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan o'ralg'an bo'lib shu ikki uyning orasig'a o'lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko'zga chalinadirk'an ortiqqliqlaridandir. Shu chorxari ayvonning o'rta bir yerida, ustiga atlas ko'rpalari yopilg'an tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib, bir kishi o'lturadir. Bu odam – Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttiz besh yoshlari chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimliq, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi – Ostob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o'tkan bir kampir, Ostob oyimning onasi – Oysha bibi. O'choq boshida qo'polg'ina, qirq besh yoshlari chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho' risi – To'ybek. Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to'riga soling'an atlas ko'rpa, par yostiq quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa sabab bilanmi uyg'oq yotqan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprik ostidag'i timqora ko'zlarini bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narasni ko'rgan kabi... Qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirlgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... To'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani ayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida,

tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashdi va boshini yostiqdan olib o'lturdi. Sariq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib, jonso'z bir suratka kirkizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibi edi.

---

**«SAHNA NUTQI» FANINI MUSTAHKAMLASH  
UCHUN SAVOLLAR**

1. Bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi nima deb ataladi?

- a) monolog
- b) diolog
- c) masal
- d) lahja.

2. Radio va televideniyeda qanday tilda ish yuritiladi?

- a) shevada
- b) adabiy tilda
- c) lahjada
- d) istalgancha.

3. O‘zbek tilida necha xil lahja bor?

- a) besh xil
- b) uch xil
- c) ikki xil
- d) yetti xil.

4. To‘g‘ri talaffuzni qaysi fan o‘rganadi?

- a) leksikologiya
- b) sintaksis
- c) orfografiya
- d) orfoepiya.

5. Monolog nima?

- a) o‘zaro suhbat
- b) yakka kuylash

- d) yakka gapirish  
e) sukut.
6. Kim yelkadosh ijrochi deb ataladi?  
a) rejissor  
b) portnyor  
d) suflyor  
e) dirijor.
7. Ikki kishining o'zaro suhbatni nima deyiladi?  
a) monolog  
b) diolog  
d) epilog  
e) epizod.
8. Asarning boshlanishi nima deyiladi?  
a) epilog  
b) epizod  
d) diolog  
e) prolog.
9. Tovush bilan bog'liq bo'lgan nafas bu...  
a) fonatitsion nafas  
b) funksion nafas  
d) diksiya  
e) artikulyatsiya.
10. Nuq tovushi tarkibidagi ohangdorlik bu...  
a) registr  
b) diksiya  
d) intonatsiya  
e) epilog.
11. Artiklyatsiya nima?  
a) nutq texnikasi  
b) nutqning sofligi  
d) ovoz kuchaytirgich  
e) nutq a'zolarining harakati

12. Rezonatorlar bu...

- a) qaytargichlar
- b) tozalagichlar
- c) pasaytirgichlar
- d) kuchaytirgichlar.

13. Ovoz balandligi va kuch darajasining ma'lum bir me'yordagi cheklanishi bu...

- a) intonatsiya
- b) rezonatorlar
- c) monolog
- d) registr.

14. ... arabcha so'zdan olingan bo'lib, o'mak, maqol, hikoya ma'nosini bildiradi.

- a) qofiya
- b) saj
- c) masal
- d) she'r.

15. Asardagi obraz nima deyiladi?

- a) rejissor
- b) personaj
- c) artist
- d) dirijor.

16. Sonor – lotincha so'z bo'lib ...

- a) nutq
- b) matn
- c) kuy-qo'shiq
- d) ovoz, jarang.

17. Badiiy asardagi to'qnashuv nima deyiladi?

- a) epilog
- b) epizod
- c) sonor
- d) konflikt.

## XULOSA

Nutq texnikasi ustida ishlash juda uzoq jarayon bo'lib, o'qituvchidan katta mahorat va bardoshni, talabadan esa mehnat va fidoiylikni talab etadi. Chunki institut dargohiga qadam qo'ygan talaba turli viloyat va shaharlardan keladi. Har bir talabaning nutqida u yoki bu kamchiliklar albatta mavjud bo'ladi.

To'rt yil davomida ularning nutqiy kamchiliklari, talaffuzi ustida ish olib boriladi. Talabalarga individual yondoshgan holda mashqlar berilib, ular muntazam kuzatib boriladi. Nutqning rivojlangan, takomillashgan, har tomonlama puxtalashgan darajasi nutq madaniyatidir. Faoliyati jonli so'z bilan aloqador bo'lgan kishilar, ayniqsa, madaniyat va san'at kishilari adabiy til talaffuziga alohida e'tibor berishlari lozim. Sahna nutqida eng bo'sh zvenolardan biri til va talaffuzga bo'lgan talabchanlikning yetishmasligidir.

To'g'ri talaffuzdagi eng qiyin va eng muhim bo'lgan kamchiliklarni o'qituvchi juda ziyraklik bilan aniqlab, talabadan to'g'ri talaffuz qoidalarini talab qilgan holda ko'niktirishi lozim.

Chunki har bir tovush, so'zni aniq, to'g'ri talaffuz etish nutq madaniyatini egallash hamdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. **Karimov I.A.** O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, T., O'zbekiston, 1992.
2. **Karimov I.A.** Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., O'zbekiston, 1998.
3. **Inomxo'jayev S.** Badiiy o'qish asoslari. T., O'qituvchi, 1972.
4. **Inomxo'jayev S., L.Xo'jayeva.** Badiiy so'z san'ati. T., O'qituvchi, 1972.
5. **Inomxo'jayev S.** Notiqlik san'ati asoslari. T., O'qituvchi, 1982.
6. **Savkova Z.** Kak sdelat golos ssenicheskim. M., 1975.
7. **Savkova Z.** Rechevoy xor v massovom predstavlenii. LGIM. L., 1977.
8. **Sayfutdinov A.** Adabiy asar va ijrochilik mahorati. T., 1980.
9. **Inomxo'jayev S., Zunnunov A.** Ifodali o'qish asoslari. T., 1965.
10. **Saricheva E.F.** Ssenicheskaya rech. M., 1965.
11. **Stanislavskiy K.S.** Aktyorning o'z ustida ishlashi, T., 1965.
12. **Stanislavskiy K.S.** San'atdagi hayotim. T., 1966.
13. **Ssenicheskaya rech. Uchebnoye posobiye.** M., 1976.
14. **Yazoviskiy E.A.** Virazitelnoye chteniye – kak sredstvo esteticheskogo vospitaniya. L., 1973.
15. **Yaxontov V.** Teatr odnogo aktyora. M., 1958.
16. **Nosirova A.M.** Jonli so'z san'ati asoslari. T., 2003.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### *I BO'LIM*

#### **BIRINCHI SHAXS NOMIDAN HIKOYA**

Birinchi shaxs tilidan aytildigan matn ustida ishlashning asosiy vazifa va uslublari .....	5
Oliy maqsad .....	6
Yetakchi xatti-harakat .....	9
Qarama-qarshilik .....	13
Diqqat obyekti (markazi) .....	14
Ra'no .....	17
Har bir o'quv yili uchun parchalar tanlash va ular ustida ishlash usullari .....	19
Birinchi o'quv yili .....	20
Birinchi qor .....	22
Talabalar tomonidan yozilgan manzaraviy parchalardan namunalar.....	23
Birinchi o'quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati..	25
Ikkinchchi o'quv yili .....	28
«Sabbayi-sayyor» .....	29
Ikkinchchi o'quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati..	35
Uchinchi va to'rtinchchi o'quv yillari .....	35
Latta .....	36
Uchinchi va to'rtinchchi o'quv yili uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati .....	40

## ***II BO'LIM***

«Sahna nutqi» fanining bo'limlari .....	42
Xulosa .....	77
Darslik va o'quv qo'llanmalari .....	78
Asosiy qism .....	78

## ***III BO'LIM*** **NUTQ TEXNIKASI**

Nutq madaniyati va uning ijtimoiy o'rni .....	91
Adabiy talaffuz haqida .....	93
Ba'zi orfoepik qoidalar .....	101
Diksiya .....	105
Unli tovushlar .....	107
Undosh tovushlar .....	113
Nutq organlari va uning faoliyati .....	129
Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish usullari .....	142

## ***IV BO'LIM***

She'riy asarlar ustida ish olib borish .....	163
Nasriy asrlar ustida ishlash uchun namunalar .....	173
Ilova .....	175
«Sahna nutqi» fanini mustahkamlash uchun savollar .....	201
Xulosa .....	204
Foydalanimgan adabiyotlar .....	205